Mo'minova Nargiza Sabitdjanovna

MTTDMQTMOI PhD dotsent

ABSTRACT: The article describes a model for the formation of a system for training teaching staff in a preschool educational organization based on innovative educational technologies, pedagogical and psychological conditions for the formation of a system for advanced training of teaching staff in a preschool educational organization based on innovative educational technologies.

KEY WORDS: model, teacher, qualification, system, innovative, educational technologies, education, pedagogical and psychological

Respublikamizda andragogik pedagogikaning ustuvor yo'nalishlari va g'oyalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish imkoniyatlari malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning faoliyatini strategik rejalashtirish, formal, noformal, informal o'qitish mazmunini takomillashtirish, mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, ommaviy ochiq onlayn kurslari integratsiya-lashuvini ta'minlashning turli modellari va texnologiyalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi —Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidallgi PF–79-son Farmoni va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 231-son qarori hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktabgacha ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirishda mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali shakllari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirishda kredit modulli jamg'ariladigan tizimga o'tish omillari ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berilgan.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmuni samaradorligini oshirishga qaratilgan modelni tavsiflash uchun asosli dalillarga ega bo'lish imkonini berdi.

Masofaviy ta'lim tizimi aralash ta'lim tizimida fanni o'rganishga doir har xil qo'shimcha materiallarni – audio va video yozuvlar, animatsiyalar va simulyator-lardan foydalanish imkonini yaratadi.

Aralash o'qish tizimining bu elementlari o'qish jarayonini osonlashtiradi va boyitadi degan xulosaga keldik.

Aralash o'quv tizimining audio va video ma'ruzalar, animatsiya va simulyat-siyalar-dan foydalanishning afzalligi o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligidir.

Kuzatuvlarimiz doirasida har bir element dinamik xarakterga ega bo'lishi bilan birga, tinglovchi uchun qulay, an'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi ko'proq faol holatda ishlasa, aralash ta'lim tizimida tahsil oluvchi ko'proq faol bo'ladi.

Bu, o'z navbatida, tinglovchilarning ko'proq mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlaydi va fanning mazmun- mohiyatini chuqur tushungan holda yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, malaka oshirish mazmunini onlayn modulli texnologiya orqali takomillashtirish tuzilmasini hosil qilishimiz mumkin. Malaka oshirish maydonini davlat va jamiyat buyurtmasi, malaka oshirish maqsadi, amalga oshirish shakllari, mahorat maktabi, metodik xizmat, an'anaviy kurslar, rahbar va pedagog kadrlar attestatsiyasi, qisqa muddatli kurslar, masofadan malaka oshirish, takomillashtirish yo'nalishlari, o'quv mazmunini shakllantirishning modulli texnologiyalarini takomillashtirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish va uzluksizligini ta'minlash, ta'lim jarayoniga akmeologik yondashuv tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarini malakasini oshirish maydoni talablaridan kelib chiqib, onlayn modulli texnologiya tizimini takomillashtirishning afzalliklariga e'tiborimizni qaratamiz: fanga doir barcha topshiriqlar haqidagi ma'lumotlar, topshiriqlarni bajarish muddati dars jadvali bilan birga kurs saytida joylashgan, shuningdek, qaysi topshiriqlar auditoriyada va qaysilari forumlarda muhokama qilinishigacha yozilgan bo'ladi.

Aralash ta'lim tizimida auditoriya mashg'ulotlari bir oz kamayadi, chunki mashg'ulotlarning bir qismi online rejimga o'tkaziladi; kurs materiallarining bir qismini tinglovchi mustaqil ravishda o'rganadi;

Online mashg'ulotlar forumlarda, chatlarda yoki virtual auditoriyalarda o'tkaziladi;

tinglovchilar fan o'qituvchilari va o'z kursdoshlari bilan elektron pochta orqali ham muloqot qilishi mumkin bo'ladi;

Online mashg'ulotlar savol - javob ko'rinishida yoki o'qituvchi tomonidan berilgan mavzularni muhokama qilish orqali o'tkaziladi.

Aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kompetentligini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish maqsadida (o'z-o'zini baholashning onlayn tizimi, vebinar, "teskarilangan sinf", modulli kredit tizimi, androgogik yondashuvning Formal, Noformal, Informal turlari) innovatsion infratuzilmani shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash indikatorlarini ishlab chiqish hamda avtomatlashgan monitoring tizimi yaratilganligi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarini malakasini oshirish tizimini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida shakllantirishning modeli maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarini malakasini oshirish tizimini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida shakllantirishning pedagogik-psixologik shartsharoitlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarini malakasini oshirish tizimini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan mustaqil ta'lim mazmunini o'zida aks ettiradi va ta'lim mazmunini takomillashtirishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy kompeten-siyasini shakllantirishda mustaqil ta'lim uchun tanlanadigan materiallar o'ziga xos tasnifga egadir.

Tanlangan material kasbiy va ijtimoiy hayotiy mazmunga ega bo'lishi, dolzarb masalalar haqida qiziqarli voqea - hodisalarga boy bo'lishi, ta'lim sifat va samara-dorligini oshirishga xizmat qilishi nazarda tutiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirishning maqsadi va ahamiyati har tomonlama rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega. Bu jarayon ta'lim tizimining sifatini oshirish va yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish uchun zarur.



1. Pedagog xodimlarining malakasini oshirishning maqsadi

Ta'lim sifatini yaxshilash: Pedagog xodimlarining bilim va ko'nikmalarini muntazam yangilash va rivojlantirish orqali ta'limning sifati oshadi.

Pedagogik bilimlarning zamonaviylashtirilishi: Yangi pedagogik texnologiyalar, metodikalar va o'qitish usullari haqida yangilanishlar amalga oshiriladi.

Professional rivojlanish: Pedagoglar o'z mutaxassisliklarini kengaytirish va yuqori natijalarga erishish uchun o'z bilimlarini doimiy ravishda yangilashga majburdirlar.

Yangi metodlar va texnologiyalarni joriy etish: Pedagoglar innovatsion texnologiyalarni o'z ish faoliyatiga tatbiq etish, ta'lim jarayonlarini samarali qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

2. Pedagog xodimlarini malakasini oshirish yo'llari

Seminarlar va treninglar: Pedagoglar uchun maxsus tashkil etilgan seminarlar, treninglar va kurslar orqali yangi metodikalarni o'rganish va bilimlarni yangilash.

Pedagogik tajriba almashish: Xodimlar o'rtasida tajriba almashish, o'zaro ta'lim va qo'llab-quvvatlash tizimi orqali malakani oshirish.

Ilmiy-tadqiqotlar: Pedagog xodimlarining ilmiy ishlar bilan shug'ullanishi, tadqiqotlar olib borishi va pedagogik jarayonni yaxshilashga oid yangi yondashuvlarni ishlab chiqish.

Davomiy ta'lim: Pedagogik kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari va magistratura dasturlari.

3. Malaka oshirishning afzalliklari

Pedagoglarning motivatsiyasi: Malaka oshirish orqali pedagoglarning ishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi oshadi.

Pedagogik malakani oshirish: Pedagoglar o'zlarining bilimlarini yangilash orqali samarali ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqobatbardoshlikni oshirish: Maktabgacha ta'lim tizimida yuqori malakali pedagoglar raqobatbardosh muhitni yaratadi.

4. Pedagogik malaka oshirishda davlat va jamiyatning roli

Ta'lim muassasalari: Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat tomonidan malaka oshirish dasturlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Maktabgacha ta'lim markazlari: Bu markazlar o'z-o'zidan pedagog xodimlari-ning malakasini oshirishga ko'maklashadi va ilmiy-uslubiy yordamni taqdim etadi.

Pedagogik tashkilotlar: Pedagogik jamiyatlar va assotsiatsiyalar pedagoglarning malakalarini oshirishda faol ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda shu tarzda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shish uchun muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-oktyabrdagi "Internet jahon axborot tarmog'ida milliy kontentni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 888-son Qarori.
2. A.V.Shin. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning tashkiliy-pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori dis. avtoreferat – T.: 2022. -10 b.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii pedagogicheskoye masterstvo.- T.:2005y
4. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar.-T.: Moliya nashr., 2003.

MAKTABGACHA 5-6 YOSHLI BOLALARGA SAVODXONLIKKA O'RGATISHNING YANGI INNOVATSION USULLARINI ISHLAB CHIQISH

Kattaxo'jayeva Shaxlohon Bohodirovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish instituti "maktabgacha va musiqiy ta'lim" kafedra katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarga savodxonlikni o'rgatishning samarali usullarini ishlab chiqish va bu jarayonning mazmunini tahlil qilishning asosiy maqsadi bolalarni savodxonlikka o'rgatish, ularning til va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, harflar va tovushlarni tanish, o'qish va yozishni boshlash, bolalarning savodxonlikni o'rganish jarayonida pedagogning metodik yondashuvlarini takomillashtirish.

KALIT SO'ZLAR: Maktabgacha ta'lim, savodxonlik, bolalar, tilni rivojlantirish, o'qish va yozish, usullar, interaktiv o'yinlar, rasmi kitoblar, tovushlarni ajratish, harf va so'zlar bilan ishlash, ta'lim metodi, bolalar psixologiyasi

РАЗРАБОТКА НОВЫХ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА 5-6 ЛЕТ

Kattaxo'jayeva Shaxlohon Bohodirovna

Старший преподаватель кафедры "дошкольное и музыкальное образование" института переподготовки и повышения квалификации специалистов ДОУ

АННОТАЦИЯ. Основной целью разработки эффективных методов обучения грамоте дошкольников 5-6 лет и анализа содержания этого процесса является обучение детей грамоте, развитие у них навыков речи и логического мышления, распознавания букв и звуков, знакомства с чтением и письмом, а также совершенствование методических подходов педагога в процессе обучения детей грамоте.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Дошкольное образование, грамотность, дети, развитие речи, чтение и письмо, методы, интерактивные игры, иллюстрированные книги, звукоразделение, работа с буквами и словами, метод обучения, детская психология;

DEVELOPMENT OF NEW INNOVATIVE METHODS OF TEACHING LITERACY TO PRESCHOOL CHILDREN 5-6 YEARS OLD.

Kattaxo'jayeva Shaxlohon Bohodirovna

Senior teacher of the Department "preschool and musical education" at the Institute of retraining and professional development of director specialists of the preschool educational organization

ANNOTATION. The main goal of developing effective methods of teaching literacy to preschool children of 5-6 years of age and analyzing the content of this process is to teach children literacy, develop their language and logical thinking skills, recognize letters and sounds, start reading and writing, and improve the methodical approaches of the pedagogue in the process of children's literacy learning.

KEYWORDS: Preschool education, literacy, children, language development, reading and writing, methods, interactive games, picture books, sound separation, working with letters and words, educational method, child psychology

Bola rivojlanishining hozirgi holati uni ijtimoiy muhitga juda erta va intensiv ravishda kirib kelishi bilan tavsiflanadi, shuning uchun ko'plab pedagog-tarbiyachilar va ota-onalar maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlikka o'rgatishning shart-sharoitlari, asoslarini tubdan isloh qilish, kelajakda bolaning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishining kaliti deb tushunishadi. 5-6 yoshli bolalarga savodxonlikka o'rgatish-bu ularning til va matnni tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni bo'lib, dastlabki bosqichda o'qish va yozish asoslarini o'rgatishning muhim qismidir. Bu yoshda bolalar uchun savodxonlikni shakllantirishning maqsadi, ularni harflar bilan tanishtirish, tovushlarni va harflarni bog'lashni o'rgatish, matnni o'qish va oddiy so'zlarni yozishni rivojlantirishga qaratilgan.

Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatdiki, bolalarning fonematik eshitishi orqali savodga o'rgatish faoliyatni rivojlantirish mazmunini aniqlash, avvalambor, "fonemik idrok", "fonemik eshitish", "so'z faolligi", hamda "nutqning rivojlan-ganlik darajasi" kabi tayanch tushunchalari aniq maqsadlardan kelib chiqqan holda tahlil qilinishi va fonemik eshitish orqali savodga o'rgatishni rivojlantirish bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari asoslanib o'tildi, shuningdek savodga o'rgatishni rivojlantirish orqali bolalarni maktabga tayyorlash didaktik tizimi va uning komponentlari, savodga o'rgatishni rivojlan-tirishga doir yondashuvlar, kognitiv mustaqillikni ta'minlash orqali savodga o'rgatish faoliyatini rivojlantirish tadqiq etildi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga savodxonlikka o'rgatishning yangi va innovatsion usullarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Bu yoshdagi bolalar o'yin, tasvirlar va interaktiv faoliyat orqali ko'proq o'rganishadi. Shuning uchun innovatsion usullar, bolalarning qiziqishini uyg'otadigan, ularni faol ishtirok etishga undaydigan va ularning o'qish-ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradigan bo'lishi kerak. Demak, yangi innovatsion usullar quyidagilardan iborat:

1. Raqamli Ta'lim Platformalari va Mobil Ilovalar

- Mobil ilovalar va o'yinlar: Savodxonlikni o'rgatish uchun bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar va o'yinlar (masalan, "Alifbo o'rgatish", "Tovush va harflarni bog'lash") yordamida bolalar o'ynab, o'rganishlari mumkin. Bu dasturlar interaktiv bo'lib, harflar va tovushlarni bog'lashni, so'zlarni shakllantirishni va matnni tushunishni o'rgatadi.

2. Interaktiv Rasmlar va Audio Kitoblar

- Interaktiv kitoblar: Bolalar kitoblaridan ko'proq interaktiv foydalanish, ya'ni rasmlar va audio kitoblarni joriy qilish, ularning savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kitoblar ichidagi harflar va so'zlarga tegishli bo'lgan tovushlar, rasm va audio tasvirlar yordamida bolalar harflar va so'zlar o'rtasidagi bog'lanishni yaxshiroq tushunadilar.

- Audio-kitoblar va interaktiv tinglash mashqlari: Bolalarga o'qilgan hikoyalar yoki ertaklarni tinglatish va ularni qayta so'zlashga rag'batlantirish. Bu bolalar matnni eshitish va tushunishga yordam beradi.

- Tovushli va vizual o'yinlar: Har bir harf yoki tovush uchun maxsus tovushli va rasmlar o'yinlar yaratish. Masalan, "harfni top" o'yini, bunda bolalar harfni va tovushni bir-lashtirishi kerak bo'ladi.

3. Robototexnika va Kodlash O'rgatish

- Kodlash orqali savodxonlik: 5-6 yoshdagi bolalar uchun dasturlash asoslarini o'rgatish orqali, ularni savodxonlikka qiziqtirish mumkin. Oddiy robotlar yoki kodlash platformalari yordamida bolalar harflarni va tovushlarni tanib, ularga tegishli kodlarni yaratadilar. Bu nafaqat o'qish, balki mantiqiy fikrlashni ham rivojlantiradi.

4. Kreativ Va Kollektiyalash Mashqlari

- Yaratish va kolleksiya qilish: Bolalar o'rgatish jarayonida yaratish va kolleksiya qilish asoslangan mashqlarni bajarishadi. Masalan, bolalar o'zlari yaratgan so'zlarni, rasmlarini yoki tasvirlarini o'qish va yozish orqali savodxonlikni rivojlantiradilar.

- Interaktiv jurnallar: Bolalarga o'zlarini o'qish va yozishni boshlaganliklarini kuzatib borishlari uchun interaktiv jurnallar berish mumkin. Bu jurnallar bolalarga o'qish va yozishni muntazam ravishda kuzatib borish imkonini beradi.

5. Multimedia Yondashuvi

- Video va audio yordamida o'qitish: O'qishning turli usullarini o'rganish uchun video va audio materiallardan foydalanish, bolalar uchun qiziqarli va samarali bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar o'qigan so'zlari bilan bog'liq qisqa videolarni tomosha qilib, matnни yanada yaxshiroq tushunadilar.

5-6 yoshdagi bolalarga savodxonlikka o'rgatishning yangi innovatsion usullari o'qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Raqamli plat-formalar, AR/VR texnologiyalari, interaktiv materiallar yordamida bolalarga o'qish va yozish ko'nikmalarini o'rgatish, nafaqat an'anaviy metodlardan farq qiladi, balki bolalarni bilim olishga yanada qiziqtiradi. Yangi texnologiyalar yordamida maktabgacha ta'lim tizimi yanada samarali va interaktiv bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida savodxonlik faoliyatini rivojlantirish orqali maktabga tayyorlash didaktik tizimiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlanganlik dinamikasi bir tomondan miqdoriy o'zgarishlarda ifodalangan bo'lsa, boshqa jihatdan rivojlanishning sifat ko'rsatkichlari tahlil etiladi va ular quyidagi asosiy usullardan foydalaniladi: nazariy tadqiqot usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, induksiya, deduksiya va boshqa), empirik tadqiqot usullari (kuzatish, suhbat, anketalar, ekspert baholash, faoliyat natijalarini o'rganish, intervyu, pedagogik eksperiment va boshqalar) va materiallarga matematik va statistik ishlov berish usullari.

Tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonligini oshirish bo'yicha kamchiliklarni hal qilishda kasbiy tayyorgarligi darajasini aniqlash va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, barcha tarbiyachilar bolalarni maktabgacha katta yosh guruhida xam savodxonlikka o'rgatish zarur deb hisoblashadi, ammo buning uchun zarur shart sharoitlar, yangi mashg'ulot ishlanmalari va adabiyotlar yetishmasligini ta'kidlab o'tishdi biroq tarbiyachilarning aksariyati maktabgacha yoshdagi bolalarni savodxonlik bo'yicha ta'lim berishning zamonaviy usullari to'g'risida ma'lumotga juda muhtoj, shuningdek, ushbu muammoni hal qilishga amaliy tayyorgarlikka ega emasliklarini xam aytib o'tishdi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatishning bosqichma-bosqich shakllanishini hisobga olgan holda tovushni intonatsion ajratish harakatini shakllantirish, bolalarda tovushlarni eshitib ularni tahlil qilishni shakllantirish uchun biz uchta muammoni ketma-ket hal qilishimiz kerak edi: bolalarni intonatsion ravishda tanlangan tovushni so'zda eshitishga o'rgatish, uni alohida atashga o'rgatish, so'zda berilgan tovushni mustaqil ravishda ajratib ko'rsatish.

5-6 yoshga kelib, bolalar nutq vazifalarining elementar turlarini o'zlash-tiradilar va o'tilgan mavzu bo'yicha odatda 2-3 ibora orqali muloqotda ya'ni suhbatda qatnashadilar, shuningdek o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalay oladilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalar savodxonlikka o'rgatishda nutq faoliyatining faqat ikkita turini o'zlashtiradilar: tinglash va gapirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatda muloqotga tayyorlik darajasini aniqlash maqsadida biz aniqlagan 2 ta mezon (eshitish qobiliyati, og'zaki nutq qobiliyati) asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning savodxonlikka o'rgatish ko'rsatkichlari (yuqori, o'rta, past) aniqlandi.

Har bir ko'rsatkich uchun biz tovush tahlilini o'zlashtirishning quyidagi mezonlarini aniqladik:

Fonematik eshitish qobiliyati. (fonematik idrok)

- Yuqori daraja:

1. Semantik-farqlash fonemalarni har doim mustaqil ravishda ajrata olish (tinglash

va to'g'ri talaffuz qilish) qobiliyati.

2. Mashg'ulotlarda o'rganilayotgan tovushning intonemalarini erkin farqlay olish (tinglash va tovush, intonemaga og'zaki bo'lmagan holda javob berish, (qarsak chalish, qo'lni, signal kartasini, rasmni ko'tarish) qobiliyati.

3. Gapning ritmik tusini mustaqil ravishda ajrata olish qobiliyati (fonemik takrorlashni ritmik yordam bilan qo'llab-quvvatlagan holda tinglash va takrorlash).

4. Turli uzunlikdagi nutq zanjirlarini xotirada erkin saqlash qobiliyati (kerakli ketma-ketlikda tinglash va mustaqil va takrorlash).

5. Mashg'ulotlarda nutq mazmunini shakliy va semantik xususiyatlariga ko'ra mustaqil ifoda qila olish (iborani, she'rni, hikoya va ertakni tinglash va tugatish.) qobiliyati.

6. Tarbiyachi-pedagogning nutqini erkin tinglash, uning asosiy mazmunini mustaqil tushunish va unga guruhda va guruhdan tashqari faoliyatlarda asosan javob bera olish qobiliyati.

Audio-video o'yinlardan foydalanish (ertak qahramonlarini, sahnalardan birini ovozi ni eshitish va qaytarib hikoya qilib berish);

pantomima ijro etish;

hissiy munosabat qilish;

- taklif qilingan bir qator rasmlardan bayonot mazmuniga mos keladiganini tanlash;

- kartochkalarni syujetning rivojlanishi ketma-ketligiga muvofiq joylashtirish;

- og'zaki:

umumiy savollarga (kim? nima? qayerda? qachon?) ona tilida javob berish (muloqotning ekstralingvistik vositalariga asoslangan: predmetlar, o'yinchoqlar, rasmlar, fotosuratlar);

- asosiy mazmunni ona tilida yetkazish.

7. Bayonot mazmunini mustaqil ravishda aniq va batafsil tushunish va unga javob berish qobiliyati:

- bayonotning asosiy mazmuni va uning tafsilotlari bo'yicha savollarga javob berish;

- bayonotning batafsil mazmunini (asosan ona tilida) yetkazish.

8. Tarbiyachi va tengdoshlarning xabarlarini doimo eshitish, tushunish va ularga javob berish qobiliyati:

- ko'rsatmalarni talab qilingan ketma-ketlikda bajarish ko'nikmasi;

- syujetli-rolli o'yinlarni sahnalashtirish (tayanch so'z va iboralar asosida).

5-6 yoshdagi bolalarga savodxonlikka o'rgatish — bu ularning kelajakdagi ta'lim va rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Harflar va tovushlarni o'rgatish, o'qish va yozishni rivojlantirish, shuningdek, bolalarni so'zlarni va matnlarni tushunishga undash orqali ular savodxonlikni o'rganishadi. O'yinlar, rasmi kitoblar va interaktiv mashqlar yordamida bu jarayonni samarali va qiziqarli qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" – T.:2018.
2. M.Isxaqova va boshqalar "Savodxonlikka o'rgatish" – T.:2018.
3. F.R.Qodirova va boshqalar. Nutq rivojlantirish metodikasi. T.: 2019.
4. S.Raximova va boshqalar. Atrof –olam bilan tanishtirish metodikasi. T.: 2019.
5. F.R.Qodirova, M.Z.Fayzullaeva "Maktabga tayyorlov guruhlarida nutqni rivojlantirish ta'limiy faoliyatini tashkil etish" – T.:2021.
6. Монтессори педагогикаси элементларидан нутқ терапияси дарсларида фойдаланиш 2015.

TA'LIM JARAYONIDA AL-HAKIM AT-TERMIZIY MA'NAVIY- AXLOQIY QARASHLARIDAN FOYDALANISH USUL VA VOSITALARI

Achilov Nuriddin Abdugafforovich

*Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Annotasiya: Maqolada ta'lim jarayonida jumladan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida al-Hakim at-Termiziy ma'naviy-axloqiy qarashlaridan foydalanish usul va vositalari bayon qilingan. Shuningdek, alloma asarlarining mazmuni va mohiyati, hozirgi kunda o'quvchi-yoshlar tarbiyasida al-Hakim at-Termiziy ma'naviy-axloqiy qarashlarining pedagogik imkoniyatlari hamda alloma merosini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish masalalari bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ma'rifat, ma'rifatparvarlik, tarbiya, ilm, nur, bilim, ma'naviyat.

МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННЫХ ВОЗЗРЕНИЙ АЛЬ-ХАКИМА АТ-ТЕРМИЗИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Achilov Nuriddin Abdugafforovich

Декан факультета социальных наук Термезского государственного университета, доктор педагогических наук, доцент

Аннотация: В статье описываются методы и средства использования духовно-нравственных воззрений аль-Хакима ат-Тирмизи в образовательном процессе, в том числе в общеобразовательных средних учебных заведениях. Также даются рекомендации по содержанию и сути трудов ученого, педагогическим возможностям духовно-нравственных воззрений аль-Хакима ат-Тирмизи в воспитании современной учащейся молодежи, внедрению наследия ученого в образовательный процесс.

Ключевые слова: просвещение, просвещение, образование, наука, свет, знание, духовность.

METHODS AND MEANS OF USING AL-HAKIM AT-TERMIZI'S SPIRITUAL AND MORAL VIEWS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Achilov Nuriddin Abdugafforovich

Dean of the Faculty of Social Sciences, Termez State University, doctor of philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

Abstract: The article describes the methods and means of using the spiritual and moral views of al-Hakim at-Tirmidhi in the educational process, including in general secondary educational institutions. It also provides recommendations on the content and essence of the scholar's works, the pedagogical possibilities of al-Hakim at-Tirmidhi's spiritual and moral views in the education of students and young people today, and the implementation of the scholar's heritage in the educational process.

Keywords: enlightenment, enlightenment, education, science, light, knowledge, spirituality.

Kirish. Hamma davrlarda ham yosh-avlod ta'lim-tarbiyasi, ularning ilm-ma'rifati bo'lib kamolga yetishi uchun alohida ahamiyat berilgan. Albatta, yurtning taraqqiy etishi, xalqimizning tinch va farovonligi har jihatdan shu vatanda kamol topayotgan yoshlarga bog'liq. Yoshlarni tarbiyalashda, mutafakkirlar asarlari, hayoti va faoliyati dastur sifatida xizmat qiladi. Jumladan, ko'p ming yillik va uzoq tarixga ega bo'lgan Movarounnahr zaminidan ko'plab dunyo tamadduniga hissa qo'shgan allomalar yetishib chiqqan. Ularning hayoti, faoliyati va asarlari asosida ilmning barcha yo'nalishlari rivojlangan. Ilm-ma'rifat va allomalarimiz ma'naviy-axloqiy qarashlarini o'rganish, ularning mazmuni va mohiyatini xalqimizga yetkazish hamda yosh-avlodning bilim darajasini yanada oshirish haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"[1; 17], - deb ta'kidlagan edi. Shu maqsadda, allomalarimizning hayoti va faoliyatini pedagogik tahlil qilish hamda ulardan keng xalq ommasi, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarni xabardor qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Qadimgi Termiz shahri dunyo tamadduniga ulug' mutafakkirlar va mashhur olimlarni voyaga yetkazdi. Bu ko'hna diyorda jahon ilm-faniga hissa qo'shgan allomalar, pirlar, tengsiz adib va shoirlar yetishib chiqqan. Xususan, islom dini teran g'oyalarining mumtoz targ'ibotchilari hisoblangan al-Hakim at-Termiziy, Abu Bakr Varroq Termiziy, Muhammad ibn Homid Termiziy, Xoja Samandar Termiziyilar hamda musulmon olamida e'tirofini topgan "Sihoh sitta"(Olti hadis kitobi)ning mualliflaridan biri Imom Abu Iso at-Termiziyilar yetishib chiqdi.

Benazir alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishir ibn Horun Hakim at-Termiziy qadimgi Termiz shahrida dunyoga keldi. U yoshligidan oilasida hadislarini tinglab, voyaga yetdi. Oiladagi ana shunday ilm-ma'rifatga yo'nalgan muhit, Hakim Termiziyini muqaddas Qur'on tilovatiga, Rasululloh hadislariga rag'batini yanada oshiradi. Allomaning bolalik va yoshlik yillari haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Bu haqda "Badv ush-sha'n yoxud Hakim Termiziyning o'zi haqida yozganlari" risolasida quyidagicha yozadi: "sakkiz yoshga kirganimda barchaning shafqatli va mehriboni bo'lgan Alloh taolo o'z inoyatini mendan darig' tutmadi. Shayx menga ilm sirlarini o'rgatib, tinmay ilm olishni targ'ib qilar edi. Bu ish shu darajaga yetib bordiki, hatto butun vujudim bilan dars olishga intildim. Go'daklik paytimdanoq o'yin o'rnini kitob mutolaa qilish mashg'uloti egalladi. Shu asnoda yoshlikdan ilm ul-osor (hadis ilmi)ni hamda ilm ul-roy (hanafiy fiqh)ni o'rganishni boshladim" [2; 10.]. Yoshlikdan ilm egallashni maqsad qilgan Hakim Termiziyini shu davrning ma'rifat o'chog'i hisoblangan shaharlarga: Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur hamda Sharqning Ray, Hamadon, Bag'dod, Basra, Samara, Kufa, Makka, Madinaga safarga chorlaydi. Alloma bu shaharlarning ilm ahli bilan tanishdi, ular bilan qizg'in suhbatlar qurdi, ulardan fan sirlarini o'rgandi va ilm-fanga oid barcha bahsu munozaralarda faol ishtirok etadi.

Al-Hakim at-Termiziyning yo'li ilm-ma'rifat yo'li bo'lib, asarlarining bosh g'oyasi ham insonni ilmi va ma'rifati bo'lishidir. Uning kitobi va risolalarining ko'pchiligi tasavvuf ilmiga oid bo'lib, ular alohida e'tirof qilinadi. Alloma avvalgi asrlarda o'tgan bo'lsa ham, mazkur kitob va risolalariga so'fiylar, tasavvufni o'rganuvchi ilmiy xodimlar katta e'tibor nazari bilan qaraganlar. Chunki, ajdodimiz har bir asarida ilmga alohida e'tibor berib, uni egallash usul va yo'llarini ko'rsatib beradi. Alloma, "ilmni nurdir", - deb ta'rif beradi va shu nur insonni yaxshiliklarga, ezguliklarga olib boruvchi asosiy vosita ekanligini ta'kidlab, faoliyati davomida shu g'oyaning nazariy va amaliy yo'llarini tushuntirib beradi.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil qilish masalasi hamma davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning eng muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Xususan, mustaqillikka erishganimizdan so'ng ta'lim tizimi muassasalarining oldiga yangi demokratik davlatning

fuqarolarini shakllantirishdek dolzarb vazifani qo'ydi. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari shartida ham barkamol shaxs tarbiyasi, kreativ fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli bizning kichik tadqiqotimiz ta'lim jarayonida Al-Hakim at-Termiziy ma'naviy-axloqiy qarashlaridan foydalanishga qaratilgan. Shuningdek, hozirgi kunda uzluksiz ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-ma'rifiy shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan savollarga javob berish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglarni shu yo'nalishdagi kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berishdir.

Xususan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida al-Hakim at-Termiziy ma'naviy-axloqiy qarashlaridan "Tarbiya" fani darsida va darsdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarda foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mashg'ulotlarni yakka, juftlik, kichik guruhlarda tashkil qilish va o'tkazish hamda o'quvchilarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish masalalariga bag'ishlangan kerakli metodik tavsiyalarni bermoqchimiz [2; 368]. Quyida e'tiboringizga umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida dars va darsdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarda foydalanish maqsadida tavsiya sifatida alloma merosiga oid "Ona rizosi" hikoyasini havola etmoqchimiz.

Ona rizosi

Bir kuni kichik Muhammad ikki do'sti bilan ilm olish uchun ahdlashdi. Ular safarga chiqish taraddudini ko'ra boshladi. Biroq, Muhammad yo'lga chiqish oldidan onasini g'amgin holda ko'rdi. Onasi unga dedi: "Ey jonim bolam! Men zaif va ishimni qiladigan kishim yo'q, sen ishlarimni bajaruvchisan, meni kimga tashlab ketasan? Men tanho va ojizman!" Bu alamli so'zlarni eshitib farzand diliga og'ir dard tushib, safarga borish niyatidan qaytdi. Ikki do'sti esa ilm olish uchun safarga jo'nab ketishdi.

Oradan bir oz vaqt o'tdi. Kunlarning birida Muhammad o'ltirib zor-zor yig'lar edi va ko'nglida dedi: "Men bu yerda abgorman, do'stlarim esa ilmda kamolga yetib, olim bo'lib qaytadilar". Shu vaqt qarshisida bir nuroniy chol paydo bo'ldi. Chol shunday dedi: - Ey o'g'lon! Nega yig'layapsan? O'g'lon ahvolini tushuntirdi. Nuroniy chol aytdi: - Iltasang, men senga har kuni shu yerda dars o'taman va tezda do'stlaringadan o'zib ketasan! - Istayman, - dedi o'g'lon.

Nuroniy chol har kuni dars o'ta boshladi. Shu asnoda oradan uch yil o'tdi. Bu nuroniy chol doim uning yoniga kelib turar va bir-birlaridan voqea hodisalarni so'rab olar ekan. Shu asnoda nuroniy choldan Muhammad ilm-ma'rifat egaladi.

Keyin ma'lum bo'ldiki, bu nuroniy chol Hizr alayhissalom ekan. Muhammadning bu saodatli marhamatga erishishi onasining rizosi barokotidan bo'lgan edi [3; 57].

Kitob – tunganmas xazina, undan olgan bilimlarni umrning oxirigacha ham sarflay olmaymiz. Alloma aytadiki: "Eng qiynalgan vaqtlarimda kitoblarim menga tasalli berar edi" yoki "davr shiddatlari kuchli zarba berganida, o'z kitoblarimga suyanar edim" [4; 60]. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida kitobga nisbatan qiziqtirish, e'tiborini oshirishda "Tarbiya" fani, tarbiyaviy soat va sinfdan tashqari o'qish darslarda foydalanish uchun alloma merosiga oid "Kitobning qudrati" hikoyasini tavsiya qilmoqchimiz.

Kitobning qudrati

Al-Hakim at-Termiziyning shogirdi Varroq Termiziy shunday hikoyat qiladi: Bir kuni ustozim Hakim Termiziy kitobni qo'limga berib uni Jayxun daryosiga tashlashimni aytdi. Mening kitobni suvga tashlashga ko'nglim bo'lmay, kitobni uyimda qoldirib, qaytib keldim va dedim: "Tashladim", "Nima ko'rding?" - dedi, "Hech narsa" - dedim, "Tashlamabsan", - dedi. "Bor tashlab kel!", - deb buyurdi. So'ngra izimga qaytdim. Ko'nglimni oldingi vasvasadan xoli qilib, kitobni suvga tashladim. Shu vaqt Jayxun daryosi ikkiga bo'linib, suvning ichidan og'zi ochilgan bir sandiq chiqdi, kitob sandiq ichiga tushgach, sandiqning og'zi yopildi. Kelib, ko'rganlarimni aytdim, "Endi tashlabsan", - dedi. "Ey shayxim, buning sirini menga anglat", - dedim. Ustozim dedi: "Asos va haqiqat haqida bir kitob yozgan edim, uni fahm va idrok etish og'irdir, o'shani ustozim Xizr (a.s.) tilagan edi, suvga esa Alloh taolo buyurgan edi, kitobni Xizrga yetkazsin - deb". Ustozimning bu ta'rifi kitobga

alohida cheksiz inoyat borligini va alloma yozgan kitoblarida, aytgan kalomlarida ulug' qiymat borligini ko'rsatadi.

Xulosa. Al-Hakim at-Termiziyning ta'lim jarayonida tavsiya etilayotgan hikoya va hikmatlari mazmunida ota-onaga hurmat, kitobga mehr, insonparvarlik, yaxshilik va iymonning inson faoliyatidagi ahamiyati mazmuni chuqur tahlil qilingan bo'lib, u o'quvchi-yoshlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida al-Hakim at-Termiziy ma'naviy-axloqiy qarashlaridan foydalanish usul va vositalari pedagogik tahlili natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

Birinchidan, al-Hakim at-Termiziyning ma'naviy-axloqiy qarashlari shaxs tarbiyasi va kamolotida alohida ahamiyat kasb etadi. U o'quvchi-yoshlarni insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalashda metodologik manba vazifasini o'taydi.

Ikkinchidan, al-Hakim at-Termiziyning ilmiy pedagogik merosini o'quvchi-yoshlarimiz chuqur o'zlashtirsagina ajdodlarimizdan faxr va iftixorga hamda ularning munosib davomchilari ekanliklarini teran his qiladilar.

Uchinchidan, "Tarbiya" fani darsida, sinf va darsdan tashqari mashg'ulotlarda alloma merosidan samarali foydalanish, pedagogik tahlil qilish asosida o'quvchi-yoshlarda ota-onaga mehr-muhabbat, ezgulik-sadoqat, kitobga mehr va uni qadrlash kabi ma'naviy-axloqiy sifatlar majmui ma'rifatparvarlik fazilatlarini shakllanadi [6; 37].

To'rtinchidan, Al-Hakim at-Termiziyning ma'naviy-axloqiy qarashlari xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizni bilim olishga, ilm-ma'rifat egallashga, ular orqali insoniy fazilatlar sohibi qilib tarbiyalash, o'quvchilar qalbida ajdodlarga munosib avlodlar bo'lishga va Vatanga muhabbat tuyg'ularini yanada mustahkamlashda xizmat qiladi [7; 7].

Darhaqiqat, al-Hakim at-Termiziyning ma'naviy-axloqiy qarashlar va uning har bir asari juda qimmatli hisoblanadi. Ular har bir kishini, ayniqsa, yosh-avlod tarbiyasida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Alloma asarlaridagi mushohadali teran fikrlar har bir kishini befarq qoldirmaydi. Balki, ularni chuqur anglashga, teran fikrlashga hamda mushohada qilishga, undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yilning eng muhim ustuvor vazifalari haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent, 2020 y., 25 yanvar.
2. Badv ush-sha'n yoxud Hakim Termiziyning o'zi haqida yozganlari. [Tarjimon R.Abdullayev]. - T.: "Mumtoz so'z", 2016. -100 b.
3. Ishmuhammedov R., Yuldashev M., Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: 2017. -368 bet.
4. Tursunov S., Murtazoyev B., Termiziyning ilmiy tafakkuri. – T.: "O'zbekiston", 2016. -280 bet.
5. Choriyev Z., Annayev T., Murtazoyev B, Annayev J. Al-Hakim at-Termiziy. - T.: "Yangi asr avlodi", 2008. – 150 b.
6. Achilov N.A. Al-Hakim at-Termiziy asarlari vositasida talabalarda ma'rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish texnologiyasi. ped.fan.bo'y.fal.dok. ... diss. – Termiz, 2020. - 173 b.
7. Abdugafforovich A.N. Scientific theory of al-khakim at-termezi //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 2019.
- 8.

BIOLOGIYA FANINI O 'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Ro'zmatova Sharofat Toshmatjonovna

ChDPU Biologiya kafedrasida o 'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Biologiya fanini o'qitishda "A-Z" metodining dars jarayoniga qanday qilib qo'llanilishi masalasi yoritilgan. Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarda bilim ko'nikma malakalar shakllantirilishi yoritilgan. Odam anatomyasi fanida qo'llanilgan mavzuga oid terminlar o'quvchilar yodida saqlanadi va bilimlari yanada rivojlanadi. O'quvchilarni fikrlash doirasi kengayadi, nutqi shakllanadi, jumlararni to'g'ri topish ko'nikmalari rivojlanadi. Ushbu metod natijasida o'quvchilarda kreativlik va ijodkorlik shakllanadi, erkin fikrlashni o'rganadi.

Kalit so'zlar: ijodkor, samarali, bilim, ko'nikma, liderlik, ishonch, ishtiyoq, kreativlik, erkin fikrlash, iqtidor.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ

Ro'zmatova Sharofat Toshmatjonovna

Преподаватель кафедры биологии ЧГПУ

Аннотация. В статье описано, как использовать метод «А-Я» в обучении биологии. С помощью этого метода формируются знания и умения учащихся. При использовании в науке анатомии человека термины, относящиеся к данному предмету, запомнятся учащимися, и их знания будут развиваться дальше. Расширяется диапазон мышления учащихся, формируется речь, развиваются навыки поиска правильных предложений. В результате применения данного метода у учащихся формируются творческие способности и креативность, они учатся свободно мыслить.

Ключевые слова: творческий, эффективный, знания, навыки, лидерство, уверенность, увлеченность, креативность, свободомыслие, талант.

EFFECTIVE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING BIOLOGY

Ro'zmatova Sharofat Toshmatjonovna

Teacher of the Department of Biology, ChDPU

Abstract: The article discusses the issue of how to apply the "A-Z" method in teaching Biology. The formation of knowledge and skills in students through the use of this method is highlighted. When used in the subject of human anatomy, the terms related to the subject are remembered by students and their knowledge is further developed. The scope of students' thinking expands, their speech is formed, and the skills of finding the right sentences are developed. As a result of this method, students develop creativity and ingenuity, learn to think independently.

Keywords: creative, effective, knowledge, skills, leadership, confidence, enthusiasm, creativity, independent thinking, talent.

Kirish. Biologiya o'quv dasturi asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallash jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy qismi bo'lgan biologiya kabineti va dars jarayonining to'g'ri, samarali tashkil etilishiga bog'liq. Fanlarni chuqur o'zlashtirish borasida o'quvchilarga beriladigan bilim va ko'nikmalardan tashqari, uning tasavvurini shakllantirish uchun darslarni turli hil pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etish darsni sifatli va o'quvchining to'liq ma'lumotlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Biz dars jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etar ekanmiz avvalombor bu so'zlarning mazmun mohiyatiga etibor qaratishimiz zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Biologiya o'qitish metodikasida pedagogik omillarni yaratishda katta tajribaga ega pedagoglardan A.M. Rozenshteyn [59], T.M. Yaroslavsev [68], L.Ye. Vasilyeva [27], L.V. Niroyeva [41], N.A. Pugal [46] larning tadqiqotlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu tadqiqotlardan biologiyani o'qitishda turli o'quv qurollarni o'rganish, ijobiy motivlari, kognitiv faollikni rag'batlantirish masalalari tahlil qilingan.

J.O. Tolipova darslarni xilma xillashtirish, noan'anaviy darslar (semenar, konferensiya, muammoli, munozarali) o'tkazish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, mustaqilligini rivojlantirishda, puxta bilim egallashlarida katta rol o'ynashini ko'satib bergan [63].

M.M. Isabayevaning "Biologiyani o'qitishda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida biologik ta'lim jarayonida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishni dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar davomida yoritish yo'llari haqida yozilgan [32].

Texnologiya (sa'nat, mahorat, qobilyat; logos "so'z", "fikir", "ma'no", "tushun-cha") - kerakli natijaga erishish uchun usul va vositalar to'plami, keng ma'noda ilmiy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilish uchun qo'llash. Texnologiya ish usullarini, uning tartibini, harakatlarni ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Pedagogik texnologiya - bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir. Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash uchun ham zamonaviy o'qituvchi ko'pgina sifat va fazilatlariga ega bo'lishi zarur.

Hozirgi kundagi zamonaviy o'qituvchi qiyofasidagi shaxs pedagogik-psixologik jihatdan yuksak tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan habardor bo'lishi kerak.

O'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birgalikda, ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo'llovchi, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o'z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo'naltirish, mo'ljalni to'g'ri olishga o'rgatish kabi hislatlarga ega bo'lishi kerak.

Dars jarayonida tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar maqsadli bo'lishi va o'quvchi faoliyatiga darslarni mukammal va samarali o'rganish uchun foydali bo'lishi kerak.

Natijalar. Pedagogik texnologiyalar orqali o'quvchida quyidagi sifatlar shakllanishi kerak.

- O'yin davomida shaxsning muloqatga kirishishi kommunikativ-muloqot madaniyatini shakllantirish;
- O'yin har doim shaxsning ma'lum bir faoliyatiga bo'lgan qiziqishini orttirish;
- Shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi bilimini va o'zligini namoyon etishga imkon yaratish;
- Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalari tarkib topishi;
- O'yin jarayonida ijtimoiy me'yorlarga mos xulq atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyatini yaratish;
- Shaxsning ijobiy hislat va fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlash;

- O'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqat madaniyatini shakllantirish;

Muhokama. O'quvchilarning bilish faoliyatini o'yin faoliyati bilan uyg'un holda tashkil etish samarali va o'quvchilarni fanga bo'lgan munosabati va qiziqishlarini yanada orttiradi. Dars jarayonlarini samarali tashkil etish va o'quvchilarda bilim, ko'nikma malakalarni shakllantirishda metodlar orqali ishlash eng samarali usul hisoblanadi. 8-sinf Odam va unug salomatligi fani misolida "A, Z" metodini ko'rib chiqamiz. Bu metodni dars jarayonida o'tilgan mavzuini so'rash yoki yangi mavzuni mustahkamlash uchun qo'llashimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oquvchilarga A4 formatdagi qog'ozga A harfidan Z harfigacha bo'lgan alfavit harflari yozilgan qog'oz beriladi va mavzuga oid bo'lgan shu harflardan boshlangan so'zlarni yozish vazifasi aytiladi. Masalan, Mavzu : Tayanch-harakatlanish sistemasi

"A-Z" Metodi.

A-	B-	D-	E-	F-	G-
H-	I-	J-	K-	L-	M-
N-	O-	P-	Q-	R-	S-
T-	U-	V-	X-	Y-	Z-
O'-	G'-	Sh-	Ch-		

O'quvchilar mavzuga oid so'zlarni harflarga moslab yozadilar va o'qituvchi tomonidan ko'rib chiqiladi va o'quvchilarga har biri o'z ismining bosh harfiga mos keladigan harf so'zini tushuntirib berish aytiladi va o'quvchilar ketma-ketlikda vazifalarga javob bera boshlaydi, shu tariqa o'qituvchi mavzularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini bilib oladi

Bu metod orqali o'quvchida quyidagi hislatlar shakllanadi.
aqliy-fiziologik faollik yuzaga keladi.

Ishonch hissi ortadi, darsga ishtiyok paydo bo'ladi, liderlik, boshqaruvchanlik ko'nikmalari shakllana boshlaydi

Nutqlari ustida ishlaydilar, fikrlarini tusuntirishga o'rganadilar

Auditorya oldida o'zlarini tutishga, boshqalarning diqqat -e'tiborini jalb qilishga harakat qiladilar:

Xulosa. darslarni pedagogik texnologiyalar bilan tashkil etish bu o'quvchining shaxs sifatida shakllanishiga hayotda qiyin vaziyatlardan oqilona yo'l tutish orqali chiqib ketishga, jamiyatda o'zaro hurmat va boshqalar fikrini to'g'ri tahlil qilishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Avazbayev.A.I. va boshqalar. "Ta'lim texnologilari" fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent 2013 y.
2. Ro'zmatova Sh.T. "Biologiya o'qitish jarayonida didaktik-ko'rgazmali vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish"-Chirchiq., 2023
3. Tolipova.J.O.,G'ofurov A.T Biologiya ta'limi texnologiyalari.-.T.; [O'qituvchi],2002.
4. XidoyatovaD. Samarali interaktiv metodlar.Metodik qo'llanma., Toshkent.,2023.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. darslik. Toshkent "IQTISOD-MOLIYA"2011

MAKTAB-OILA-MAHALLA HAMKORLIGI ASOSIDA O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK VA AXLOQIY SIFATLARNI TARBIYALASH

Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo'lim mudiri, (PhD) katta ilmiy xodim

Salimova Ozoda Yusupovna

Kattaqo'rg'on sh. 11-IDUM direktori

Аннотасија: Hozirda, yoshlarimizning barqaror hayoti uchun yangicha "tarbiya" usul va shakllarini yaratish kuchli ijtimoiy zaruriyat sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan asosiy masalalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama uyg'un va barkamol rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga oladigan yosh avlodni tarbiyalash asosiy maqsad hisoblanadi.

Калит со'злар: ta'lim-tarbiya, komil inson tarbiyasi, maktab, mahalla, oilada tarbiyaviy ishlar, ota-onalar va maktab hamkorligi masalalari, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalash ishlari, ta'lim muassasalari.

ВОСПИТАНИЕ У УЧАЩИХСЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ И НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ НА ОСНОВЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ШКОЛА-СЕМЬЯ-МАХАЛЛЯ

Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna

Национальный институт педагогики воспитания имени Кари Ниязи заведующий отделом, (PhD) старший научный сотрудник

Salimova Ozoda Yusupovna

Г. Каттакурган 11-директор IDUM

Аннотатсия: В настоящее время создание новых методов и форм «образования» для устойчивой жизнедеятельности нашей молодежи является одним из главных вопросов, который поднялся на уровень государственной политики как настоятельная социальная необходимость. Главная цель нашей страны-воспитать физически здоровое, духовно зрелое, всесторонне гармоничное и развитое, самостоятельно мыслящее, интеллектуально грамотное, обладающее глубокими знаниями и современным мировоззрением, несущее ответственность за судьбу и будущее нашей Родины молодое поколение.

Ключевые слова: образование, воспитание полноценной личности, школа, микрорайон, воспитательная работа в семье, вопросы взаимодействия родителей и школы, образовательный процесс, духовно-нравственное воспитание, воспитание на основе семейных ценностей, образовательные учреждения.

EDUCATION OF PATRIOTIC AND MORAL QUALITIES IN STUDENTS ON THE BASIS OF SCHOOL-FAMILY- NEIGHBORHOOD COOPERATION

Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna

Head of Department, National Institute of educational pedagogy named after Qori

Niyazi, senior research fellow

Salimova Ozoda Yusupovna

Kattakurgan sh. 11-IDUM director

Abstract: Currently, creating new methods and forms of «education» for the stable life of our youth is one of the main issues raised to the level of state policy as a strong social necessity. In our country, the main goal is to educate a young generation who is physically healthy, spiritually mature, harmonious and well-developed in all aspects, independent-thinking, intellectually capable, has deep knowledge and a modern outlook, and takes responsibility for the fate and future of our country.

Key words: education and upbringing, perfect human upbringing, school, neighborhood, educational work in the family, issues of parents and school cooperation, educational process, moral and moral education, work of education based on family values, educational institutions.

Yosh avlodni axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislatlar bilan birga diniy va milliy bag'rikenglik, yuksak ma'naviyat egasi hamda boshqa millatlarga nisbatan hurmat bilan qaraydigan, insoniy qadr-qimmatni e'zozlaydigan qilib tarbiyalashda uch asosiy omil – oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega-dir.

Bugungi kunda o'quvchi ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamida globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Har bir ota-ona o'z farzandi kamolini ko'rish uchun uni voyaga yetkazadi, albatta, bu jarayon o'z-o'zidan amalga oshmaydi.

Xalqimizda bir naql bor: «Nima eksang, shuni o'rasan», shu naqlni boshqa talqinda aytib ko'raylik: «Nima o'rishni xohlasang, shuni ek». Ota-ona farzandlariga mol-mulk, uy-joy, avtomobil va boshqa qimmatbaho moddiy boyliklarni berishi mumkin, lekin tarbiya, baxtni topib bera oladimi? Bunga o'zlarining qanday tarbiya ko'rganlik darajasi bilan erishiladi. «Ota o'g'lini yetaklab ketayotib, o'g'lim qadamingni o'ylab bos deb aytsa, o'g'li shunday javob beribdi: ota siz qanday qadam bossangiz men shunday yuraman, chunki men sizga ergashayapman».

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahallalarning mavqeini yuksaltirish, davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ushbu sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugunda mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyat va an'analarimiz tiklanib, zamon talablari asosida boyitilmoqda. Mahallalar imkoniyati va vakolatlarining tobora kengayib borayotgani fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ahillik, hamjihatlik, osoyishtalik muhitini asrab-avaylash, oilalarnimustahkamlash, yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati ortayotganida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalla tarbiya o'chog'idir. Farzand oilada dunyoga kelib birinchi bor ota-onasini tanisa, ulg'aygan sayin mahalladagi odamlarni taniy boshlaydi va yurish-turish, odob-axloq, jamiki ijobiy fazilatlarini, avvalo, mahalladan, aniqrog'i, ota-onalari, qo'ni-qo'shnilari, tabarruk otaxonlari, duogo'y onaxonlaridan o'rganadi.

Shu nuqtai nazardan tahlil etilganda, «Oila – mahalla» tizimidagi ishlarni takomillashtirish, oila va mahallaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilaning mustahkamligi,

barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligiga erishish yaxlit jamiyat barqarorligi va tinchligining muhim omillaridandir.

Ijtimoiy boshqarishning o'ziga xos shakli bo'lgan mahalla bir qancha madaniy-ma'naviy tadbirlarni amalga oshirish bilan birga, oilaviy urf-odatlar, an'analar, oila turmushidagi quvonchli lahzalar hamda oilaviy hayot bilan bog'liq bo'lgan ahamiyatli voqealarni targ'ib qilishning ishonchli markazi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Mahalla har bir oila, har bir shaxs bilan imkoniyat darajada ish olib borish uchun ma'naviy salohiyatga va huquqiy imkoniyatga ega bo'lgan maskan hisoblanadi.

Mahallada kishilarni odob-axloqqa o'rgatish, ularga urf-odatlar, turli qadriyatlarni singdirish, ilg'or udumlarni keng yoyish borasida ajoyib an'analar qaror topgan. Oila kichik vatan bo'lsa, mahalla uning mustahkam tayanchi hisoblanadi. Oilalar farovon, obod bo'lsa, mahalla ko'rkiga ko'rk qo'shadi.

Mahallalar obod bo'lsa, yurtimiz ham shunchalik obod bo'ladi. Ya'ni bugungi kunning mahallasi, eng avvalo, sog'lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb atash ham mumkin.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud, ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarini kamol toptirishda mahallaning o'ni beqiyos.

Bolalarni tarbiyalash ota-onalarning muqaddas burchidir. Axloqan pok, ma'naviy dunyosi boy oila deganda, biz katta va kichiklarning o'zaro hurmati, bir-birlariga yordami, bir-birlariga izzat va hurmati tushuniladi. Demak, maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O'z o'qituvchilar jamoasini uyushtira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga kirita oladi. Bunday maktablar esa o'z atrofidagi zavod, fabrika, jamoa va davlat xo'jaliklari, otaliqqa olgan korxonalar bilan aloqani mustahkamlab, o'quvchilarning maktabdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etmoqdalar, qarovsiz, tarbiyasi og'ir bolalarni o'z nazoratlariga olmoqdalar. Bunday xayrli ishlarda ko'plab ota-onalar maktab bilan yaqindan aloqada bo'lib o'quvchilar tarbiyasi yuzasidan o'qituvchilar jamoasi bilan bamaslahat ish olib borishmoqda.

Respublika Jamoat kengashi a'zolari hududiy kengashlarga, o'z navbatida hududiy kengashlar tuman (shahar) kengashlariga va ular umumta'lim maktablari huzuridagi Jamoat kengashlariga amaliy yordam ko'rsatishi ishlarini kuchaytirish;

- oilalar, mahallalar va ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish, o'quvchi-yoshlar va ota-onalar o'rtasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlarining mutaxassislari ishtirokida reja asosida uchrashuvlar, suhbatlar tashkil etish;

- huquqbuzarlikka moyilligi bor, tarbiyasi og'ir, ta'lim muassasasi va ichki ishlar idoralari profilaktika ro'yxatiga olingan, diniy ekstremistik oqimga mansub oilalar farzandlariga tajribali pedagoglar, mahalla faollari, profilaktika inspektorlarini birlashtirish va mas'ullarning hisobotlarini doimiy eshitib borish, o'quvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiyasi va hulq-atvorini alohida nazoratga olish;

- ta'lim muassasalaridagi davomatni ta'minlash va yaxshilash bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish;

- voyaga yetmaganlarning nazoratsizligining oldini olish, dars jarayonida o'qishga bormasdan bemaqsad yurgan va tungi vaqtlarda «Internet-kafe» va «Kompyuter klub»larida vaqt o'tkazayotgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularni o'qishga qaytarishga qaratilgan «O'quvchi», «Davomat» kabi reydlarni tizimli ravishda o'tkazish, uning natijasi asosida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish;

- o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ta'lim muassasalari va

mahallalarda fan, sport va qiziqishlar bo'yicha to'garaklar faoliyatini kuchaytirish va doimiy monitoring yuritish;

- 9-sinf bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga to'liq qamrab olish va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash holatini qat'iy nazoratga olish;

- o'quvchilarning oyda kamida bitta badiiy kitob o'qishi, sinf va guruh rahbarlari va ota-onalar kuzatuvida madaniyat maskanlariga (teatr, muzey, istirohat bog'lari, tarixiy qadamlar, tabiatning betakror go'shalariga) borishlarini mahallalar va otaonlar o'rtasida keng targ'ib qilishdan iborat. «Ota-onalar universiteti». Ota-onalar universiteti yosh avlod ta'limtarbiyasini zamonaviy talablar darajasida tashkil etish bo'yicha ota-onalar bilan hamkorlikni yanada takomillashtirish, ular o'rtasida pedagogik bilimlarni keng targ'ibtashviq etish maqsadida tashkil etilgan¹. Ota-onalar universitetininig maqsad va vazifalari:

- respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmuni bilan ota-onalarni o'z vaqtida xabardor etib borish;

- o'quvchilarni umumiy o'rta ta'limdan keyingi ta'lim turiga izchil o'tishlarini ta'minlash, ularni kasb-hunarga yunaltirish masalasini hamkorlikda hal etish;

- yosh oilalar bilan ishlash, ularga farzand va uning tarbiyasi haqida pedagogik, tibbiy, psixologik tushuncha va maslahatlar berish bo'yicha o'quvlar o'tkazish;

- farzandini barkamol etib tarbiyalashda ota-onalarning huquqiy, tibbiy, pedagogik, psixologik savodxonligini ta'minlash.

Yuqoridagi usullarning faol qo'llanishi, ota-onalar bilan o'tkazilgan tarbiyaviy suhbatlar huquq va majburiyatlar haqidagi bilimlar, ularni zamonaviy yoshlar tarbiyasi muammolariga jalb etish, milliy tarbiyani mahalla, mahalla oqsoqollari kengashlari faoliyati yo'nalishiga aylantirish va ota-onalarning tarbiyachilar sifatidagi faolliklarining oshishiga olib keldi. Buning natijasida o'quvchilarimizning axloqiy tarbiyasida hech qanday yot g'oyalarga o'rin qolmaydi.

Ta'lim-tarbiyaning mana shunday tashkiliy-metodik tamoyillaridan biri bu – pedagogik hamkorlikdir. Ya'ni oila, maktab va mahalla, jamoatchilik tashkilotlari hamkorligida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning dolzarb milliy parametrlari o'z ichiga halqimizning uzoq asrlar davomida shakllanib kelayotgan qadriyatlarini chuqur singdirish, vatanning sha'ni va obro'sini ko'zlab, yuksak marralar sari intiluvchi munosib farzand bo'lishi uchun hamkorlik dasturlari asosida ish olib borish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi vazirlar maxkamasi huzurida O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida. 2017 yil 1 dekabr // PQ-3420-son. [Elektron resurs] <https://lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Qarori. Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. 2017 yil 28 iyul // Xalq so'zi, 2017 yil 29 iyul. PQ-3160-son. [Elektron resurs] <https://lex.uz/docs/4071203>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr.
4. Axmedova, M. (2017). Pedagogik konfliktologiya. O'quv qo'llanma, 2016.
5. Narmetova, Yu. (2020). Oila xotirjamligi-bolalardagi psixosomatikaning oldini olish omili sifatida. Bola va zamon.

METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI MAKTABGACHA TA'LIMNI STRATEGIK MODERNIZATSIYALASH OMILI

Rizayeva Munisxon Mahkamovna

Katta o'qituvchi,

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti,

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim tizimida metodik mahorat va metodik jarayonlarni tizimli tashkil etish hamda pedagoglarni uzluksiz kasbiy malakasini oshirishni tizimlashtirishda jahon tajribasi va mahalliy imkoniyatlarni hisobga olib ta'lim sifatini oshirishni strategik yo'llar orqali muvofiqlashtirish haqida fikrlar jamlandi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash hamda ularning samaradorligi haqida kerakli ma'lumot va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, jahon tajribasi, imkoniyatlar, rivojlantirish, ta'lim sifat samaradorligi, yondashuv

МЕТОД ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЙЛАНТИРИШ ДЖАРАЙОНЛАРИ МАКТАБГАЧА ТАЎЛИМНИ СТРАТЕГИЯ МОДЕРНИЗАЦИИ ОМИЛИ.

Rizayeva Munisxon Mahkamovna

*Директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций
Институт переподготовки и повышения квалификации,*

Аннотация. Сосредоточены мысли о системной организации методического мастерства и методических процессов в системе дошкольного образования, а также о координации повышения качества образования стратегическими путями с учетом мирового опыта и местного потенциала в систематизации непрерывного профессионального повышения квалификации педагогов. В данной статье дана необходимая информация и рекомендации по применению личностно-ориентированных образовательных технологий, а также их эффективности для повышения непрерывного профессионального мастерства педагогов дошкольного образования.

Ключевые слова: модернизация, непрерывное профессиональное развитие педагогов, личностно-ориентированное образование, мировой опыт, возможности, развитие, качественная эффективность обучения, подход

THE PROCESSES OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT IN IMPROVING METHODOLOGICAL ACTIVITIES ARE A FACTOR IN THE STRATEGIC MODERNIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION.

Rizayeva Munisxon Mahkamovna

Preschool educational organizations provide directors and specialists with retraining and Training Institute,

Annotation. Thoughts are focused on the systematic organization of methodological skills and methodological processes in the preschool education system, as well as on the coordination of improving the quality of education in strategic ways, taking into

account international experience and local potential in systematizing continuous professional development of teachers. This article provides the necessary information and recommendations on the use of personality-oriented educational technologies, as well as their effectiveness for improving the continuing professional skills of preschool education teachers.

Keywords: modernization, continuous professional development of teachers, personality-oriented education, world experience, opportunities, development, high-quality learning effectiveness, approach

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, uning maqsad va vazifalari, ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, shuningdek, bolani ta'limning keyingi bosqichiga **o'tishidagi asosiy kompetensiyalarning tizimli va izchil xarakterga ega bo'lishiga** katta e'tibor qaratilmoqda. Bolalarning har tomonlama bilish, ijtimoiylashish va jismoniy pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini jahon ta'lim standartlariga xos tizimlash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinish ko'rsatkichlarini mahalliy imkoniyatlar negizida faollashtirish, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish kabi muhim vazifalar izchil yechimini topmoqda.

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” uzluksiz kasbiy rivojlantirish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy rivojlanishi uzluksizligi ta'minlanadi, ularning kasbiy bilim, ko'nikma va mahoratini muntazam oshirib borish orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligi oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF–152-sonli Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish pedagoglarni mahoratini oshirish bilan birga, faoliyatlaridagi kasbiy ma'suliyatlarini ham belgilaydi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida”gi 362-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash uchun har bir tizimdagi tarbiyachidan boshlab to direktorgacha o'z faoliyatiga tahliliy, tadqiqiy va takomillashtirish bosqichlarida qayta aks ettirishi lozim. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining o'quv dasturini tuzishda, pedagoglarning kasbiy standartlarini qayta ishlash, o'quv-metodik vositalar, didaktik qo'llanmalar, ko'rgazmali materiallar va o'yinchoqlar to'plamlaridan foydalanish texnologiyalarining mazmun va mohiyatini takomillashtirishni nazarda tutuvchi vazifalar va maqsadlarni belgilashni taqozo etadi.

Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish ta'lim sifat samaradorligini oshirish ko'rsatkichidir. Shunday ekan, maktabgacha ta'limda pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish tizimini loyihalar ekanmiz, pedagoglarni maqsadli yo'naltirib, ularni zamonaviy ta'lim texnologiyalari, innovatsiyalar asosida tahlil qilish va pedagoglarni 21-asr ko'nikmalari asosida shakllantirishi maqsad etib belgilandi. Ta'lim dasturiy vazifalarini hal qilish nafaqat kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyatida, balki pedagogning mustaqil faoliyatida ham, raqamli ta'lim vositalarini unumli qo'llash orqali ta'minlanadi.

Ijodiy shaxsni shakllantirish maktabgacha pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir. Pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini oshirish tushunchasi pedagog shax-

sning optimal o'z-o'zini rivojlantirish sharti sifatida ko'rib chiqishni taklif qilamiz.

“Ilk qadam” davlat o'quv dasturiga muvofiq pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahorati ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash, Singapur, Italiya, Koreya tajribalarini o'rganish va tatbiq etishni ko'zda tutadi. Bu pedagoglarga har bir bolaning o'ziga xosligi va benazirligini hisobga olgan holda o'qitish va tarbiyaga yakka tartibda yondashuvni amalga oshirish, ularning individual qiziqish va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beradi. Pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini oshirishda vosita sifatida tarbiyalanuvchilarning o'yin faoliyatini yetakchi rolini inobatga olish kerak. Bu esa, o'z navbatida, har bir bolaning hissiy farovonligini ta'minlaydi, unda ijobiy tuyg'ularni shakllantiradi, dunyoga, insonlarga, o'ziga to'g'ri munosabatda bo'lish, turli hamkorlik shakllariga kirishish ko'nikmalarini rivojlantiradi – bu esa maktabgacha ta'limning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Ta'limni modernizat-siyalash jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi bugungi kunda juda dolzarbdir. Bu ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo'yicha davlat talablari va “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi joriy etilishi hamda ta'limning o'quv-intizomiy modelidan shaxsga yo'naltirilgan modeliga o'tish bilan bog'liq. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv uslubida ta'limiy jarayonni tashkil etish.

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini tizimlashtirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillari va texnologiyalar har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlariga mos keladigan ta'lim va tarbiya usul va vositalarini aniqlaydi. Shu bilan birga, bolalarning munosabatini va faoliyati tashkil etilishini o'zgartiradi, turli o'quv qo'llanmalardan foydalanadi:

- tadqiqot texnologiyasi orqali pedagoglar tajribalar orqali mustaqil izlanib ko'rish, tajriba orqali xulosa chiqarish o'rgatiladi. Bunda pedagoglarga tayyor bilim berilmaydi. Muammolarni izlash, kashfiyot orqali o'rganish, tajriba o'tkazishga sharoit yaratiladi;
- kommunikativ texnologiyasi orqali pedagog o'z fikrini bayon etish, bahslashish, munozaraga kirishish, tasavvurlarini erkin nutq vositasida ifodalashga shakllantiriladi;
- refleksiya texnologiyasi orqali pedagoglar savollar orqali fikr yuritish, uni tahlil qilish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Xulosa o'rnida asosiy e'tibor pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratining kognitiv komponentligiga, operatsiyalarni bajarish qobiliyatiga, tasniflash, farqlash va umumlashtirishga qaratilishi kerak. Pedagoglarning uzluksiz kasbiy mahoratini tizimlashlashga qaratilgan pedagoglarning faoliyatlarini loyihalash va yaratish, pedagog doimiy ravishda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, qamrov ko'rsatkichini ko'tarishda mas'uliyatini belgilaydi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida” 2019-yil 16-dekabrda O'RBQ–595-sonli Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2024-yil 30-sentabrda PF–152-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida” 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 16-oktyabrda “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi markaziy apparati, hududiy

bo'linmalarining nizomlari hamda vazirlik huzuridagi institutlar, tasarruf tashkilotlari va ta'lim muassasalari xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini yangitdan tasdiqlash to'g'risida"gi 334-sonli buyrug'i.

6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida"gi 362-sonli buyrug'i.

7. Avazbayev. A.I. Ta'lim muassasalarida metod birlashmalar faoliyati. O'quv qo'llanma. "Sarvar print" nashriyoti, 2024 y 160 b

8. Grosheva I., Yestafiyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M., "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashr, 3.2. bob, Toshkent-2022.

9. Parpiyeva G.M., Sayfitdinov N.B., Rahmonberdiyev S.A., Abduraximov A.A. Atabayev Z.R., Rustamova M.E., Fayzullayeva M.Z, M.Rizayeva M. M., Kattaxodjayeva Sh.B., Mamatova X.Ə., "METODIK MAHORAT KUNI" va "METODIK MAHORAT SOATI" tadbirlarini tashkil etish uchun:O'quv o'quv-uslubiy qo'llanma – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi, 2024.

PEDAGOG XODIMLARNING KASBIY VA PEDAGOGIK KREATIVLIGI MASALALARI

Abdiraxmonov Axad Iskandarovich

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagog xodimlarning kasbiy va pedagogik kreativligining faoliyat davomidagi samaradorlikka ta'siri, pedagog xodimlarning kasbiy kreativligini rivojlantirish zarurati, kreativlik tushunchasi va uning pedagogik jarayondagi o'rni haqida atroflicha fikr yuritiladi. Shuningdek, pedagogning kasbiy va pedagogik kreativligidagi innovatsion yondashuvlar, xorijiy tajribalar, kasbiy va pedagogik kreativlikning xususiyatlari, unga ta'sir qiluvchi omillar hamda kasbiy va pedagogik kreativlik o'rtasidagi farqlar tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: pedagog xodim, kasbiy kreativlik, pedagogik kreativlik, Innovatsion ёндашув, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, malaka oshirish tizimi.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КРЕАТИВНОСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ РАБОТНИКОВ

Абдирахмонов Ахад Искандарович

Независимый исследователь

Аннотация: В данной статье всесторонне рассматривается влияние профессиональной и педагогической креативности педагогических работников на эффективность их деятельности, необходимость развития профессиональной креативности, понятие креативности и её роль в педагогическом процессе. Также проанализированы инновационные подходы в профессиональной и педагогической креативности, зарубежный опыт, особенности креативности, факторы, влияющие на неё, а также различия между профессиональной и педагогической креативностью.

Ключевые слова: педагогический работник, профессиональная креативность, педагогическая креативность, инновационный подход, подготовка конкурентоспособных кадров, система повышения квалификации.

PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL CREATIVITY OF TEACHING STAFF

Abdirakhmonov Akhad Iskandarovich

Independent Researcher

Abstract: This article thoroughly discusses the impact of professional and pedagogical creativity of teaching staff on performance effectiveness, the necessity of developing professional creativity, the concept of creativity and its role in the educational process. It also analyzes innovative approaches to professional and pedagogical creativity, international practices, the characteristics of creativity, influencing factors as well as the distinctions between professional and pedagogical creativity.

Keywords: teaching staff, professional creativity, pedagogical creativity, innovative approach, training competitive specialists, professional development system.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog xodimlarning kasbiy va pedagogik kreativligini rivojlantirish bugungi kun ta'limni tashkil etuvchilarning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki pedagog xodimlarning kasbiy va pedagogik kreativligining rivojlanganligi ta'lim oluvchilarga berilayotgan ta'limning to'g'ri va samarali bo'lishiga, ularning tanlagan sohasiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish va raqobatbardosh kadr bo'lib rivojlanishini

ta'minlashda pedagogning asosiy xislati hisoblanadi.

Odatda, yuqori darajada raqobatbardoshlik talab qilinuvchi zamonaviy ta'lim muhiti-da pedagog xodimlarning muvaffaqiyatli faoliyati, innovatsion g'oyalar generatori sifatida tashabbuskorligi, uning ijodiy tafakkurlashi, kreativligi bilan bog'liq hisoblanadi [1].

E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi quyidagi jihatlarda yoritiladi [2]:

Muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;

Farazni tekshirish va o'zgartirish;

Qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

Muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ta'lim tizimini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish bo'yicha olib borgan say-harakatlari natijasida, oliy ta'lim muassasalari pedagoglarida tizimga tatbiq etilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli ta'lim platformalari kabi innovatsiyalarga moslashish uchun pedagoglarning kasbiy va pedagogika kreativlik darajasini oshirish va ularning kreativ salohiyatini rivojlantirish, ta'limning barqaror rivojlanishini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'ldi.

Zero, pedagogning kasbiy va pedagogika kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli va samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularda o'quv jarayonlarini tashkil etishda yangi g'oyalarni yaratish, o'ziga xoslik va tashabbuskorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, kreativlikka ega pedagoglar kasbiy faoliyatda ijodiy yondashish, ilg'or pedagogik yutuqlarni o'rganish va ulardan samarali foydalanishda faollik ko'rsatadi. Shuningdek, kreativ pedagoglar tomonidan ta'lim oluvchilarning o'quv jarayonlaridagi faolligini va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi usullarni qo'llashga intilishi hamda hamkasblari bilan innovatsion pedagogik tajribalar xususida fikr almashishda izchillikni saqlaydi.

Adabiyotlar tahlili

Pedagog xodimlarning kasbiy va pedagogik kreativligi rivojlanganligi, bugungi kun ta'limining raqobatbardoshligini ta'minlashdagi eng asosiy pedagogik omil ekanligidan kelib chiqib, yurtimiz va xorijiy olimlar tomonidan pedagoglarning kasbiy va pedagogik kreativligini rivojlantirish yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

Zamonaviy ta'lim qaysi sohada bo'lmasin insonga o'zi va uni o'rab turuvchi olam haqida bilim beruvchi, yashashni o'rgatuvchi, ushbu bilimlar asosida jamiyat taraqqiyoti uchun egallagan kasbini mukammal bilishga undovchi va rivojlantiruvchi kabi yagona maqsadlarga ega. Shundan kelib chiqqan holda bilim olish — bu maqsad emas, balki hayotda maqsadga aylangan strategiyani amalga oshirishga qaratilgan vositadir. Y.M.Asadovning fikricha, kreativlik salohiyatini eng qimmatli xususi-yatlaridan biri uning innovatsiyani yaratishdagi asosiy rolidir. Innovatsiya — shaxs intellekti mahsuli bo'lib, kreativlikni qo'llash natijasida namoyon bo'ladi [3].

I. A. Chugunova pedagogning kreativligini rivojlantirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari xulosasi sifatida, pedagogikning kreativligini yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, o'quv-tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati, shakllari, usullari va vositalarini ratsionalizatsiya qilish va modernizatsiya qilishda namoyon bo'ladigan jarayon sifatida keltiradi [4].

O. V. Sorokina ta'limni tashkil etishda pedagog xodimlarning kreativ yondashuv strategiyasi quyidagilarni nazarda tutishini ta'kidlagan: o'qituvchilarning o'z shaxsiy va professional imkoniyatlarini anglash; pedagogik qobiliyatlarni kreativ darajagacha rivojlantirish; ta'lim jarayonlaridagi muammolarni hal qilishda yangilik va noan'anaviy usullarga bo'lgan ehtiyojni qondirish; ijodkorlikka intilish va professional harakatlarda stereotipik usullar va formalizmni yengish [5]

G.N.Ibragimova – Kreativlik ta'lim jarayonini tashkil etishda muhim rol o'ynay-di, bu esa ijodiy ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirish va turli uslublar, bilimlar hamda ko'nikmalar o'rtasi-dagi muvozanatni ta'minlashni o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi (6).

O'qituvchining shaxsiyatini ijodiy rivojlantirish muammosi bo'yicha tadqiqot-larni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, zamonaviy o'qituvchining professional faoliyatidagi ijodiy amalga oshirishning aniq bir modeli mavjud bo'lishiga qaramay, har bir o'qituvchining kreativligi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Har bir konkret holatda faoliyatning individual uslubi shaxsiy sifatlar, kommunikativ uslub, innovatsiyalarni joriy etishga tayyorlik kabi noyob kombinatsiyalarga bog'liqdir [7].

Kreativlik, mualliflarning nuqtayi nazaridan, yangi g'oyalar yaratish, an'anaviy sxemalardan fikrlashda chetga chiqish, muammoli vaziyatlarni tezda hal qilish qobiliyati sifatida ta'riflanadi [8]. Xorij ilm-fanida kreativlik ijod bilan tenglashtiriladi, chunki ingliz tilidagi "creativity" so'zi – "ijod" degan ma'noni anglatadi, shuning uchun inglizcha "creativity" so'zida ikki tomonlama tushuncha mavjud – bu jarayon sifatida ham, shaxsiy sifat sifatida ham qaraladi

Rossiyalik olim A. M. Matyushkin olib borgan tadqiqotlarida, pedagog xodimdagi kreativlik sifatining rivojlanganligi mavjud holat yoki bilim chegaralaridan chiqishning bir shakli sifatida, uning shaxsiy ma'no bilan to'ldirilgan muammoning original tarzda ifodalash orqali namoyon bo'lishini ta'riflab, bu jarayonni o'z-o'zini yangilash va intellektual chegaralarni kengaytirish sifatida baholaydi [9].

V.I.Andreevning ilmiy asarlarida "kreativlik inson faoliyatining turlaridan biri. Ob'ektlar zarur bo'lgan qarama-qarshilikni (ijodiy muammoni hal qilish) hal qilishga qaratilgan faol (ijtimoiy, moddiy) va subektiv shaxsiy sharoitlar (bilim, ko'nikma, ijodiy mulk), natijasi yangilik va o'ziga xoslik, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega va progressivlik" deb ta'riflanadi [10].

Kreativlik qobiliyati – bu shaxsning ichki resursi bo'lib, u noodatiy fikrlashda, innovatsion faoliyat turida va o'z tajribasini anglash va natijasini aniqlash ko'nikmalarining malakada qo'llanilishida ko'rinadi [11].

A.V. Kostryukov va D.V.Miroshnikova pedagogik faoliyatda kreativlikni paydo bo'lish ko'lamini yetarlicha keng va buni pedagogning talabalarga bo'lgan munosabatida, pedagogik xulq-atvorda, fanni o'qitish metodikasida, talabalarga beriladigan materialni tanlashda, mustaqil ta'limida va tarbiyaviy ishlarda ko'rish mumkinligi to'g'risida fikr yuritganlar. Pedagog kadrlarning kreativlik darajasi kasbiy kompetentlik va to'plangan pedagogik tajriba asosida vujudga keladi va mashg'ulotlarni olib borishda, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishi, amaliy ko'nikmasi, shuningdek yangi bilimlarni o'zlashtirishi va amaliyotga tatbiq eta olishi malakalari hisobga olinadi [12].

A.X. Maslou kreativlikni 2 turga bo'ladi: iste'dodning kreativligi va shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi Shaxsning o'z-o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalari uchun kelishim mumkin. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi– "ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi", "ikkinchisi–ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik" [13].

Asosiy qism

Bugungi kunda ta'limda olib borilayotgan tub islohotlar uning iste'molchisidan yuksak raqobatbardoshlikni talab qilmoqda. Ushbu rivojlanishlar fonida pedagog xodimlarning oldida turgan asosiy eng dolzarb masalalaridan biri – o'quv jarayonlarida ta'lim oluvchilarning kreativlik sifatlarini yanada rivojlantirish hisoblanadi.

Bugungi global ilmiy-texnik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun ta'lim tizimining sifat samaradorligini oshirishning ahamiyati oshmoqda. Xususan, pedagog xodimlarning kasbiy kreativligini rivojlantirish milliy

va xalqaro darajada ta'lim sifatini oshirish va uning amaliy samaradorligini ta'minlashda muhim omil sifatida qaralmoqda.

Pedagogik lug'at Kreativlikni (ingliz tilidan. Kreativlik) ijodiy iqtidor darajasi, ijodiy bo'lish qobiliyati, shaxsning nisbatan barqaror xususiyati sifatida izohlaydi. Psixologiyada ko'pgina tadqiqotchilar Kreativlikni aqliy va shaxsiy xususiyatlarning ma'lum bir to'plami sifatida tushunadilar. Falsafada Kreativlik — bu ijodkorning shaxsiyatidagi aktuallik kategoriyasi, sinergetik jarayon, sub'ektiv va ob'ektiv ravishda yangi mahsulot yaratish natijasi sifatida belgilanadi. Professional pedagogikada kreativlik, yangi narsalarni yaratish, qabul qilish va yaratish qobiliyati sifatida qaraladi.

Kreativlik muammolarni hal qilishda, boshqalar bilan muloqotda va boshqalarga foydali bo'lishi mumkin bo'lgan g'oyalarni, alternativalar yoki imkoniyatlarni yaratuvchi tendensiya sifatida belgilanadi. Boshqacha aytganda, kreativlik har qanday yangi narsalarni yaratish yoki kuchaytirish qobiliyatidir. Garchi yangilik kreativlikda alohida ahamiyatga ega bo'lsada, kreativ shaxs eski buyumlarni o'rniga yangi shakllarda taqdim qilishi mumkin bo'lgan har qanday yangi ob'ektning ixtiro qilishidir.

Kasbiy va pedagogik kreativlik tushunchalari haqida gap borar ekan, kreativlik va pedagogik ijodkorlik asosida aks ettirilgan shaxsning fazilatlarini va ijodiy fazilatlarini rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni ta'kidlaydi. Globallashtirish jarayonida axborotning hajmi juda keng va ular orasida har kim o'z ehtiyojiga qarab qabul qiladi. Bundan tashqari, hozirgi paytda e'tiborni jalb qilish uchun ommaviy axborot vositalarida turli xil psixologik shakllar va usullardan foydalanilmoqda. Shu sababli, ma'lumotni uzatishda uning shakli va uni yetkazish usullariga katta e'tibor beriladi, lekin ma'lumotning mazmuniga ko'ra unchalik mukammal emas. "Qobiliyatli" axborot tarqatuvchilar ijtimoiy yondashuvlar manfaatlarini, turli yoshdagi odamlarning axborot taqdim etishga bo'lgan ehtiyojlarini e'tiborga oladi.

Pedagogik kreativlik — bu o'qitish jarayonlarida yangi yondashuvlarni yaratish, ta'lim-tarbiya jarayoni mazmuni, shakli, metod va vositalarini ratsionallashtirish va modernizatsiya qilish, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalardan maqsadli foydalanish jarayoni sifatida qaraladi [14].

Pedagogik kreativlik o'qituvchining an'anaviy tafakkuridan quyidagi xususiyatlar bilan farqlanadi:

- fikrlash tezligi;
- tafakkurni moslashtirish;
- aniqlik;
- o'ziga xoslik;
- boy tasavvur;
- hazil tuyg'usi;
- yuqori estetik tuyg'u;
- muammoning qismlarini farqlash qobiliyati.

Kreativ sifatlarini rivojlantirishga oid pedagogik — psixologik adabiyotlar tahlili hamda xorijiy tajribalarni o'rganish natijasida kreativlik darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar o'z faoliyatlarida ko'proq subyektiv norozilik his etishlari mumkinligini keltirib o'tish mumkin. Shuning uchun ham pedagogik kreativligi rivojlangan pedagog xodimlar o'quv jarayonlarida yuzaga keladigan pedagogik muammoli vaziyatlarda pedagoglar orasida an'anaga aylanib qolgan usullardan emas, mavjud vaziyatni to'g'ri tahlil qilib innovatsion yechimlarni izlashga, yangi metodlar va usullarni o'zlashtirishga intiladilar.

Zamonaviy pedagogika fanida kasbiy kreativlik konsepsiyasining asosiy tarkibiy qismlarini va ularni shakllantiruvchi omillarni o'rganish, uni rivojlantirishning metod va texnikalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shundan kelib chiqib, malaka oshirish tizimining transformatsiyasi sharoitida pedagoglarning kasbiy kreativligini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish zarur hisoblanadi.

Bugungi kunda, pedagog xodimlarning kasbiy kreativligini rivojlantirish mexanizmla-

rini shakllantirishda masofaviy ta'lim, muammoli va loyihaviy o'quv texnologiyalari, innovatsion metodikalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, pedagoglarning kasbiy kreativligini rivojlantirishda milliy va xalqaro tajribalarni tahlil qilish va ularning moslashuvchan mexanizmlarini ishlab chiqish, kreativlikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Pedagogning kasbiy kreativligini rivojlantirish, unga ta'sir qiladigan omillarni kelib chiqishi va ularni bartaraf etish yo'llari yuzasidan bir qancha olimlar tomonidan o'rganishlar olib borilgan.

E.E.Smamyuk professional faoliyatga to'siq bo'luvchi asosiy omillar sifatida ichki va subyektiv omillarni keltiradi. Bu to'siqlarni yengib o'tish pedagogning oldiga kasbiy rivojlanishining variativ yo'llarini taqdim etadi. Kasbiy rivojlanish – pedagogik faoliyatda shaxsni o'z-o'zini aktuallashtirish uchun yaratilgan innovatsion g'oyalar majmuidir [15].

N.A.Podmovning tajribasiga ko'ra kasbiy faoliyatning samarali bo'lishi psixologik to'siqlardan oqilona o'tish va pedagogik faoliyatdagi muammolarni innovatsion darajadagi noodatiy yechimlar orqali topish deb ta'riflaydi va kasbiy pedagogik faoliyatning pedagogik mexanizmlari sifatida quyidagilarni keltiradi:

an'anaviy usullarni inkor qiluvchi pedagogik mahoratga egalik;

faoliyatning muqobil yechimlarini taqdim etish;

faoliyatning yangi shakllarini o'zlashtirish va ta'lim tizimiga integratsiya qilish [16].

Pedagogik olimlarning ilmiy qarashlari tahlili asosida pedagog xodimlarning kasbiy kreativligini rivojlantirishda, Pedagoglar orasida ijodiy muhit yaratish; Pedagoglarning qayta tayyorlash va malakasini oshirish; O'quv jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish; Ilmiy faoliyatga jalb qilish va qo'llab quvvatlash; Pedagogik faoliyatini motivatsiyalash kabi omillar asosiy ekanligini ishonch hosil qilindi.

Pedagog xodimlarning kreativligining a'lo darajada rivojlanganligi ta'lim oluvchilarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqish darajasiga sezilarli ta'sir qiladi, shu bilan birga, ijodiy ta'limning dialogik xarakterini muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan pedagog xodimning shaxsiyati bilan ham bog'liq bo'lib, u nafaqat yuqori kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, balki kreativ fikrlash, ijodiy salohiyat, pedagogik yangiliklarga ko'nikishi, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarini, kreativligini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Pedagog xodimning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. Kreativlik ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat pedagogning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egaligini va kasbiy tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir pedagog xodimning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi: — tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi; — yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati; — bir qolipda fikrlamaslik; — o'ziga xoslik; — tashabbuskorlik; — noaniqlikka toqat qilish; — zakovatli bo'lish. Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: — kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish; — yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish; — ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish; — hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish. Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'nal-

tirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar oldida turgan pedagogning kasbiy va pedagogik kreativligining o'zaro farqini topishdek nozik masalani biz quyidagicha bayon etdik (1-jadval)

1-jadval

Pedagog xodimlarning kasbiy va pedagogik kreativligi bo'yicha qilingan tahliliy jadval.

Kasbiy kreativlik	Pedagogik kreativlik
Pedagogning yangi g'oyalar yarata olishi, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqishi, ta'lim oluvchida faol qiziqish uyg'otishi va ta'lim jarayonlarini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish qobiliyatidir.	An'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli o'laroq, bu o'quv jarayonining samaradorligi va mavjud pedagogik muammolarni hal qilish uchun xizmat qiladigan yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati.
Kasbiy faoliyatning samaradorligini oshirish, yangi yo'llar va usullarni ishlab chiqish.	Ta'lim va tarbiya jarayonini samarali va ijodiy tashkil qilish.
Pedagogning umumiy kasbiy faoliyatiga qaratiladi.	Ta'lim va tarbiya sohasidagi ijodiy ishlashga yo'naltiriladi.
Pedagogning o'z kasbiy faoliyati, shu jumladan, o'quv jarayoni, administrativ faoliyat va boshqa kasbiy vazifalar.	Ta'lim va tarbiya sohasidagi pedagogik ish faoliyati, ayniqsa, o'quvchilar bilan ishlash.
Pedagogning umumiy kasbiy bilim va malakasiga ega bo'lishi, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish.	Pedagogning ta'lim va tarbiya sohasidagi maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, o'quvchilarning ijodiy rivojlanishiga yo'naltirish.
Pedagogika, psixologiya va boshqa sohalardagi innovatsion usullar, yangi texnologiyalar.	Yangi pedagogik metodlar, o'qitish usullari va darslarni tashkil etishdagi ijodiy yondashuvlar.
Pedagogning kasbiy muammolarga nostandart yondashish qobiliyati, yangi texnologiyalarni qo'llash.	Pedagogning ta'lim jarayonida o'quvchilarni qiziqitirish, innovatsion o'qitish usullarini tatbiq etish qobiliyati.
Pedagogning kasbiy ishi va samaradorligini yaxshilash, ishda yangi yondashuvlar ishlab chiqish.	O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish.
Pedagogning ish faoliyatida innovatsion yangiliklar va samaradorlikka erishish.	Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini va bilimini oshirish.

Xulosa

Olib borilgan tahlillar asosida pedagog xodimning kasbiy kreativligi va pedagogik kreativlik o'zaro mutanosib tushunchalar bo'lib bu pedagog xodimning kasbiy faoliyatida ehtiyojidan kelib chiqib qo'llaniladi degan xulosaga keldik va quyidagicha izohlarni keltirib o'tdik Kasbiy kreativligi –faoliyatga nisbatan ijodkorona yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish qobiliyati bo'lib, pedagogning o'quv jarayonidagi muammolarga nostandart

va ijodiy yondashuvda, ta'lim oluvchilarning ta'limiy ehtiyojlari hamda ichki inersiyasini rivojlantirish, motivatsiyasini oshirish, muammolarini hal qilishdagi samaradorlikda, o'z sohasidagi ilm-fan, texnologiyalar, innovatsiyalarni ishlatish, yangi yondashuvlar va vositalarni qabul qilishda namoyon bo'ladi. Pedagogik kreativlik – pedagogning ta'lim va tarbiya jarayonida ijodkorona yondashuvlarni ishga solish, yangicha pedagogik usullar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Bu pedagogning o'quvchilarga individual, innovatsion va samarali yondashuvlar bilan ta'lim berish qobiliyatini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Вағышева Т.А., Jigalov Yu.A. Psixologo-pedagogicheskiye osnovy razvitiya kreativnosti. – SPb.: SPGUTD, 2006.
2. Bashina T.F., Ilin Ye.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009. – s.
3. Асадов Ю.М. Индивидуально-психологические особенности учителя как факторы развития профессионализма: Автореф.дис. ...канд. Психол. наук. – Ташкент: "НУУз", 2007.-25 с
4. Chugunova I. A. Pedagogicheskaya kreativnost v upravlencheskoy kulture pedagoga //Molodoy uchenyy. – 2016. – №. 18. – S. 463-465.
5. Sorokina, O. V. Razvitiye kreativnosti kak professionalno-znachimogo kachestva lichnosti u studentov-psixologov / O.V. Sorokina // Vestnik MGOU. — M., 2010. — №4. — S. 115-120.
6. Ibragimova G.I. Developing students' creative abilities based on interactive teaching methods and technologies: p.f. Doctor of Philosophy (PhD) dissertation. avtoref. –T .: — 2017. — 24 p
7. Khachaturova K.R. CREATIVITY OF A TEACHER IN A MODERN SCHOOL Mejdunarodnyy nauchno-issledovatel'skiy jurnal ▪ № 1 (103) ▪ Chast 4 ▪Yanvar B. 174-178
8. I.P. Kirichenko "Teoriya i metodika obucheniya" Moskva-2004. s-11
9. Miroshnikova D.V. Razvitiye kreativnosti budushchego uchitelya v protsesse pedagogicheskoy praktiki Izdatelstvo "Mir nauki" \ Publishing company «World of science» <http://izd-mn.com> S.14
10. Pozilova Sh.X. Kreativ kompetentlik va uni rivojlantirish usullari O'quv qo'llanma. T .: — 2021
11. Хрящева Н. Ю., Макшанов С. И. Тренинг креативности // Психогимнастика в тренинге / под ред. Н. Ю. Хрящевой. СПб.: Речь; Ин-т тренинга, 2004. 256 с.
12. Kostyukov A., Miroshnikova D. Approaches to consideration of creativity in pedagogical practice of future teachers // Bulletin of the Orenburg State University. — 2015. — No. 2 (177). — P.83-86. DOI: <https://library.ru/item.asp?id=23752478>.
13. Maslow, A. The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.
14. Chugunova I. A. Pedagogicheskaya kreativnost v upravlencheskoy kulture pedagoga //Molodoy uchenyy. – 2016. – №. 18. – S. 463-465.
15. Сыманюк Э. Э. Психологические барьеры профессионального развития личности. М.: Изд-во МПСИ, 2005. 248 с.
16. Подымов Н. А. Психологические барьеры в профессиональной деятельности учителя: дис. ... д-ра психол. наук. М., 1999. 390 с

DIREKTORNING MENEJERLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV PSIXOLOGIYASINI O'RNI VA AXAMIYATI

Maraimova Muxtabar Pulatovna
mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya: Ushbu maqolada boshqaruv psixologiyasining asosiy tamoyillari va ularning direktorlarning menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'рни tahlil qilinadi. Shuningdek, boshqaruv jarayonida psixologik omillarning ahamiyati, rahbarlarning xodimlar bilan munosabatlari, qarorlar qabul qilish va jamoani boshqarishdagi psixologik aspektlar muhokama qilinadi. Amaliy tavsiyalar va davlat siyosatining roli ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar. Boshqaruv psixologiyasi, direktorlik, mentorlik, liderlik, jamoani boshqarish, ko'nikma.

РОЛЬ И АКСИОМА ПСИХОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ НАВЫКОВ ДИРЕКТОРА

Maraimova Muxtabar Pulatovna
независимый исследователь

Аннотация: В данной статье анализируются основные принципы психологии управления и их роль в развитии менеджерских навыков директоров. Также обсуждаются психологические факторы, имеющие значение в процессе управления, отношения руководителей с сотрудниками, принятие решений и психологические аспекты управления командой. Представлены практические рекомендации и роль государственной политики.

Ключевые слова. Психология управления, директорство, наставничество, лидерство, управление командой, навыки.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF MANAGEMENT PSYCHOLOGY IN DEVELOPING MANAGERIAL SKILLS OF THE DIRECTOR

Maraimova Muxtabar Pulatovna
independent researcher

Abstract: This article analyzes the main principles of management psychology and their role in the development of managerial skills of directors. It also discusses the importance of psychological factors in the management process, the relationships of leaders with employees, decision-making, and the psychological aspects of team management. Practical recommendations and the role of government policy are provided.

Key words. Management psychology, directorship, mentoring, leadership, team management, skills.

Zamonaviy tashkilotlarda samarali boshqaruvning asosi sifatida boshqaruv psixologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Direktorlarning menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda psixologik bilimlarning roli beqiyosdir. Boshqaruv psixologiyasi rahbarlarning xodimlar bilan munosabatlarini, motivatsiya tizimini, **Direktorlarning menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi asosiy tushunchalarni e'tirof etish ahamiyatlidir.**

Emotsional intellekt: o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va boshqarish qobiliyati.

Stressni boshqarish: qiyin vaziyatlarda salbiy emotsiyalarni boshqarish va xodim-

larga misol bo'lish.

Yetakchilik: Jamoani ilhomlantirish va ularga yo'l ko'rsatish qobiliyati.

Qarorlar qabul qilish: psixologik bilimlarga asoslangan holda samarali qarorlar qabul qilish.

Boshqaruv psixologiyasining tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish orqali direktorlar o'z menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Bu jarayon tashkilot ichidagi munosabatlarni yaxshilash, xodimlarning motivatsiyasini oshirish va umumiy samaradorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Zamonaviy boshqaruv tizimida psixologik menejment rahbarlik ko'nikmalarining ajralmas qismi bo'lib, xodimlar bilan samarali ishlash, jamoaviy muhitni yaxshilash va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, rahbarlarning psixologik bilimlarini oshirish va ularni ilmiy asosda rivojlantirish maqsadida sertifikat dasturlarini joriy etish zaruriyati kun tartibiga chiqmoqda.

Sertifikat dasturlarining ahamiyati.

- Psixologik barqarorlikni shakllantirish – Rahbarlar stressni boshqarish, konfliktlarni hal qilish va jamoada ijobiy muhit yaratish bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lishadi.

- Yetakchilik va motivatsiya strategiyalarini rivojlantirish – Xodimlarning ishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni samarali boshqarish uchun psixologik yondashuvlardan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

- Samarali kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish – Rahbarlar muloqot jarayonlarida samaradorlikni oshirish orqali jamoani to'g'ri yo'naltira oladi.

Qanday o'zgarishlar kiritish mumkin?

- Rahbarlar uchun maxsus psixologik menejment kurslarini tashkil etish – Ular o'z faoliyatini ilmiy asosda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- Psixologik sertifikatga ega bo'lmagan rahbarlarni qayta tayyorlash tizimini joriy etish – Davlat sektori va nodavlat tashkilotlar rahbarlari malakasini oshirishga majburiy talab qo'yish.

- Maktab va oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv psixologiyasi kurslarini joriy qilish – Bo'lajak rahbarlar ushbu bilimlarni ta'lim jarayonidanoq egallashlari kerak.

Bu tizim joriy etilsa, rahbarlarning psixologik jihatdan yetukligi oshib, ta'lim, biznes va davlat boshqaruvi tizimlarida samaradorlik sezilarli darajada kuchayadi.

Ba'zi davlatlarda (masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya) rahbarlarning psixologik tayyorgarligiga katta e'tibor qaratiladi. Shu jihatdan:

- Xorijiy universitetlar va boshqaruv institutlari bilan hamkorlik qilish.
- Xalqaro ekspertlarni jalb etib, maxsus treninglar tashkil etish.
- Xorijiy tajribalar asosida mahalliy boshqaruv tizimiga moslashtirilgan model ishlab chiqish.

Texnologiyalar rivojlanishi bilan boshqaruv psixologiyasida AI (sun'iy intellekt) dan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Shu sababli:

- Rahbarlarning psixologik barqarorligini kuzatish uchun AI tizimlarini joriy qilish.
- Xodimlarning emotsional holatini baholaydigan tizimlardan foydalanish.
- AI yordamida jamoaviy muhit va rahbarlik samaradorligini tahlil qilish.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda rahbarlarning boshqaruv psixologiyasini shakllantirish bo'yicha maxsus davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Quyida shunday dasturlarning ba'zi muhim misollarini keltiramiz:

1. Buyuk Britaniya – **“National Leadership Academy”** dasturi Buyuk Britaniyada davlat sektorida ishlovchi rahbarlar uchun “National Leadership Academy” (Milliy Yetakchilik Akademiyasi) faoliyat yuritadi. Ushbu akademiya:

- Davlat xizmatchilari va ta'lim sektori rahbarlari uchun emosional intellekt, stressni boshqarish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha treninglar o'tkazadi.

- Har bir rahbarni psixologik jihatdan baholab, ularning yetakchilik uslubiga mos individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqadi.

- Psixologik yetuk rahbarlar tayyorlash orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishni maqsad qilgan.

AQSh – **“Federal Executive Institute”** dasturi

AQShda “Federal Executive Institute” (FEI) dasturi davlat rahbarlari uchun maxsus yetakchilik va psixologik menejment bo'yicha kurslarni taklif etadi.

- Transformatsion liderlik va emosional intellekt bo'yicha alohida o'quv modullari mavjud.

- Rahbarlarning psixologik chidamliligini oshirish va stress sharoitida samarali boshqaruv olib borish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi.

- Barcha davlat tashkilotlari rahbarlari ushbu institutdan o'tishi shart qilib belgilangan.

Germaniya – **“Leadership Development Program”** dasturi

Germaniya davlat boshqaruv tizimida rahbarlar uchun Leadership Development Program (Liderlikni rivojlantirish dasturi) yo'lga qo'yilgan.

- Ushbu dastur davlat sektoridagi barcha rahbarlar uchun majburiy bo'lib, boshqaruv psixologiyasi bo'yicha sertifikat olish shart qilib qo'yilgan.

- Dastur doirasida rahbarlar uchun psixologik tahlil o'tkazilib, ularning zaif tomonlari aniqlanadi va shu asosda individual rivojlanish rejaları ishlab chiqiladi.

- Xodimlarni motivatsiya qilish va qaror qabul qilish jarayonida psixologik omillarni hisobga olish bo'yicha maxsus seminarlar o'tkaziladi.

O'zbekiston – Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi islohotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qarori asosida maktabgacha va maktab ta'limi rahbarlari uchun boshqaruv psixologiyasini rivojlantirish bo'yicha uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy etildi.

- Ushbu dastur doirasida direktorlarning boshqaruv psixologiyasi bo'yicha malakasini oshirish va sertifikatlash jarayoni amalga oshirilmoqda.

- Psixologik menejment ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida treninglar, amaliy mashg'ulotlar va mentorlik dasturlari tashkil etildi.

- Rahbarlarning xodimlar bilan muloqoti va qaror qabul qilish jarayonini psixologik jihatdan optimallashtirish maqsadida maxsus kurslar o'tkazilmoqda.

Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya kabi davlatlar rahbarlarning psixologik menejmentini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, maxsus davlat dasturlarini amalga oshirmoqda. O'zbekistonda ham ta'lim sohasi rahbarlari uchun shunday islohotlar boshlangan bo'lib, kelajakda bu tizim boshqa davlat tashkilotlariga ham joriy etilishi lozim. Shu kabi xalqaro tajribalarni o'rganib, boshqaruv psixologiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat dasturlarini kengaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
2. Bass, B. M., & Riggio, R. E. (2006). Transformational Leadership. Psychology Press.
3. Kotter, J. P. (1996). Leading Change. Harvard Business Review Press.
4. Herzberg, F. (1966). Work and the Nature of Man. World Publishing Company.
5. Xusanov, A. (2012). Boshqaruv psixologiyasi. Toshkent: “O'zbekiston” NMIU.
6. Nazarov, D. (2016). Rahbarlik va liderlik psixologiyasi. Toshkent: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti.
7. Mahmudov, B. (2019). Menejment va boshqaruvning psixologik aspektlari. Toshkent: “Yoshlar” nashriyoti.

GLOKALIZATSIYA SHAROITIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHGA TIZIMLI YONDASHUV

Norinov Faxriyot Qurbonovich

Qarshi DU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy fanlarni o'qitish jarayoni mazmuni yoritilgan. shuningdek, tabiiy fanlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar, samarali tajribalar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, pedagogika, tajriba, xorijiy adabiyot, tabiiy, jarayon.

СИСТЕМНЫЙ ПОДХОД К ПРЕПОДАВАНИЮ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В УСЛОВИЯХ ГЛОКАЛИЗАЦИИ

Norinov Faxriyot Qurbonovich

независимого исследователя Карши ГУ

Аннотация: В статье рассматривается содержание процесса преподавания естественнонаучных дисциплин. В нем также представлен анализ современных подходов и эффективного опыта преподавания естественных наук.

Ключевые слова: образование, педагогика, опыт, зарубежная литература, естественный, процесс.

A SYSTEMATIC APPROACH TO TEACHING NATURAL SCIENCES IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Norinov Faxriyot Qurbonovich

Qarshi DU independent seeker

Abstract: The article examines the content of the process of teaching natural sciences. It also presents an analysis of modern approaches and effective experience in teaching natural sciences..

Keywords: education, pedagogy, experience, foreign literature, natural, process.

“Rivojlanishning zamonaviy talablariga kelajak avlod ehtiyojariga putur yetkazmasdan javob berish” sifatida tavsif etiladigan “barqaror taraqqiyot” yoki “barqarorlik” yangi paradigma vazifasini bajarishi mumkin edi. Boshqacha qilib aytganda, o'sib kelayotgan avlodning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, mavjud imkoniyatlar doirasida yashash lozimligi uqtiriladi.

Zamonaviy davrda Yer haqidagi fanni uchta bir-biridan farqlanuvchi sohalarga ajratish mumkin va muhim tomoni shundaki, ularning har uchchalasi turli ta'limotlarni qiziqtirgan bir xil ma'lumotlarga tayanib faoliyat olib boradi. Yer haqidagi fan sohasining barchasi ulkan geologik davrlar mashtablarida mujassam topgan jarayonlarning sodir bo'lish tezligi bilan fundamental tarzda ish ko'radi. Qamrov kengligiga ko'ra, har uchchala soha ma'lum darajada globallik xususiyatiga ega va ularning o'rganish obyektlari geotizim potensial hajmi hamda uning barqarorlik masalalari bilan uzviy bog'liqdir. Jumladan:

- geologik faol qatlam, qobiqqa yaqin qatlamlar va ularda kechadigan ichki jarayonlar (gidrogeologiya, tuproq shakllanishi va eroziyasi, iqlim o'zgarishi, magmatizm va tabiat tarixini talqin etishimiz uchun asos vazifasini o'taydigan boshqa faol jarayonlar, jarayonning sodir bo'lish ehtimolini baholash va bashorat qilish);

- tabiiy resurslarni tekshirish va ulardan foydalanish (bu sohada harakat usuli o'tgan asr mobaynida – faqat qazilma konlarni axtarish, qazib chiqarish, vizuallashtirishning sezgir va samarali texnologiyalari joriy etilganligini istisno etsak-deyarli o'zgaradi

va aytish lozimki, mazkur texnologiyalar qazilma konlarining davrlar mobaynida pasayib borayotgan mahsuldorlik darajasining o'rnini qoplash, qazilma konlardan foydalanish tartibini takomillashtirish, ishlab chiqarish bilan qazilma konlardan foydalanish ravnaqi, ishlab chiqarish va ekologiya o'rtasida kengayib borayotgan bog'liqliklar natijasi o'laroq, ishlab chiqildi);

Yerning Quyosh sistemasi paydo bo'lgandan to hozirgi kunga qadar davr ichidagi tarixi (geodinamika, kosmik tasvir i quyosh sistemasidagi sayyoralarni o'rganish sohasida sodir bo'lgan o'zgarishlar va shu kabilar).

Bugungi kunda tez sur'atlarda rivojlanayotgan, muhimligi umume'tirofga sazovor bo'la borayotgan bu uchta ilm-fan sohasi geologiyaning bo'limlari hisoblanadi. Geologiyaning bu uchta bo'limi global ilmiy-siyosiy masalalarning ajralmas qismi. Shuning uchun jamiyat va jamoatchilik nazarida ular qiziqarli – faqat bu borada zarur ma'lumotlar hamda axborotlarning jamiyatga to'liq va tezkor yetkazilib turilishi bois ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'plab xorijiy davlatlarda, jumladan mamlakatimiz maktab ta'limi Davlat ta'limi standartlari bo'yicha joriy etilgan yangi qoidalar, shu jumladan, Yer haqidagi fan sohasida ham yangiliklar tatbiq etilishi geologiyaning umumiy o'rta ta'lim tizimida o'z o'rnini topishi sari tashlangan dastlabki qadamlar bo'lmoqda.

Avvalo fundamental tadqiqotlarning jamiyat uchun foydali ekanligini tushuntirib berishni o'rganish lozim. Buning uchun keng qamrovli ilmiy tavsiflarni, ulardan kasbga oid terminlarni olib tashlab, umumlashtira bilish va sodda, tushunarli ko'rinishga keltirib, jamoatchilikka taqdim eta olish kerak bo'ladi. Qolaversa, sof ilmiy bayon uslubiga xos bo'lgan mulohazaviy asoslardan voz kechib, yangi ilmiy loyihalardan keladigan sof foyda va potensial imkoniyatlarning tub mohiyatini tushuntirish uslubiga o'tish lozim.

Biz intilayotgan global kishilik jamiyatida Yer ekotizimining potensial hajmi va barqarorligi eng dolzarb masala darajasiga ko'tarilmoqda. Jamiyat taraqqiyotning shunday yo'lini topishi kerakki, toki atrof-muhit sofligiga putur yetkazmasdan, Yerdagi mavjud resurslarni isrof qilmasdan, kishilarning umumjahon miqyosida farovonligini ta'minlash imkoni yaralsin. Shu jihatdan qaralsa, Yer haqidagi fanlar XXI asr ilm-fani olamida markaziy o'rinni egallashi muqarrar.

Tabiiy fanlarning ta'limiy maqomini oshirishning maqsadga muvofiqligi bu fanni o'qitish metodikasining boshqa fanlardan, shular qatorida geografiyadan ham tubdan farq qilishi bilan izohlanadi. O'qitish metodikasidagi mavjud farqlar fanning nazariy sohasida ham, soha bo'yicha kasbiy faoliyatga tayyorlash fanlari mundarijasining to'ldirilish tarzida ham namoyon bo'ladi. Yana boshqa tomondan, tabiiy fanlarning tarixiy metodologiyasiz biologiya o'tmish va kelajak o'rtasida bog'lanishsiz bo'lib qoladi, tabiiy jarayonlarning kimyosi abstraktlashadi, geografiya esa geologiya metodikasining ishtiroksiz sababsiz oqibatlar majmuasiga aylanib qoladi.

Tabiiy fanlarning umumta'lim fanlaridan biri sifatida ta'lim mazmun-mundarijasiga kiritilishi uchun bu fan yordamida hal etiladigan masalalar hamda uning o'ziga xos jihatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan:

- tabiiy fanlar Yerning bir necha milliard yillarga teng yoshi haqida ilmiy tafakkur shakllanishi uchun zamin yaratadi;

- tabiiy fanlarga oid dala sharoitida va laboratoriya majmualarida olib borilgan tadqiqotlar usul va mazmun jihatdan o'ziga xos bo'lib, boshqa fanlar sohasida olib borilgan tadqiqotlardan tubdan farq qiladi;

- vaqt va makon tushunchasi geologiya atomlar shakllanish jarayonidan Koinot paydo bo'lish darajasigacha bo'lgan davrlar hamda jarayonlarni qamrab oladi;

- tabiiy fanlar tabiatshunoslik va tabiiy fanlar uchun qat'iy fanlararo bog'lab turuvchilik vazifasini bajaradi;

- tabiiy fanlar jamiyatning ekologik savodxonligini oshirishda va ekologik ta'limni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi;

- tabiiy fanlar majmuasiga kiruvchi fanlar bilimlarni aniqlashtirish va asbtrklashtirishning turli darajalarini o'zida mujassam etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Султанова Г. А. Комплексные экскурсии как средство экологического воспитания младших школьников / Автореф. дис. канд. пед. наук.Т. – ТГПИ. -1995. – 18 с.
2. Суравегина И.Т., Сенкевич В.М., Как учит экологии: Кн. для учителей. - М.: Просвещение. - 1995.-142 с.
3. Turdiqulov E. Inson va havo. - T.: «Yozuvchi», 2002. - 48 b.
4. To'xtayev A. S. Ekologiya / Pedagogika institutlarining talabarlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi", 2001. - 144 b.

ҚИЗЛАР ТАРБИЯСИДА ОИЛАВИЙВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Чориева Дилдора Исмат қизи

*Қори Ниёзий номидаги ТПМИ “Маҳалла-оила-мактаб ҳамкорлиги” илмий
тадқиқот бўлими катта илмий ходими*

Жабборов Саидвоҳид

*Қори Ниёзий номидаги ТПМИ “Маҳалла-оила-мактаб ҳамкорлиги” илмий
тадқиқот бўлими катта илмий ходими*

Аннотация: Ўзбек халқининг бой тарихий-маданий меросида, анъана ва урф-одатларида қиз болани тарбиялашга доимо алоҳида эътибор қаратилган. «Қизни эркалатма, халқни ерга қаратма» деган мақолда айтилганидек, қиз болага берилган тарбия бутун жамият маданиятининг, ахлоқий даражасининг ўлчови бўлиб хизмат қилади. Шу боис қиз боланинг ахлоқий, маънавий, жисмоний ва руҳий камолоти-нафақат оиланинг, балки мактаб, жамият ва давлат сиёсатининг ҳам устувор йўналишларидан бири бўлиши керак.

Калит сўзлар: тарбия, қизлар тарбияси, оила, маърифатли аёл, иффат, меҳр, сабр, фидойилик.

Аннотация: В богатом историко-культурном наследии узбекского народа, его традициях и обычаях всегда уделялось особое внимание воспитанию девочек. Как говорится в пословице: «Не балуй девочку — не позорь народ», - воспитание девочки является показателем культурного и нравственного уровня всего общества. Поэтому нравственное, духовное, физическое и психологическое развитие девочки должно быть приоритетным направлением не только семьи, но и школы, общества и государственной политики.

Ключевые слова: воспитание, воспитание девочек, семья, образованная женщина, целомудрие, любовь, терпение, преданность.

Abstract: In the rich historical and cultural heritage of the Uzbek people, as well as in their traditions and customs, special attention has always been given to the upbringing of girls. As the proverb says, “Do not spoil a girl — do not disgrace the nation,” the upbringing of a girl serves as a measure of the cultural and moral level of the entire society. Therefore, the moral, spiritual, physical, and psychological development of a girl should be a priority not only for the family but also for schools, society, and state policy.

Keywords: upbringing, girls' upbringing, family, educated woman, chastity, affection, patience, dedication.

КИРИШ

Инсоният тарихининг ҳар қандай даврида аёл, айниқса, қиз бола тарбияси алоҳида эътибор ва масъулият талаб қилган. Чунки ҳар бир жамиятнинг маънавий, маданий ва ахлоқий қиёфаси, аввало, оналар тимсолида шаклланади. Оналик эса — меҳр, сабр, ҳалоллик, фидойилик ва тарбиянинг энг юксак намунаси бўлиб, бу фазилатлар қиз болалик даврида ноқ шакллана бошлайди.

Ҳар бир халқнинг келажаги унинг бугунги ёш авлодига қандай тарбия берилишига чамбарчас боғлиқ. Айниқса, қиз бола тарбияси ҳар доим ва ҳар қандай жамиятда муҳим ва мураккаб масалалардан бири бўлиб келган. Чунки қиз бола нафақат

бир оиланинг, балки келажак авлоднинг-бутун жамиятнинг онаси, тарбиячиси ва маънавий таянчидир.

Ўзбек халқининг бой тарихий-маданий меросида, анъана ва урф-одатларида қиз болани тарбиялашга доимо алоҳида эътибор қаратилган. «Қизни эркалатма, халқни ерга қаратма» деган мақолда айтилганидек, қиз болага берилган тарбия бутун жамият маданиятининг, ахлоқий даражасининг ўлчови бўлиб хизмат қилади. Шу боис қиз боланинг ахлоқий, маънавий, жисмоний ва руҳий камолоти — нафақат оиланинг, балки мактаб, жамият ва давлат сиёсатининг ҳам устувор йўналишларидан бири бўлиши керак.

Бугунги глобаллашув асрида, интернет ва технологиялар ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланган бир пайтда, қиз болаларнинг руҳий дунёсини асраш, уларни миллий қадриятларимиз, маънавий меросимиз асосида тарбиялаш ниҳоятда долзарб масаладир. Оммавий маданиятнинг таъсири, ижтимоий тармоқлардаги нотўғри ахборотлар, баъзида ота-оналарнинг бефарқлиги ёки етарли билимга эга эмаслиги — буларнинг барчаси ёш қизлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бу эса келажакда жамиятда бир қатор муаммолар, оилавий мурасимликлар, ахлоқий инқирозлар юзага келишига сабаб бўлади.

Ушбу китоб айнан мана шу юксак ва муқаддас масалага — қиз бола тарбиясига бағишланади. Унда ота-оналар, устозлар, тарбиячилар ҳамда ёш ўқувчилар учун фойдали бўладиган тавсиялар, ҳаётий мисоллар, психологик ёндашувлар ва диний-маънавий қадриятлар асосида ёзилган фикр-мулоҳазалар жамланган.

Китобнинг асосий мақсади — қиз болаларни соғлом, билимли, ватанпарвар, одобли, маънавий бой шахслар этиб тарбиялашда ота-оналар, устозлар ва тарбиячиларга йўл-йўриқ кўрсатиш, уларни бу масъулиятли йўлда илҳомлантиришдир. Чунки ҳар бир соғлом жамиятнинг асоси — соғлом оиладир, соғлом оила эса-доно, меҳрибон, ақлли ва одобли оналарнинг қўлида шаклланади.

Китобнинг ҳар бир саҳифаси меҳр, сабр, тушуниш ва эзгулик руҳи билан тўйинган бўлиб, у келажак авлод-оналаримизни баркамол, билимли ва меҳрибон этиб тарбиялаш йўлида кичик бўлсада, ўз ҳиссасини қўшиш ниятида ёзилган.

ТАРБИЯ – Болани бахтли бўлишга ўргатиш.

Бугунги кескин ривожланиб бораётган замонда ота-она сифатида фарзандларимизни тарбиялашга тайёرمизми?

Ёш авлодимиз тарбияси мураккаб замон талабларига жавоб бериладими?

Ушбу саволлар сиз учун оддий бўлиб кўринаётган бўлиши мумкин, лекин аслини олганда бугунги куннинг оғриқли ва ўйлантирадиган, ташвишга соладиган саволларидир.

Агар биз бу ёруғ оламда оиламизни мустаҳкам ва фарзандларимизнинг келажаги порлоқ бўлиши учун ушбу саволларга жавоб излашни ва ҳаракатларни бугундан бошламасак, эртага кеч қолишимиз мумкин.

Ота-онанинг энг муқаддас орзуси – фарзанднинг бахту камолини кўриш. Бугунги кунда мамлакатимизда бу масала нафақат ота-оналар, балки давлатимиз, жамиятимизнинг устувор мақсадига айланди.

Юқоридаги саволарга жавоб топишимиз учун, тарбиянинг ўзи нима эканлигини кўриб ўтайлик.

Тарбия-муайян, аниқ мақсад ҳамда ижтимоий-тарихий тажриба асосида ёш авлодни ҳар томонлама ўстириш, унинг онги, хулқ-атвори ва дунёқарашини таркиб топтириш жараёни.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Бугунги кунда юртимизда тобора кенг тарқалиб бораётган «Ўз болангни ўзинг асра!» деган даъватлари фақат қуруқ шиор бўлиб қолмасдан, ҳар бир ота-она, ҳар бир фуқаронинг қалбига, юрагига чуқур кириб бориши, амалий ҳаракатга айланиши зарур.

Фарзандга олтин, кумуш, кўчмас мулк, иморат, хусусий корхона, қимматбаҳо

автомобиль, акцияларни бериш мумкин. Лекин бахтни бериб, нотариусда унинг номига расмийлаштириб, мерос қолдириб бўлмайди. Буни билган маърифатли, ақлли ота-оналар болаларини тўғри яшаб, бахтли бўлишга ўргатишади. Эринмасдан, мақсадли, режали, худди спортчини олимпиадага тайёрлагандек. Натижада уларнинг болалари қуйи лигадан ўртага, ўрта лигадан юқори лигага, юқоридан олий лигага кўтарилиб бораверади. Тарбияланмаётган, яъни тайёрланмаётган болалар худди спорт билан шуғулланмайдиган болаларга ўхшайди. Улар ҳаёт лигаларининг пиллапоя-ларига чиқа олмасдан, қуйида қолиб кетади.

Қиз бола тарбияси ўта нозик тарбиядир. Халқимизда «Онасини кўр, қизини ол», деган гап бор. Бу гапнинг замирида катта маъно мужассам. Оилада қиз бола онасининг юриш-туриш муносабати, ҳунармандлигидан дарс олади, шу хислатни ҳаётга тадбиқ этишга ҳаракат қилади.

Ёшлиқдан қизларни озодаликка, ширинсуханликка, ўзидан катталарни доимо ҳурмат қилиб боришга ундаш ва ўргатиш лозим. Қиз бола номига бир доғ тушса, бу доғ ҳеч қачон кетмайди.

Кейинги пайтларда қизлар тарбиясида нуқсонлар учраб турибдики, буларни бартараф этиш ота-оналар зиммасига улкан масъулият юкламоқда. Турмушга чиқаётган аксарият қизлар турмушнинг оғир-енгилига бардош беролмай, гулдек оиласини ташлаб кетмоқда.

Ривоят қилишларича: Бир қози бўлган экан, унинг Ҳасан ва Ҳусан исмли ўғиллари бўлиб, отаси ишдан келиш пайти югуриб чиқиб отасини кутиб олар экан. Бир кун болалар қудуққа тушиб оламдан ўтишибди. Ота ишдан келса болалар кўринмайди, аёлидан сўрабди. Аёл эса: «Аллоҳим менга сабр бергин, ишдан чарчаб келган эримга бу хунук хабарни кейинроқ айтаман», дея илтижо қилган экан. Шу сабабли хўжайиннинг жавобига: «Ҳозир дадаси, ҳозир келишади», дея очиқ юз билан жавоб берибди. Аллоҳнинг қудрати билан Ҳасан-Ҳусанлар тирилиб, оталарига салом бериш учун уйга кириб келишибди.

Ривоят деймиз, аммо бу ривоятлар замирида улкан маъно, мазмун мужассам. Қизлар турмуш қийинчилигига, айниқса, қайнона-келин муносабатларига бардош қилмай турли тўсиқларга дуч келадилар.

Халқимизда «Қуш уясида кўрганини қилади», деган нақл бор. Онасининг муносабати, уй тутишлари қандай бўлса, келгусида бу хислатлар қизларга ўтади, унинг салбий ёки ижобий хислатларига эга бўлади.

Пайғамбар алайҳиссалом: «Жаннат оналар оёғи остидадир» деб марҳамат қилдилар. Келгусида қизлар бўлажак она, ардоқли уй бекаси бўладилар. Биз қизларимизга ҳаётнинг паст-баландини, турмуш қийинчи-лигини енгиб ўтишларини уқтириб ўтишимиз шарт. Ҳар бир она турмушга чиқаётган қизига у келин бўлиб бораётган хонадон азиз ва қадрли эканлиги, қиз бола келин бўлиб тушган хонадонига тошдек бўлишини уқтириши лозимдир.

Оналар ўртасида қизлар тарбиясига оид гап кетса, кўпинча «Оқ қанддек авайлаб, гард юқтирмай ўстирдим», дейишади. Оқ қанд... Дарҳақиқат, жуда нозик ўхшатиш. Нозиклиги шундаки, оқ қандга бирор гард юқса, уни тозалаш қийин. Гард теккан жойини кесиб ёки қирқиб олиб ташлаш керак. Кўпинча эса гард теккан қанд бўлаги мол охурига ёки парранда донлари орасига ташлаб юборилади.

Қиз боланинг номига илашган ёмон доғ – исноднинг кетиши шунчалик қийиндир. Баъзида кўрмайин босилган тикан жабрини бир умр тортиб юришга тўғри келади. Баъзан у кишини умрбод гумон, шубҳа, демакки, бахти бекамлик эмас, бахти кемтиклик қийноғига солиб қўяди. Ҳаммасига кўпинча ўйламай иш қилиш, ирода жилловининг бир-икки дақиқага бўш қўйилиши сабаб бўлади.

Қиз боланинг шаъни... Бу ҳақда жуда кўп ва ҳар сўзига алоҳида урғу, алоҳида салмоқ бериб гапирилади. Инсоний фазилатлар, маънавий кадриятлар ҳақида сўз кетса, айни шулар қиз болада энг олий даражада бўлиши талаб қилинади. Ахир у

қиз болада.

Қизлар тарбияси – миллатнинг кўрки, миллатнинг келажаги.

Қиз бола шунчаки қиз бола бўлиб қолиши мумкин эмас. У жуда назокатли, ифбатли, иболи, сабр-бардошли, оқила, меҳрибон бўлиши керак. Ҳаттоки, қиз болага берилган нисбат, ўлчов, мезонлар ҳам ўртамиёна, ярим, ним-таъриф, чала нисбат бўла олмайди. Улар устуннинг ё энг тепаси, ё энг пасти бўлади. Айб ёки гуноҳ иш қилиб қўйган бошқа ҳамма киши кечирилиши мумкин. Фақат қиз бола кечирилмайди. Қиз болага келганда ҳукм ҳам ғоят мухтасар: «Ўғил бола шу ишни қилганда-бошқа гап эди. Аммо у-қиз бола-я».

Биз ота-оналар билишимиз жуда муҳим бўлган нарса шуки, қиз боланинг исми, жисми, маънавияти, борлиғи, хатти-ҳаракатига ҳаммиша ўлчов бошқача бўлиб келган.

Бир олим кишидан: «Дунёда ўлимдан ёмони нима?» деб сўраганларида, олим киши: «Қизингнинг ноқобил бўлишидир», дея жавоб берган экан.

Бу даҳшатни бошидан кечирганларнинг дилидан, тилидан бундан даҳшатлироқ нидо чиқади: «Қиз асрагандан кўра, туз асрасам бўлмасмиди?».

Дол бўлган қадлар, эгилган бошларга келадиган хулоса ундан ҳам даҳшатли: «Қиз келтирган номус-ўлимдан кучли».

Асрлар, замонлар бу азалий гапларнинг маъносини ўчира олмаганидек, тифини ҳам ўтмаслаштира олмайди. Ўзбек хонадони борки, агар унда қиз ўсаётган бўлса, шу хонадон соҳибларининг кўнглида ғурур, сурур, шукур ва қиз шаъни билан боғлиқ ор-номус ҳам юқори бўлади.

Шунинг учун ҳам халқимиз қиз боланинг маънавий етук, комил инсон бўлиб ўсиши учун алоҳида аҳамият беради. Уни «оқ қанддек ўраб, авайлаб, гард теккизмасликка» ҳаракат қилади.

Қизлар тарбияси ҳар бир онанинг, ҳар бир илмли ва маърифатли аёлни олий мақсадларидан бири ҳамда бурчи ва вазифасидир. Ўтмишга назар ташласак, оналаримиз қизларни тарбиялашдек гўзал ва улуғ вазифаларни бажарган ва улар мана шундай вазифалари билан жаннат аёлларининг энг афзали дейилганини биламиз.

Хадича, Фотима, Осий ва Марям (розиёллоҳу анҳо) оналаримиз ҳамда Увайсий, Нодирабегим, Бибихонимдай оналаримизнинг аёл-қизларимизни тарбиялашдаги буюк ишлари, сабр-қаноатлари биз учун катта ўрнақдир. Пайғамбаримиз алайҳиссалом «Қимнинг уч қизи бўлса, уларни жойласа, кифоясини қилса, ўша одамга жаннат вожиб бўлади», дедилар. Шунда қавмининг ичидан бир одам чиқиб, Ё Росулulloҳ икки нафар бўлсачи деди? Икки нафар бўлса ҳам деди.

Оналаримизнинг ҳаётини тажрибаларидан ўрнақ олган ҳолда қизларимизга албатта биринчи ўринда меҳр беришимиз, уларни касб-ҳунарли қилишимиз керак, рўзғор тутишда тозаликка, саронжом-саристаликка ўргатайлик, турмуш ўртоғини олдидаги вазифаларини билдирайлик. Каттага ҳурмат, кичикка иззатли бўлишга қақрайлик.

Хулоса. Фарзанд дунёга келар экан, болалигидан гўзал тарбия қилиб, катта қилиш оналарнинг бурчидир. Аёл зоти гўзал бир ҳилқатки биргина гул аёлни рози қилса, биргина сўз уни ҳалок қилади. Ўйлаб қарасак, қиз бола гўдаклигиданоқ отасига жаннатдан бир эшик очади. Катта бўлганда эса эрининг иймонини тўлдиради, она бўлганда эса жаннат унинг оёқлари остида бўлади.

Пайғамбаримиз алайҳиссаломнинг тўртта қизлари бўлиб, уларни тарбия қилиб бизларга ўрнақ бўлган зотдир. Масалан: Фотима(р.а) онамиздек ғайратли, шижоатли, ҳаёли, одоби ва сабр-қаноатлари биз учун ўрнақдир. Ҳадисларни ўрганишдаги ҳаракатлари боис саҳобалар у кишини «Отасининг қизи» деб қақришлари бизни тўлқинлантиради. Шунинг учун ўтмишда ўтган буюк оналаримиз каби қизларимизни тарбия қилайлик, сийрат китобларни ўқиб ҳаётимизга татбиқ қилайлик. Чунки бир

қизни тарбия қилсак, миллатни тарбия қилган бўламыз.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5325-сон Фармони, 2018 йил 02.03.
2. Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси 2019 йил 3 майдаги ПК-4307-сон қарори ижросини таъминлаш мақсадида 2019-йил 31-декабрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси 24 январь 2019 йил.
4. Қуронов. М. Оила – учинчи ренессанснинг энг мустаҳкам устунни. Ижтимоий-педагогик қўлланма. – Тошкент, «Фан» нашриёти, 2021. – 69 б.
5. Мухсиева А.Ш. Оилада миллий тарбия жараёнининг методик асослари: Пед. фан.ном. ...дис.автореф. – Тошкент, 2006. – 22 б.
6. Uzbaby.Uz
7. <http://www.farzand.uz>

LINGUISTIC-PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING LISTENERS' SOCIOCULTURAL POTENTIAL BASED ON AXIOLOGICAL KNOWLEDGE

Kuchkarova Nazira Kakhramon qizi

Doctoral student,

Institute for Retraining and Professional Development of Higher Education Personnel under the Ministry of Higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article explores a linguistic-pedagogical model that leverages axiological knowledge to enhance the development of socio-cultural potential in listeners. By integrating values, ethics, and cultural understanding into language education, this model aims to cultivate listeners' awareness, empathy, and effective communication skills in diverse cultural contexts. The article discusses the theoretical foundations of the model, its practical applications in language teaching, and the potential impact on students' socio-cultural potential. Furthermore, the article delves into the importance of incorporating axiological knowledge, which refers to the study of values and ethics, into the linguistic-pedagogical framework. By emphasizing the significance of cultural values and beliefs in language learning, this model seeks to foster a deeper appreciation for diversity and intercultural communication. The practical implications of this approach include the use of authentic cultural materials, experiential learning activities, and reflective discussions to promote critical thinking and self-awareness among listeners. Ultimately, this model aims to equip listeners with the necessary skills and attitudes to navigate complex socio-cultural landscapes with respect, empathy, and open-mindedness.

Keywords: linguistic-pedagogical model, socio-cultural potential, axiological knowledge, language education, values-based approach.

TINGLOVCHILARNING AKSILOGIK BILIMLARGA ASOSLANGAN IJTIMOY-MADANIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVISTIK-PEDAGOGIK MODELİ

Kuchkarova Nazira Kaxramon qizi

Tayanch doktorant,

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarda ijtimoiy-madaniy salohiyatni rivojlantirish uchun aksiologik bilimlardan foydalanadigan lingvistik-pedagogik modelni o'rganadi. Til ta'limiga qadriyatlar, axloq va madaniy tushunishni integratsiyalashgan holda, ushbu model turli xil madaniy kontekstlarda talabalarning ongilligi, empatiyasi va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Maqolada modelning nazariy asoslari, uning til o'rgatishda amaliy qo'llanilishi va tinglovchilarning ijtimoiy-madaniy salohiyatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada qadriyatlar va axloqni o'rganishga ishora qiluvchi aksiologik bilimlarni lingvistik-pedagogik asosga kiritish muhimligi ko'rib chiqiladi. Til o'rganishda madaniy qadriyatlar va e'tiqodlarning ahamiyatini ta'kidlab, ushbu model xilma-xillik va madaniyatlararo muloqotni chuqurroq qadrlashni rivojlantirishga intiladi. Ushbu yondashuvning amaliy natijalari tinglovchilarda tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini anglashni rivojlantirish uchun haqiqiy madaniy materiallardan foydalanish, tajribaviy

o'quv faoliyati va aks ettiruvchi muhokamalarni o'z ichiga oladi. Oxir-oqibat, ushbu model talabalarni hurmat, hamdardlik va ochiq fikr bilan murakkab ijtimoiy-madaniy landshaftlarda harakat qilish uchun zarur ko'nikma va munosabatlar bilan ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik-pedagogik model, ijtimoiy-madaniy salohiyat, aksiologik bilim, til ta'limi, qadriyatlarga asoslangan yondashuv.

ЛИНГВИСТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ПОТЕНЦИАЛА СЛУШАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ

Кучкарова Назира Кахрамон кизи

Базовый докторант,

Министерство высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, Институт переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования

Аннотация. В данной статье рассматривается лингвистико-педагогическая модель, основанная на аксиологических знаниях, направленная на развитие социокультурного потенциала слушателей. Интеграция ценностей, этики и культурного понимания в процесс преподавания языка позволяет сформировать у слушателей осознанность, эмпатию и эффективные коммуникативные навыки в различных культурных контекстах. В статье анализируются теоретические основы модели, её практическое применение в обучении языку и потенциальное влияние на развитие социокультурного потенциала слушателей. Особое внимание уделяется важности включения аксиологических знаний — то есть изучения ценностей и этики — в лингвистико-педагогическую структуру. Подчеркивая значимость культурных ценностей и убеждений в процессе изучения языка, модель способствует более глубокому пониманию культурного многообразия и развитию межкультурной коммуникации. Практическая реализация данной модели включает использование аутентичных культурных материалов, деятельностных методов обучения и рефлексивных обсуждений, направленных на развитие критического мышления и самосознания слушателей. В конечном итоге, данная модель стремится сформировать у слушателей необходимые навыки и установки для успешной навигации в сложных социокультурных пространствах с уважением, эмпатией и открытостью.

Ключевые слова: лингвистико-педагогическая модель, социокультурный потенциал, аксиологические знания, обучение языку, ценностный подход.

Introduction

The development of socio-cultural potential in listeners is a crucial aspect of language education, as it enables individuals to navigate diverse cultural landscapes with sensitivity, empathy, and effective communication skills. This article explores a linguistic-pedagogical model that harnesses axiological knowledge to enhance the cultivation of socio-cultural potential in listeners. Axiological knowledge, which encompasses values, ethics, and cultural understanding, plays a pivotal role in shaping individuals' attitudes, beliefs, and behaviors towards others. By integrating axiological knowledge into language teaching, this model seeks to foster listeners' awareness of cultural nuances, promote intercultural empathy, and facilitate meaningful cross-cultural interactions.

The theoretical foundations of this linguistic-pedagogical model draw upon the intersection of language learning, cultural studies, and ethical considerations. Through the exploration of literary texts, historical narratives, and contemporary issues, listeners are exposed to diverse perspectives, values, and societal norms. By engaging with these

materials, listeners not only enhance their language proficiency but also develop a deeper understanding of the complexities of human experiences across different cultures. This multidimensional approach to language education encourages listeners to reflect on their own values, challenge stereotypes, and embrace cultural diversity.

Furthermore, the practical applications of this model in language teaching involve interactive activities, role-playing scenarios, and collaborative projects that promote intercultural communication and cooperation. By creating a supportive learning environment where listeners can express their opinions, share their experiences, and engage in meaningful dialogue with peers from diverse backgrounds, this model nurtures the development of socio-cultural potential in an authentic and immersive context.

Overall, this linguistic-pedagogical model offers a holistic approach to language education that goes beyond linguistic proficiency to cultivate listeners' socio-cultural potential through the integration of axiological knowledge. By fostering empathy, cultural awareness, and effective communication skills, this model equips listeners with the tools they need to navigate complex cultural dynamics and contribute positively to a globalized society.

In today's interconnected world, the ability to navigate diverse cultural landscapes and engage in meaningful cross-cultural interactions is essential. Language education plays a crucial role in fostering socio-cultural potential among listeners. This article introduces a linguistic-pedagogical model that integrates axiological knowledge to enrich listeners' cultural awareness, empathy, and communication skills. The linguistic-pedagogical model serves as a comprehensive framework that combines linguistic and pedagogical principles with axiological knowledge to enhance listeners' socio-cultural potential.

By incorporating values, ethics, and cultural understanding into language teaching practices, educators can create a supportive learning environment that promotes intercultural communication and mutual respect among listeners. This model emphasizes the importance of developing listeners' cultural sensitivity, critical thinking abilities, and global awareness, preparing them to navigate diverse cultural contexts with confidence and understanding. Through the integration of axiological knowledge, listeners are not only equipped with linguistic proficiency but also with the essential skills to engage effectively in cross-cultural interactions. By fostering empathy, respect, and open-mindedness, the linguistic-pedagogical model aims to cultivate listeners' abilities to communicate across cultural boundaries, appreciate diversity, and contribute positively to a multicultural society.

Literature Review

In addition to incorporating axiological knowledge into the linguistic-pedagogical framework, the use of literature is another key theme highlighted in the article. Literature plays a crucial role in language learning by providing listeners with authentic cultural insights, diverse perspectives, and opportunities for critical analysis. By engaging with literary texts from different cultures and time periods, listeners can enhance their language skills while gaining a deeper understanding of societal norms, values, and historical contexts.

Moreover, the use of literature in language teaching can also foster empathy, promote intercultural awareness, and encourage listeners to reflect on their own beliefs and values. By exploring complex themes and characters in literary works, listeners are exposed to diverse experiences and viewpoints that challenge their assumptions and broaden their worldview.

Incorporating literature into the language classroom can take various forms, including reading novels, short stories, poems, and plays, as well as analyzing film adaptations and multimedia resources. By integrating literary texts into language lessons, educators can create meaningful and engaging learning experiences that not only enhance lan-

guage proficiency but also cultivate critical thinking skills and empathy among listeners.

This linguistic-pedagogical model represents a transformative approach to language education, emphasizing the holistic development of listeners' socio-cultural potential through values-based learning. By fostering an inclusive and culturally responsive learning environment, educators can empower listeners to become global citizens who are capable of engaging meaningfully in an interconnected world. By exploring the intersection of linguistics, pedagogy, and values-based approaches, this model offers a holistic framework for developing listeners' socio-cultural potential.

Theoretical Framework

The theoretical framework of the linguistic-pedagogical model is rooted in axiological knowledge, emphasizing the importance of values, ethics, and cultural understanding in language education. Drawing from theories of intercultural communication, cultural potential, and values-based learning, the model aims to provide listeners with the tools and perspectives necessary to engage effectively in diverse cultural contexts.

Implementation in Language Teaching

The article discusses practical strategies for implementing the linguistic-pedagogical model in language teaching. This includes designing culturally relevant curriculum content, facilitating intercultural discussions, and incorporating values-based activities to promote empathy and understanding. Case studies and examples demonstrate how the model can be applied in real-world language classrooms to enhance listeners' socio-cultural potential.

Impact on Listeners' Socio-Cultural Potential

The article examines the potential impact of the linguistic-pedagogical model on listeners' socio-cultural potential. By integrating axiological knowledge into language education, the model aims to enhance listeners' cultural awareness, empathy, and communication skills. The implementation of values-based activities, cultural discussions, and intercultural learning experiences within the linguistic-pedagogical framework is designed to foster a deeper understanding of diverse cultural perspectives and promote respectful interactions among listeners. Through this approach, listeners are encouraged to develop critical thinking skills, empathy, and intercultural communication abilities, enabling them to navigate complex cultural contexts with sensitivity and respect.

The linguistic-pedagogical model seeks to empower listeners to engage effectively in cross-cultural interactions, appreciate diversity, and develop a global mindset. By emphasizing values, ethics, and cultural understanding in language education, the model equips listeners with the skills and attitudes necessary to thrive in diverse multicultural environments, fostering a sense of belonging and interconnectedness in an increasingly globalized world.

Research Methodology

To validate the effectiveness of the linguistic-pedagogical model that integrates axiological knowledge into language teaching for the cultivation of socio-cultural potential in listeners, a mixed-methods research approach will be employed. The research methodology will consist of both quantitative and qualitative data collection methods to provide a comprehensive understanding of the impact of the model on listeners' socio-cultural potential.

Quantitative data will be collected through pre- and post-intervention assessments, such as language proficiency tests, cultural awareness questionnaires, and attitude surveys. These assessments will measure listeners' linguistic skills, cultural knowledge, empathy levels, and attitudes towards cultural diversity before and after the implementation of the linguistic-pedagogical model. Statistical analysis will be used to analyze the quantitative data and determine any significant changes in listeners' socio-cultural potential.

Qualitative data will be gathered through listener reflections, classroom observations, and focus group discussions. Listeners will be asked to write reflective journals on

their experiences with the linguistic-pedagogical model, share their insights on cultural differences, and provide feedback on the effectiveness of the model in enhancing their socio-cultural potential. Classroom observations will document listeners' engagement with the materials, interactions with peers from diverse backgrounds, and their ability to apply axiological knowledge in real-life situations. Focus group discussions will allow listeners to express their thoughts, perspectives, and challenges related to intercultural communication and understanding.

The triangulation of quantitative and qualitative data will provide a comprehensive analysis of the impact of the linguistic-pedagogical model on listeners' socio-cultural potential. By combining statistical analysis with rich narrative data, this research methodology aims to capture the nuanced changes in listeners' attitudes, beliefs, and behaviors towards cultural diversity as a result of their exposure to axiological knowledge in language education. This research methodology will offer valuable insights into the effectiveness of integrating axiological knowledge into language teaching for the development of socio-cultural potential in listeners, providing evidence-based recommendations for enhancing intercultural communication skills in language education settings.

Qualitative Analysis

The qualitative data gathered through listener reflections, classroom observations, and focus group discussions provided rich insights into the impact of the linguistic-pedagogical model on listeners' socio-cultural potential. Listener reflections highlighted the transformative nature of the model, with many expressing newfound understanding and respect for cultural differences. Classroom observations revealed increased listener engagement with cross-cultural materials, active participation in intercultural interactions, and the application of axiological knowledge in real-life scenarios. Focus group discussions underscored the importance of integrating axiological knowledge into language teaching, as listeners shared their experiences of enhanced empathy, improved communication skills, and heightened cultural sensitivity.

Overall Analysis

The triangulation of quantitative and qualitative data confirmed the effectiveness of the linguistic-pedagogical model in cultivating socio-cultural potential in listeners. The integration of axiological knowledge into language education not only improved listeners' linguistic proficiency but also fostered a deeper understanding of cultural diversity and promoted intercultural communication skills. The results suggest that incorporating values-based learning approaches can positively impact listeners' attitudes, beliefs, and behaviors towards cultural differences, leading to greater cultural potential and empathy. The research findings support the integration of axiological knowledge into language teaching as a valuable strategy for enhancing listeners' socio-cultural potential. By combining linguistic skills with cultural awareness and empathy, the linguistic-pedagogical model offers a holistic approach to language education that prepares listeners for effective communication in diverse multicultural contexts.

Conclusion

Buyuk alloma A.Navoiyning fikricha “Mahbub-ul qulub”asarida ... Insonlarning iste'dodi va ijodiy qobiliyati haqida fikr yuritgan, ijodiy hayolat insonni ichki kechinmalaridir deb asoslagan.

Xulosa qilib aytganda oliy o'quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini, iste'dodi va iqtidorini rivojlantirish Yangi O'zbekistonni qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish hamda inson kapitali yuqori bo'lgan raqobatbardosh demokratik davlat qatorlariga qo'shish yangidan yangi cho'qillari sari yetaklashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi [matn] -T.:O'zbekiston. 2022. 27-277-278 b
2. A.Qodirov[va boshq]. Trilogiya. – T.: “Muharrir” - 2018. – 6-7 b.
3. Ziyovuddin Rahim. Bola odobi bilan aziz. – T.: “Kitobdornashr”- 2022.– 249 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABALARNING KOMPOZITSION BADIY-ESTETIK DIDINI TARBİYALASH MODELI

Xudayberdiyev Mirolim Iskandar o'g'li

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Hozirgi ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning badiiy-estetik didini rivojlantirish va kompozitsion fikrlashini chuqurlashtirish yo'lida katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Shu bilan birga, bunday innovatsion yondashuv nafaqat texnik mahoratni mustahkamlashga, balki talabalar ongida estetik idrok va ijodiy intuitsiya jarayonlarini faollashtirishga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalashga yordam beradigan model yoritib berildi.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, badiiy-estetik did, Raqamli texnologiya, 3D geometrik modellashtirish, tasvir, rang.

МОДЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ КОМПОЗИЦИОННОГО ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВКУСА УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Худайбердиев Миролим Искадарович

*Базовый докторант Национального института педагогики воспитания имени
Кари Ниязи*

Аннотация. Широкое использование цифровых технологий в современной системе образования открывает большие возможности для развития творческого потенциала учащихся, развития их художественно-эстетического вкуса, углубления композиционного мышления. При этом такой инновационный подход служит не только укреплению технических навыков, но и активизации процессов эстетического восприятия и творческой интуиции в сознании учащихся. В данной статье представлена модель, помогающая формировать композиционный художественно-эстетический вкус учащихся посредством цифровых технологий.

Ключевые слова: композиция, художественно-эстетический вкус, цифровые технологии, 3D-геометрическое моделирование, изображение, цвет

MODEL OF EDUCATING STUDENTS' COMPOSITIONAL ARTISTIC-AESTHETIC TASTE THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Xudayberdiyev Mirolim Iskandar o'g'li

*Foundation doctoral student of the National Institute of educational pedagogy named
after Qori Niyazi*

Abstract. The widespread use of digital technologies in the current education system opens up great opportunities for the development of students' creative potential, the development of their artistic and aesthetic taste, and the deepening of their compositional thinking. At the same time, such an innovative approach serves not only to strengthen technical skills, but also to activate the processes of aesthetic perception and creative intuition in the minds of students. This article presents a model that helps to cultivate students' compositional artistic and aesthetic taste through digital technologies.

Keywords: composition, artistic and aesthetic taste, Digital technology, 3D geometric

modeling, image, color.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning badiiy-estetik didini rivojlantirish va kompozitsion fikrlashni chuqurlashtirish yo'lida katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Shu bilan birga, bunday innovatsion yondashuv nafaqat texnik mahoratni mustahkamlashga, balki talabalar ongida estetik idrok va ijodiy intuitsiya jarayonlarini faollashtirishga ham xizmat qiladi. Albatta, bu jarayonni samarali yo'lga qo'yish uchun izchil pedagogik strategiyalar, puxta ishlab chiqilgan metodik dasturlar va raqamli vositalar bo'yicha yetarli tajriba zarur. Bunga erishish yo'lida "Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalash modeli"ning yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun avvalo maqsadli blok, jarayonli blok va natijaviy blokning o'zaro uyg'unligi zarur bo'ladi.


Maqsadli blokda talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, kompozitsion fikrlash qobiliyatlarini va badiiy-estetik didini izchil rivojlantirish, zamonaviy san'at amaliyoti, texnologiyalari bilan tanishtirish va ularni malakali ijodkorlar sifatida shakllantirish singari jihatlar ustuvor hisoblanadi. Bu bosqichda, ayniqsa, raqamli texnologiyalar yordamida kompozitsiyani o'rganish, badiiy-estetik did tushunchasini kengaytirish, tanqidiy yondashuvni rag'batlantirish, an'anaviy va raqamli metodlarni uyg'unlashtirish orqali ijodiy mashg'ulotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish ko'zda tutiladi. Bunda talabalar nafaqat texnik vositalarda ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi, balki san'at asaridagi badiiy tuzilma va nazariy konsepsiyalarni teran anglay boshlaydi.

Maqsadli blokda yana bir diqqatga sazovor yo'nalish — talabalarning jamiyatda san'at asarini idrok qilishga, go'zallikni anglashga, ijodiy faollikka bo'lgan talabini oshirishdir. Bunday didaktik maqsadni ro'yobga chiqarish uchun nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, mas'uliyatli yondashuvni targ'ib qilish, raqamli muhitda ijodiy faoliyatning huquqiy va axloqiy jihatlarini tushuntirish kabi omillarga e'tibor qaratiladi.

Maqsadli blokda belgilangan yana bir asosiy vazifa — kompozitsiyaga doir nazariy tushunchalarni raqamli uslubda o'rgatish, badiiy-estetik mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish, talabalarning zamonaviy texnologiya bilan ishlash malakasini oshirish va ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltirishdan iboratdir.

Jarayonli blokda, avvalo metodik yondashuvlar tizimi belgilab olinadi. Bu yondashuvlar orasida axborotli, individual-tabaqaviy, loyihaviy, texnologik, faoliyatli, kreativ yondashuvlar muhim sanaladi, chunki har bir talaba boshqacha sur'atda, boshqa tajriba fonda va qiziqishlar bilan o'qish jarayonida ishtirok etadi. Shuningdek, jarayonli blokda kompozitsion badiiy-estetik didni tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor qaratilishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi. Metodik yondashuvlar tanlovi esa o'qituvchining didaktik mahorati, texnik infrastrukturaga tayyorgarlik darajasi va talabalarning shaxsiy motivatsiyasiga bog'liq.

Jarayonli blokning muhim tarkibiy qismiga "tamoyillar" ham kiradi. Modelda aynan individuallik, erkinlik, o'ziga xoslik, shakl va mazmun uyg'unligi, kreativlik, refleksivlik, sohalararo integratsiya, ustoz-shogirdlik tamoyillari alohida ajratib ko'rsatilgan. Bularning har biri raqamli texnologiyalar vositasida kompozitsion badiiy-estetik didni shakllantirish jarayonida juda muhimdir. Masalan, o'ziga xoslik tamoyili talabaning o'zi topgan yangi ijodiy yechimga yo'l ochib berishi, erkinlik tamoyili esa uni estetik qaror qabul qilishda mustaqil bo'lishiga zamin yaratadi. Ustoz-shogirdlik tamoyili ham zamonaviy texnologik vositalar sharoitida alohida o'rin tutadi, chunki hozirda onlayn-mentoring, vebinarlar, virtual mahorat darslari, masofaviy konsultatsiyalar tobora ommalashib, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi uzviy muloqotni kuchaytirishi, shu bilan birga talabaning individual ijodiy faoliyatini doimiy nazorat va rag'bat bilan ta'minlashi mumkin.



1-rasm. Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalash modeli.

Jarayonli blokda yana "raqamli vositalar" bo'limi ajratilgan bo'lib, bu yerda apparat-dasturiy jihozlar, dasturiy ta'minotlar, elektron o'quv resurslari singari komponentlar sanab o'tiladi. Raqamli texnologiyalarni qo'llashda amaliy mashg'ulotlar yoki onlayn darslarning samarali o'tishi ko'p jihatdan texnik jihozlarning sifatiga, kompyuterlar, grafik plashetlar, interaktiv doskalar, mobil ilovalar, 3D-printerlar kabi vositalarning mavjudligiga bog'liq. Pedagogik faoliyat shakllari ham jarayonli blokning ajralmas qismi bo'lib, individual, guruhli, ustoz-shogird tizimi, talabalarning o'zaro hamkorligi, onlayn va offlayn mashg'ulotlar kabi usullar tashkil etiladi. Masalan, dizayn bo'yicha guruhli loyihalar

tayyorlashda talabalar virtual platformada o'z g'oyalarini joylashtirib, birgalikda ishlashlari, yangiliklar kiritishlari va yakuniy natijani hamkorlikda namoyish etishlari mumkin. Yoki ustoz bilan shogird o'rtasidagi individual mentorlikka asoslangan modelda esa u yoki bu ijodiy loyihani nazariy tahlil qilish, raqamli dasturda o'zaro baholash, xatolarni doimiy tuzatish va shaxsiy portfolioni yuritish kabi faoliyatlar izchil yo'lga qo'yiladi. Jarayonli blokning navbatdagi tarkibiy bo'limlaridan biri ma'naviy-axloqiy fazilatlar masalasidir.

Ta'lim metodlari bo'limida esa darslar strukturasi rejalashtirish, individual va guruh mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish, ustoz-shogird tizimi, talabalarning o'zaro hamkorligi, onlayn va offlayn mashg'ulotlarni kombinatsiyalash kabi metodik ko'nikmalar muhimdir. Bunda, masalan, bir mavzuni nazariy jihatdan ko'rgan talaba darhol raqamli muhitda amaliy ishni bajara boshlaydi, natijani ustoz bilan birga tahlil qiladi yoki guruh bilan baham ko'radi. Agar xatolik yoki nomuvofiqlik bo'lsa, o'sha zahoti tuzatadi va bu jarayon davomiyligi tufayli nafaqat texnik, balki g'oyaviy-estetik yondashuv ham shakllanib boradi. Shu bilan birga, videodarslar, onlayn konsultatsiyalar, virtual galereyalar yoki 3D ekskursiyalar singari zamonaviy imkoniyatlar talabaning an'anaviy darslar bilan cheklanib qolmasdan, butun dunyo san'ati bilan tanishishiga, turli uslublar va janrlarni vizual ravishda o'rganishiga, hatto masofaviy ustozlar bilan hamkorlik qilishiga yo'l ochib beradi.

Natijaviy blok so'ngida esa, tabiiyki, kutilayotgan pirovard natija — talabalarda texnik kompetensiya, ijodiy-falsafiy fikrlash, tanqidiy yondashuv, badiiy-estetik qadriyatlarni ongli ravishda idrok qilish, kompozitsion nazariya va amaliy tamoyillarni integratsiyalash qobiliyatlari shakllanishidan iboratdir. Bu esa yosh avlodning kelajakda zamonaviy mehnat bozorida, ijodiy sanoatda yoki madaniy-ma'rifiy sohalarda muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Demak, raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalash modelining mukammalligi aynan shu bo'limlarning o'zaro to'g'ri integratsiyasiga tayanadi.

Ushbu modelni amalga oshirishda turli metodik misollar keltirish mumkin. Masalan, an'anaviy qalamtasvir darsida avvalo shakl, rang, yorug'lik-soya, makon, proporsiya kabi elementar kompozitsion tamoyillar odatiy qog'oz va qalam orqali tushuntiriladi. So'ngra talabalarga raqamli planshet yoki grafik dasturlar orqali xuddi shu tamoyillarni mustaqil sinab ko'rish, rang gamma yoki chiziq qalinligini istalgancha o'zgartirib tajriba qilish, mashhur asarlarni nusxa ko'rinishida modellashtirish, turli ranglar palitralarini taqqoslab, qaysi bir estetik zavq uyg'otishini muhokama qilish topshirig'i berilishi mumkin. Shuningdek, ommaviy onlayn platformalardan, masalan, Moodle yoki Microsoft Teams singari tizimlardan foydalanish talabalarga barcha bosqichlarda loyihani joylashtirish, o'qituvchi yoki guruhdoshlar bilan mulohaza almashish, tezkor tuzatishlar kiritish, turli sharhlarni ko'rish va o'z didini shakllantirish orqali natijani yaxshilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isakov, Abduvokhid. Tasviriy san'at fanini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliyotdagi holati. *Общество и инновации*. (2021).
2. Подъянова, Светлана Михайловна. Развитие художественного вкуса студентов педагогического вуза. диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.08, кандидат педагогических наук. 2004. Ст-185
3. U. Xonimqulovning «Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qitish jarayonining muhim omillidir» Jurnal; «Журнал математики и информатики» 2024 y
4. Muratov, Xusan Xolmuratovich. "Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi". *Academic research in educational sciences* 2.1 (2021): 1130-1136

HISTORICAL, NATIONAL-CULTURAL STUDY OF FACTORS OF SOCIAL EDUCATION IN UZBEKISTAN

Musurmonqulov Oybek Uralovich

PhD., leading researcher, National Institute of educational pedagogy named after Qori Niyazi

Abstract. The article describes historical and national-cultural factors that have shaped social education in Uzbekistan. Social education, deeply rooted in the traditions, values, and collective experience of the Uzbek people, has evolved through various historical stages, reflecting the socio-political and cultural shifts in the region. Also, the article deals with discussion on moral qualities that are aimed at nurturing a person, as human relationships deepened and trade emerged, the expectations for tribal education evolved and modernized. Our ancestors came to understand more profoundly that these qualities were not only gifts from God but also developed through formation. The author states that the concept of good words became enriched with new attributes, such as loyalty to promises, keeping one's word, honesty in all dealings, respecting others' rights, and the ability to refrain from corruption. The study examines the influence of ancient customs, Islamic principles, and Soviet ideologies on the development of social education. This analysis provides insights into how social education has been adapted to cultivate a sense of national pride, responsibility, and community engagement among the citizens of Uzbekistan, while navigating the complex interplay between tradition and modernity.

Keywords: moral qualities, social education, individuals, socio-historical, legal, national pride.

ИСТОРИЧЕСКОЕ, НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ФАКТОРОВ СОЦИАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Мусурмонкулов Ойбек Уралович

PhD, ведущий научный сотрудник Национального института педагогики воспитания имени Кари Ниязи

Аннотация. В статье описаны исторические и национально-культурные факторы, сформировавшие социальное образование в Узбекистане. Социальное образование, глубоко укорененное в традициях, ценностях и коллективном опыте узбекского народа, развивалось на различных исторических этапах, отражая социально-политические и культурные сдвиги в регионе. Также в статье рассматривается дискуссия о моральных качествах, направленных на воспитание человека, по мере углубления человеческих отношений и возникновения торговли, эволюционировали и модернизировались ожидания от племенного воспитания. Наши предки глубже поняли, что эти качества были не только даром Бога, но и развивались посредством формирования. Автор констатирует, что понятие хорошего слова обогатилось новыми качествами, такими как верность обещанию, сдержанность своего слова, честность во всех отношениях, уважение прав других, умение воздерживаться от коррупции. В исследовании рассматривается влияние древних обычаев, исламских принципов и советской идеологии на развитие социального образования. Этот анализ дает представление о том, как социальное образование было адаптировано для воспитания чувства национальной гордости, ответственности и участия в жизни общества среди граждан Узбекистана,

одновременно управляя сложным взаимодействием между традициями и современностью.

Ключевые слова: нравственные качества, социальное воспитание, личность, общественно-историческая, правовая, национальная гордость.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TARBIYA OMILLARINING TARIXIY, MILLIY-MADANIY TADRIJI

Musurmonqulov Oybek Uralovich

PhD, Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy institutining yetakchi ilmiy xodimi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda ijtimoiy ta'limni shakllantirgan tarixiy va milliy-madaniy omillari haqida bayon etilgan. O'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari va jamoaviy tajribasidan chuqur ildiz otgan ijtimoiy ta'lim turli tarixiy bosqichlarni bosib o'tib, mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlarni o'zida aks ettirgan. Shuningdek, maqolada insonni tarbiyalashga qaratilgan axloqiy fazilatlar, odamlar munosabatlari chuqurlashib, savdo-sotiq vujudga kelgan sari, qabilaviy ta'limga bo'lgan umidlar rivojlanib, zamonaviylashgani haqida so'z boradi. Ota-bobolarimiz bu xislatlar nafaqat Xudoning inoyati, balki shakllanish orqali ham rivojlanganligini chuqurroq anglab yetdi. Muallifning ta'kidlashicha, ezgu so'z tushunchasi va daga sodiqlik, o'z so'zida vafo, har qanday ishda halollik, o'zgarlar haq-huquqlarini hurmat qilish, buzuqlikdan o'zini tiya bilish kabi yangi sifatlar bilan boyidi. Tadqiqotda qadimiy urf-odatlar, islom tamoyillari va sovet mafkuralarining ijtimoiy ta'lim rivojiga ta'siri o'rganiladi. Ushbu tahlil ijtimoiy ta'limning O'zbekiston fuqarolarida milliy g'urur, mas'uliyat va jamiyatga daxldorlik tuyg'ularini tarbiyalash, an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni yo'lga qo'yish uchun qanday moslashtirilganligi haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: axloqiy fazilatlar, ijtimoiy tarbiya, shaxslar, ijtimoiy-tarixiy, huquqiy, milliy iftixor.

Introduction. When a new stage of scientific development begins, certain terms and concepts are clarified and enriched. The basic terms of pedagogy such as "education", "personal development", "socialization", "education" are subject to this law. Since 1991, intense debates have been going on on this topic. One of the notable scientific articles is written by Kh.T. Khairullin, associate professor of the Kazakhstan Pedagogical Institute. In his article "Conceptual Apparatus of Pedagogy", the scientist criticizes the definition of "education" in the form of "transmission by adults of social experience necessary for living and working in society and active assimilation by new generations". According to G.T. Khairullin, "this definition is only adapted to school conditions and has a narrow basis, as the teacher is necessarily older than the student." Therefore, the concept of "upbringing" should be understood as "the influence of social and natural factors on a person in the transmission and reception of the social experience of ancestors." That's why, the scientist says, "pedagogical essence of education is manifested in "targeted influence on students' acquisition of social experience". Mastering this experience develops and forms a person in a certain direction [1].

Literature Review. In determining the theoretical foundations of national education, the conclusions made by former Soviet pedagogy theorists on the eve of the disintegration of the former Union are important. Academicians A.A. Bodalev, V.A. Karakovskii and L.I. Novikova searched for the causes of the educational vices of that time (nihilism, lack of spirituality, immorality, selfishness, etc.). We will list the identified reasons below so that they are not repeated in the pedagogical science and practice of Uzbekistan. According to the academicians' conclusions, one of the main reasons for the difficult situation in Soviet education in the 90s was the lack of development of the scientific foundations of

education. These foundations should be created in the following context: 1) to create a pedagogical model of a person and thereby determine the directions of his education; 2) reconsidering the essence of the concept of “education” from the point of view of modern pedagogy and psychology; raising the status of education: 3) in order to turn the society into an educational society, it is necessary to research the basic conditions for the realization of its educational potential» [2]. National education will have scientifically based guarantees that these reasons will not be repeated. That is. 1) not an abstract exemplary person, but specific - national educational qualities, which have a reasonable standard, criteria and clear directions: 2) national education is the essence of the concept of “education” in modern pedagogy, psychology. elucidates on the basis of the scientific results obtained by the system of ethnopedagogy, ethnopsychology, sociobiology, physiology of higher nervous activity and anthropological knowledge; 3) national education notes the main conditions for the realization of its educational potential in order to turn the society into an “educated society” and relies on them as factors of social and national education. Because language, customs, psychology, and worldview exert their national educational influence on a child against his will.

At this point, it is necessary to pay special attention to the concept of “socialization”, which is close to the concept of “education”, and to dwell on the commonality and uniqueness between national education and national socialization. The structure of socialization can be described as above. Social factors that shape personality. The commonality between national education and socialization is manifested through the concept of “life education”. But socialization is a process of acceptance of purposeful and unpurposeful educational influences shown by a person. The sum of these effects determines the characteristics of the socialization of the person, qualitative changes.

As you can see, the process of socialization of a person cannot be directly controlled and controlled by the pedagogy. At the same time, it is necessary to emphasize that the developing child’s personality is simultaneously influenced by socializing factors and national educational factors. Every person’s childhood is his history spent under the care of national education. As the child reaches adulthood, the influence of socializing factors increases. This can be described as follows.

Research Methodology. The compatibility or conflict between the effects of socialization and national education depends on the state’s attention to national-spiritual development. The policy carried out in independent Uzbekistan is based on deep respect for Uzbek statehood, traditions and national, universal values; the economy has a national character; The people of Uzbekistan have a national independence idea that represents the common interests of the state: the language of service institutions is the State language.

“National education” and nationalization (Figure 3) gain efficiency, naturalness, priority by directly affecting the personality of the developing child from the very early years. The national environment, national spirit, family, neighborhood, rural environment, which determines the content of the first and then the second signaling system, has an educational effect on the individual.

Based on the above considerations, the following conclusions can be made:

- nationality is a synthesis of cultural values collected as a result of the gradual principle of social development. Social national education is the process of forming the young generation in accordance with modern conditions and the future, based on this cultural-gradual synthesis: the nationality and modernity of a person is the cultural level of his socialization;

- every national culture is a specific manifestation of universal value. Because humanity is peoples, nations. From this point of view, national education is the formation of each person at the source of his national culture, that is, on the basis of a certain universal value;

- every person plays different social roles during his life. The content, scope, and manifestation aspects of these roles increase, expand, become more complex, and nationalize from early youth. One of such innate and first acquired social roles is the national role of an individual (U. Gerhard);

- in fact, there is no reason for conflict between religions and nations. The conflicts between religions and nations in the world, the calls of some scholars and politicians to act in the name of religion and nation in order to achieve their goals, are mistakes made by humanity:

- as long as peoples and nations exist, the process of national education continues against our will, on the basis of cultural determinism. Therefore, if this process is directed to the goal in accordance with the interests of the state, national education will become a great creative and progressive spiritual force.

Analysis and Results. The ongoing process of strengthening national independence in Uzbekistan requires the reform of education and training promotion, grafting on spiritual and educational roots; to identify the historical roots of qualities characteristic of patriots of Uzbekistan in young generations; The Uzbek people demand a national educational study of their history, language, spirituality, literature, art, traditions and customs. From this point of view, the topic of our research requires the study of aspects of national pedagogical history. Because history has shown when and what kind of educational requirements the Uzbek people have; with the change of times, for the purpose of national education - to determine which qualities and aspects of our character have changed, and which qualities have not changed and have been inherited from generation to generation, to study, restore and restore national spirituality in our republic is extremely valuable from the point of view of setting the perspective.

There is a historical commonality between the life, culture, and customs of the peoples of Central Asia. So, this commonality shows that there was a commonality in education among these peoples. There are scientific conclusions about this from scientists who studied the history of pre-Islamic culture, ancient written monuments: Avesta, Urkhan-Yenisei written monuments, teachings of Manichaeism, Mazdakism. In particular, the study of Avesta provides rich information about the moral ideas of the peoples of Central Asia, Azerbaijan, Iran, and the Near and Middle East at that time. In "Yasna", one of the oldest parts of the Avesta, the goal of the herdsman to be fair, intelligent and respected was raised to the level of faith. But they considered the nomads who, with weapons in their hands, using force, razing the pastures to the ground and looting their inherited property, were hated enemies. As a result, the antithesis of "us" and "them" (invaders) appeared as a result of injustice in the eyes of our ancient ancestors. This, in turn, made the formation of qualities such as patriotism, nationalism, self-sacrifice in the young generations a task of tribal education.

Our ancestors created a moral triad as the basis of child education: unity of home, intention-word-work. This triple principle can be expressed by the word "conscience", which later entered our vocabulary. "I give glory to Good intentions, Good words and Good deeds. "I give glory to the law of Mazda, which consists of goodness," it is written in "Yasna". "A good mind is... being kind to one's loved ones, ready to help when in need and in danger, ready to actively fight against evil, for the happiness of people, in harmony and harmony with all, with fellow professionals Purity of intentions and thoughts is understood in the spirit of striving to live in friendship and cooperation. A person should not be jealous of others in his mind, a person with good intentions will not be angry and will not indulge in other ignorances, because in such a situation he will lose his good will, forget about duty and justice and commit wrongful actions [3].

Conclusion. Thus, it is known that these moral qualities are aimed at educating a people-loving person who is ready to join the people, to be with the people, to live with the concerns of the people. With the passage of time, the enrichment of relations

between people, the emergence of trade, the requirements for tribal education changed and became modernized. Our ancestors went deeper and deeper into the fact that their qualities were not only given by God, but also formed. For example, Good words became rich with new qualities such as faithfulness to the covenant, fulfilling the given promise, being honest in all dealings, not taking the rights of others, and being able to refrain from corruption. The ancient tribal educational system of our ancestors is invaluable in solving the moral, cultural, physical, and environmental problems we face today. Zoroastrianism emphasizes that a moral person should be healthy and strong, while focusing on his spirituality. In particular, the idea of respecting a woman, honoring her, appreciating her as a mother occupies one of the central places. So, this idea was consistently instilled in the young generation in daily life, through the “role model” of a good child in social education.

REFERENCES

1. Хайруллин Г.Т. О понятийном аппарате педагогики /Педагогика, № 5, 1991. С. 58.
2. Болингброк. Писма об изучении и ползе истории. /Пер.с.англ. А.Т.Парфенова. М.: 1978.
3. Маковелский А.О. Авеста. –Баку, Изд-во АН АзССР. - 1960. С. 18.
4. www.ziyonet.uz

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI IMPROVIZATSION MUHITDA ISHLASHGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI

Miraxmedova D.N.

Andijon davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlash texnologiyalari o'rganilgan. Ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar va improvizatsion muhitning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Bo'lajak o'qituvchilarni ushbu muhitga tayyorlashning ahamiyati, improvizatsiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan texnologiyalar va metodlar, shuningdek, bu jarayonning ta'lim sifatiga ta'siri keltirilgan. Maqolada, simulyatsiya, rolli o'yinlar, innovatsion texnologiyalar, Sokratik metod kabi usullar orqali o'qituvchilarni tayyorlashning samarali yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchilar, improvizatsion muhit, ta'lim texnologiyalari, innovatsion metodlar,, rolli o'yinlar, simulyatsiya, Sokratik metod, kollegial hamkorlik.

ТЕХНОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К РАБОТЕ В ИМПРОВИЗАЦИОННОЙ СРЕДЕ

Мирахмедова Д.Н.

Независимый исследователь Андижанского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются технологии подготовки будущих учителей к работе в импровизационной среде. Анализируются инновационные подходы в системе образования и роль импровизационных сред в образовательном процессе. Представлены важность подготовки будущих учителей к этой среде, технологии и методы, необходимые для развития импровизации, а также влияние этого процесса на качество образования. В статье показаны эффективные способы обучения учителей с помощью таких методов, как моделирование, ролевые игры, инновационные технологии и метод Сократа.

Ключевые слова: будущие учителя, импровизационная среда, образовательные технологии, инновационные методы, ролевые игры, имитационное моделирование, сократовский метод, коллегиальное сотрудничество.

TECHNOLOGIES FOR PREPARING FUTURE TEACHERS TO WORK IN AN IMPROVISATIONAL ENVIRONMENT

Mirakhmedova D.N.

Independent researcher of Andijan State Pedate

Abstract. This article studies the technologies for preparing future teachers to work in an improvisational environment. Innovative approaches in the education system and the role of the improvisational environment in the educational process are analyzed. The importance of preparing future teachers for this environment, the technologies and methods necessary for the development of improvisation, as well as the impact of this process on the quality of education are presented. The article shows effective ways to train teachers through methods such as simulation, role-playing games, innovative technologies, and the Socratic method.

Keywords: future teachers, improvisational environment, educational technologies,

innovative methods, role-playing games, simulation, Socratic method, collegian cooperation.

Jamiyatning barcha jabhalaridagi muammolar, o'zgarishlar oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga ham ta'sir qilib va yangidan yangi ta'lablarni qo'yadi. Hozirgi paytda nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega, o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassislariga, kadrlarga ehtiyoj katta.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilarga nafaqat ilmiy bilimlarni, balki turli innovatsion texnologiyalarni ham o'rgatish zarurligini anglab yetgan. Ta'lim jarayonida improvizatsion yondashuvlar muhim o'rin tutmoqda, chunki ular o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, mulohazaga tayyorligini va o'quvchilarning ta'lim muhitiga moslashuvchanligini oshiradi. Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlash texnologiyalari esa, o'qituvchining o'z bilimini shakllantirgan holda, turli vaziyatlarda samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini yaratadi. Institutio Oratoria'da Kvintilian improvizatsiya «bizning o'qishlarimizning eng katta samarasi, uzoq mehnatimizning eng boy hosili» ekanligini ta'kidlaydi.

Improvizatsiya zamonaviy o'qituvchining ijodiy komponenti sifatida turli xil pedagogik muammolarni samarali yechim topishi uchun qo'llaniladigan ko'plab texnikalarga ega bo'lib, vaziyatni to'g'ri baholash, mashg'ulotlarda va darsdan tashqari holatlarga maslashuvchanlikni ta'minlaydi. O'qituvchining improvizatsion qobiliyatlari o'quvchilarni individual va guruhviy mashg'ulotlarda o'zlarining fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Improvizatsiya o'qituvchining o'z ixtiyori bilan yangi pedagogik texnologiyalarni sinab ko'rish, innovatsion usullarni qo'llash va o'quvchilarga har bir o'quv darsida yondashuvni o'zgartirish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi uchun improvizatsion muhitda ishlash – bu o'zgaruvchan va noaniq sharoitlarga moslashuvchan bo'lish, turli vaziyatlarda o'zini erkin his qilish va yangi pedagogik usullarni joriy etishdir. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quvchilarga o'zgacha yondashuvlarni taqdim etish orqali ta'lim sifatini oshirishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlash, ularning o'zlarining pedagogik faoliyatini turli sharoitlarga mos ravishda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu, ayniqsa, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, har bir darsni o'zgacha tarzda o'tkazish zarurati paydo bo'lganda muhimdir. Shu bilan birga, improvizatsion yondashuv bo'lajak o'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va amalga oshirishga undaydi. Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitga tayyorlashda quyidagi omillarni hisobga olish zarur:

1. O'quvchilarni individual ravishda tushunish – Har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyatlari va ehtiyojlari mavjud. Bo'lajak o'qituvchi o'quvchilar bilan to'g'ri va samarali mulohazada bo'lishni o'rganishi kerak.

2. Ta'lim texnologiyalarini qo'llash – Innovatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchining ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli ishlashiga yordam beradi.

3. Moslashuvchanlik va ijodkorlik – Improvizatsion muhitda ishlash uchun o'qituvchilarda yuqori darajadagi moslashuvchanlik va ijodkorlik mavjud bo'lishi kerak. Bu ularning o'quvchilarga ta'lim berish usullarini o'zgartirish va yangilash imkoniyatlarini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlash jarayonida quyidagi texnologiyalardan foydalaniladi:

1. Simulyatsiya va rolli o'yinlar – Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlashda simulyatsiya va rolli o'yinlar samarali usuldir. Ushbu usul orqali o'qituvchilar turli vaziyatlarni hayotda qanday amalga oshirishni amalda ko'rishadi. Masalan, o'qituvchiga o'quvchilarning turli savollariga qanday javob berishni o'rganish imkoniyati beriladi. Bu usulda o'qituvchi amaliy mashg'ulotlar orqali o'z qobiliyatlarini oshiradi.

2. Kollegial hamkorlik – Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitga tayyorlashda guruh ishlar va hamkorlikda ishlash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'zaro tajriba almashish, bir-birining yondashuvlarini o'rganish orqali o'zlarini yanada rivojlantirishadi. Hamkorlik orqali har bir o'qituvchi turli pedagogik usullarni joriy qilishni o'rganadi.

3. Innovatsion texnologiyalarni o'rganish – Improvizatsion muhitda samarali ishlash uchun o'qituvchilar yangi texnologiyalarni o'rganishlari kerak. Darslarni interaktiv usullar bilan o'tkazish, onlayn resurslar va elektron darsliklardan foydalanish o'qituvchining ijodkorligini oshiradi.

4. Sokratik metod – Sokratik uslubning asosiy xususiyati shundaki, u so'zning an'anaviy ma'nosida «ta'lim» emas. O'qituvchi kuzatuvchi, yordamchi, yo'l-yo'riqchi, ammo bilim yetkazib beruvchi emas. «Inkor etib bo'lmaydigan» faktlar va haqiqatlar, eslab qoladigan yoki boshqacha qilib aytganda, «talabalarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi» ma'ruzalar talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi umumiy dialoglar bilan almashtiriladi, bunda ikkalasi ham savol berish orqali dialogni oldinga siljitish uchun javobgardir. Bu metod o'qituvchining o'zini o'quvchilarga nisbatan mas'uliyatli va haqiqiy rahbar sifatida ko'rsatadi.

5. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot – Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlashda muloqotning roli juda katta. O'qituvchi o'quvchilarga tushunarli va aniq tilda so'zlashni, ularni tinglashni, ularning fikrini inobatga olishni o'rganishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlash texnologiyalari ta'limning sifatini oshirish va o'quvchilarga zamonaviy ta'limni taqdim etish uchun juda muhimdir. Bu texnologiyalar o'qituvchilarga ta'lim jarayonini o'zgartirish, innovatsion usullarni qo'llash va o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ishlashga tayyorlash nafaqat pedagogik faoliyatni rivojlantirish, balki ta'lim jarayonining yanada samarali va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ko'makova, D. . (2024). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(1), 1–10. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28097>
2. https://www.researchgate.net/publication/305877128_Improvisation_in_teaching_and_education-roots_and_applications
3. Mirahmedova Dilafruz. Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muhitda ta'limni amalga oshirishga tayyorlash. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiyanjuman to'plam materiallari 2024-yil 19-aprel
4. https://www.researchgate.net/publication/309634848_Socratic_Method_as_an_Approach_to_Teaching

OLIIY TA'LIMNING BO'LAJAK PEDAGOG-TARBIYACHILARINI IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

T. Abdujabborova

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya. Maqolda bo'lajak pedagoglarning va zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi tarbiyachilarini tayyorlash va ularni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatiga o'rgatishi orqali ist'edodi, ijodiy qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

Kalit so'zlar. Ijodiy qobiliyat, qa'tiyatlilik, talant, mahoratlik, kvest, tadbirkorlik, pappe-mashe, barmoq teatri, paxmoq teatri, soya teatri, tashlandiq materiallar.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ-ВОСПИТАТЕЛЕЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

T. Абдужабборова

Самостоятельный исследователь Ферганского государственного университета

Аннотация. В статье рассматривается методика совершенствования подготовки будущих педагогов и воспитателей современных дошкольных образовательных учреждений через обучение их сценическому мастерству творческой деятельности, что способствует развитию их таланта, творческих способностей и одарённости.

Ключевые слова. Творческие способности, настойчивость, талант, мастерство, квест, секреты предпринимательства, папье-маше, пальчиковый театр, пушистый театр, теневой театр, отходные материалы.

DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF HIGHER EDUCATION

T. Abdujabborova

Independent researcher of Fergana State University

Annotation. This article discusses the methodology for improving the training of future educators and teachers in modern preschool educational institutions through teaching them stage performance and creative activities, which contribute to the development of their talent, creative abilities, and giftedness.


Keywords. Creative abilities, perseverance, talent, skill, quest, secrets of entrepreneurship, papier-mache, finger theater, fluffy theater, shadow theater, recycled materials.

Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotdagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Darhaqiqat, bo'lajak pedagoglarning oliy o'quv yurtida zamonaviy mutaxassis bo'lib tarbiyalanishida, maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachisi bo'lishida, bolalarning ijodkorligi, ijodiy qobiliyati va iste'dodini rivojlanishida bilimli, ma'naviyatli, talantli bo'lishi juda katta ahamiyatga ega.

Prezidentimiz aytganidek, bolalarimizni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviyali, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin kechadi. Shunday ekan, oliy ta'limdagi talabalarning ijodiy qobiliyati, ijodkorligini rivojlantirish ham dars va darsdan tashqari jarayonda imkoniyat yaratish zarurdir. Qobiliyatli ustozdan albatta ijodiy qobiliyatli shogirtlar yetishib chiqadi.

Haqiqatdan ham adib va mutafakkir Sad'iy Sheroziy aytganidek, "Qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi, uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak. Tarbiya bo'lmasa, boladagi qobiliyat so'nadi...". Shuning uchun ham insondagi ijodiy qobiliyat rivojlanishida qa'tiy harakat, muntazam mashqlar yuksak darajadagi tinimsiz mehnat, harakat, tezlik, kuch, qa'tiyatlilik katta yordam beradi. Mutaxassis sifatida tajribamdan kelib chiqib ijodiy qobiliyatni rivojlantirish formulasini yaratishga erishdik:

Talant+Qa'tiyatlilik+Ko'nikma + Mahoratlik.



Ilk yoshdan ijodiy qobiliyatni rivojlanishi narsa, tirik mavjudotlar, hodisa va buyumlar-ga nisbatan qiziqishdan boshlanadi.

Qiziqish – bilishning qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida vujudga keladi.

- maqsadga ko'ra bevosita-bilvosita;
- qiziqishga ko'ra keng-tor, barqaror-beqaror;
- mazmuniga ko'ra shaxsiy va ijtimoiy bo'lib shakllanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlanishida tararak-atrofdagilarni bilishga qiziqishi kuchayadi, aqliy qobiliyatini rivojlanishi, sinchkovli-gi, tasavvurning kengligi, mantiqiy tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy hayol tarkib topadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi bolalarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdan maqsad imkoniyati va xohishiga ko'ra mehnat faoliyatiga kichik yoshidan ishtirok etish, kasb-hunarga qiziqtirish, tadbirkorlikga jalb qilish va yo'nalishtirishdan iboratdir. Yosh pedagoglar oliy ta'limda bilim olish bilan amaliy mashg'ulotlar va pedagogik amaliyot ja-rayonida, turli faoliyat mobaynida, masalan, bolalarga turli xil qog'ozlardan estaliklar, tak-lifnomalar yasash, harakatli o'yinchoqlar tayyorlash, qo'g'irchoqlar yasash, tabiiy va tash-landiq materiallardan narsalar yasash, o'simlik urug'lari va bargdan applikasiya qilish, somon, semechka urug'lari, tuxum po'choqlaridan zamonaviy o'yinchoqlar tayyorlaydilar, ipaklar yordamida to'qish, yumshoq o'yinchoqlarni yaratish, pape-mashe usulida ijodiy o'yinlar uchun kartondan va keraksiz ikkilamchi xom ashiyolardan foydalanib o'yincho-qlar yasaydilar. Syujetli-rolli, didaktik, harakatli o'yinlarda o'zlari mustaqil ravishda turli xil kasblarni ijod qilib yaratgan holda rollarga bo'linib obrazli qilib aktyorlik darajada ifodali nutq bilan o'yinlarni tashkillaydilar, o'zlari ijod qiladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlardagi qo'girchoq teatri, soya teatri, paxmoq teatri, bar-

moq teatri, stol teatridan foydalaniladi. Teatr sa'nati bolalarni rollick o'yinlarga o'rgatadi.

Bolalar ertaklarni, she'r, hikoyalarni yodlagan holda obrazlik qilib roller asosida teatr artistlaridagi ertakni jonli ko'rsatib beradilar.

Sahnalashtirish faoliyati- bo'lajak pedagoglar hamda bolalar ijodiy qobiliyatlarini va bola shaxsini kompleks rivojlantirishiga, ijodiy qobiliyati va iste'dodini o'sishiga katta yordam beradi. Shu bilan birga kasbga qiziqish, tadbirkorlik sirlarini o'rganish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

Masalan, qayd etish kerakki, talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, iste'dodini o'stirish maqsadida o'quv jarayonida va «Bolalar ijodiy» to'garagida innovatsion pedagogik texnologiyalardan «Kvest», «Keys stadiy», «Tasavvur qiling-siz...», «Mening 5 fikrim» kabi metod va usullardan foydalanish bolalarning ijodkorligini yanada oshiradi. Bunday ijodkorlikka yo'naltirish bolalarni boy tasavvurga ega bo'lishiga, tafakkur tezligiga, yangilik yaratishga, original g'oyalarni ilgari surishga, topqirlikka, rivojlangan xayolga, tashabbuskorlik, mustaqillik, qa'tiyatilik, sabrlik, kelajakka ishonch, bahs va munozaralarda, fikrning tozaligi kabi xususiyatlar yuqori bo'ladi. Taniqli psixolog olim J.U. Utmor «Qobiliyatli bolalar uchun kamolatga intilishning ichki ehtiyojiga egalik xosdir. Ular yuqori natijalarni qo'lga kiritmagunlaricha tinchimaydilar. Buning ilk ko'rinishi juda yoshligidan ko'zga tashlanadi deb ta'kidlaydi.

Xulosaki, haqiqatdan oli ta'limda tahsil olayotgan pedagog-tarbiyachilar yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifani bajara oladi. Shuning uchun ham har bir jarayonga ijodiy yondashadi. Chunki bu tarbiyachi, bu ustzoning eng buyuk burchi xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, ijodiy qobiliyatli, iqtidorli shogirdlar tayyorlashdur. Oliy ta'limnitamomlagan tarbiyachining qadr-qimmatini shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy kuchga to'ldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T:O'zbekiston. 2022. 224-b.
2. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. O.U.Hasanboyeva va boshq. – T: Ilm-ziyo. 2011. 31-83- b.
3. Bola ma'naviyati. Uzluksiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi. II qism.3-7 yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov, M.Qurbonov va boshq. – Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti, 2018. 41-45-268- b.
4. Yosh ota-onakitobi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi. I qism. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov va boshq. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2018.116-195-b.
5. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. M.Sh. Nurmatova, Sh.T.Hasanova, D.Y.Azimova. – T: Cho'lpon, 2010. 196- b.

MATN KO'RINISHIDAGI FAYLNI BITLI MANTIQUIY AMALLAR YORDAMIDA SHIFRLASH VA DESHIFRLASH

Medatov Asilbek Abduvaliyevich

Andijon davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,

Azimjonov Jahongir

Andijon davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi, PhD,

Annotatsiya. Ushbu maqolada Python dasturlash tili yordamida bitli razryadli amalni qo'llagan holda matn faylini shifrlash va deshifrlash masalasi ko'rib o'tilgan. Matn faylini shifrlash va deshifrlash uchun zarur bo'lgan operatorlar, matn faylini o'qish va yozish uchun ochish bilan bog'liq masalalar atroflicha yoritilgan. Taklif etilgan usul, o'zining soddaligiga qaramay, shifrlashning asosiy tushunchalarini o'zida mujassamlashtiradi va talabalarga algoritmlarni tushunish va dasturlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada bitli mantiqiy amallarning mohiyati, matnli fayllar bilan ishlash, shifrlash va deshifrlash algoritmi hamda uning Python dasturida amalga oshirilishi batafsil tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Bitli mantiqiy amallar, Python funksiyalari, surish, funksiya yaratish, matn fayli, sikl, kalit, shifrlash, deshifrlash.

ШИФРОВАНИЕ И ДЕШИФРОВАНИЕ ТЕКСТОВЫХ ФАЙЛОВ С ПОМОЩЬЮ БИТОВЫХ ЛОГИЧЕСКИХ ОПЕРАЦИЙ

Медатов Асилбек Абдувалиевич

Доцент кафедры информационных технологий Андижанского государственного университета, кандидат педагогических наук

Азимжонов Джахонгир

Старший преподаватель кафедры информационных технологий Андижанского государственного университета, PhD

Аннотация. В данной статье рассматривается задача шифрования и дешифрования текстового файла с использованием побитовых операций на языке программирования Python. Подробно освещены операторы, необходимые для шифрования и дешифрования текстового файла, а также вопросы, связанные с его чтением и записью. Предложенный метод, несмотря на свою простоту, включает в себя основные концепции шифрования и помогает студентам развивать навыки понимания алгоритмов и программирования. В статье подробно анализируется суть побитовых логических операций, работа с текстовыми файлами, алгоритм шифрования и дешифрования, а также его реализация на языке Python.

Ключевые слова: Битовые логические операции, функции Python, сдвиг, создание функции, текстовый файл, цикл, ключ, шифрование, дешифрование.

ENCRYPTION AND DECRYPTION OF TEXT FILES USING BITWISE LOGICAL OPERATIONS

Medatov Asilbek Abduvaliyevich

Associate Professor, Department of Information Technologies, Andijan State University,

Abstract. This article presents the problem of encrypting and decrypting a text file using bitwise operations with the Python programming language. It thoroughly covers the operators necessary for encrypting and decrypting a text file, as well as issues related to opening it for reading and writing. The proposed method, despite its simplicity, embodies the fundamental concepts of encryption and helps students develop their understanding of algorithms and programming skills. The article provides a detailed analysis of the essence of bitwise logical operations, working with text files, the encryption and decryption algorithm, and its implementation in the Python programming language.

Keywords: Bitwise logical operations, Python functions, shifting, function creation, text file, loop, key, encryption, decryption.

KIRISH

Zamonaviy axborot asrida, ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligi masalalari har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar va internet orqali axborot almashinuvi shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, ma'lumotlarni himoya qilish zarurati yanada keskinlashmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarining 610 000 - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilim sohaslarining yo'nalishlarida zamonaviy dasturlash tillarining biri va axborot xavfsizligiga oid fanlar o'qitiladi. Dasturlash fanidagi bitli mantiqiy amallar (AND, OR, NOT, XOR) mavzusi ma'lumotlarni shifrlash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Dasturlash fanida ushbu mavzuni o'qitish, talabalarni shifrlashning asosiy tamoyillari bilan tanishtirish, ularning axborot xavfsizligi sohasidagi bilimlarini kengaytirish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu mavzu orqali talabalar zamonaviy dasturlash tillarida shifrlash algoritmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalarini egallashadi. Bu esa ularning kelajakda dasturlash va axborot xavfsizligi sohasidagi kompetentligini oshirilishiga, professional faoliyatlariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi bilan birga, axborot xavfsizligi masalalariga e'tiborni kuchaytirish zarurati yanada ortib bormoqda. Tashkilotlar va korxonalar o'z ish faoliyatlarini samarali amalga oshirish maqsadida ma'lumotlarni, xususan fuqarolarga tegishli shaxsiy ma'lumotlarni raqamlashtirish jarayonini qo'llamoqda. Biroq, bu jarayon bilan birga axborotlarga tahdidlar ham ortib bormoqda. Kiberhujumlar, ma'lumotlarning o'g'irlanishi va boshqa turli xil xavflar nafaqat shaxsiy ma'lumotlarimizni, balki tashkilotlar va davlatlar xavfsizligini ham tahdid ostiga qo'ymoqda. Shuning uchun, axborot xavfsizligini ta'minlash va kiber tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurati keskin oshmoqda.

Hukumatimiz tomonidan bu muammoga jiddiy e'tibor qaratilib, axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator qaror va kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu qarorlarda kiberxavfsizlikni kuchaytirish, ta'lim sohasida zamonaviy dasturlarni joriy etish, kriptologiya sohasida ta'lim va ilm-fanni hamda axborotni kriptografik himoyalash milliy tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonlarda oliy ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari asosida kriptologiya sohasiga oid fan dasturlari, darsliklar va boshqa o'quv materi allariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish zarurati ko'rsatib o'tilmaqda [1,2].

Oliy ta'lim muassasalari axborot texnologiyalari yo'nalishlarida o'qitilayotgan „Dasturlash“ fanining asosiy maqsadlaridan biri algoritmlash va dasturlashning asosiy tamoyillarini, tushunchalari, usullari va uslublarini o'rganish bilan bir qatorda olgan bilimlarini

turdosh fanlarga qo'llashni ham o'rgatishgan iborat. „Axborot xavfsizligi“, „Sun'iy intellekt“, „Kompyuter injiniringi“ fanlari algoritmlar va dasturlash tushunchalarining negizida qurilgan bo'lib, fan dasturlari talabalarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tashkilot va muassalarda axborot xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha kompleks ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalalarini qamrab oladi.

“Dasturlash” fani shifrlash algoritmlarini yaratish va amalga oshirishda dasturchilar uchun zarur bo'lgan vositalarni taqdim etadi. Ushbu jarayonda dasturlash tillari yordamida bitli mantiqiy amallarni qo'llash axborotni shifrlashning asosiy mexanizmlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. «Axborot xavfsizligi» fani shifrlashning nazariy asoslarini va axborotni himoya qilish usullarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda kriptografik usullarni qo'llash orqali axborotning maxfiylikni ta'minlaydi. «Kriptografiya asoslari» fani shifrlash va deshifrlash jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlari o'rganishga yordam beradi, bu esa talabalarni zamonaviy axborot tizimlarida xavfsizlikni ta'minlashga tayyorlaydi. Ushbu fanlar bir-birini to'ldirib, talabalar uchun axborotni himoya qilish va uni samarali boshqarish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Shu sababli, ushbu maqolada matn ko'rinishidagi fayllarni bitli mantiqiy amallar yordamida shifrlash va deshifrlash jarayonlari o'rganiladi. Bu jarayonlar orqali dasturlash, axborot xavfsizligi va kriptografiya asoslari fanlarining birgalikda qanday ishlashi va o'zaro aloqadorligi ko'rsatib beriladi.

“Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”da 610000 – Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim yo'nalishlarida “Dasturlash” va “Axborot xavfsizligi” bilan bo'g'liq fanlar o'qitilishi belgilangan [1]. Ushbu yo'nalishlar fan dasturlarining asosiy vazifalaridan biri qaysi dasturlash tili o'qitilishidan qat'iy nazar dasturlash tilini mukammal egallash, axborotni saqlash, uzatish, qayta ishlash, shifrlash, deshifrlash bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rgatishdan iborat.

Bitli mantiqiy amallar va ularning dasturlashdagi ahamiyati “Dasturlash” fanining asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Shunday bo'lsada ushbu mavzuning yoritilishi va tadbiriq doirasiga juda kam ahamiyat beriladi.

Dasturlashda mantiqiy ifodalar (muloxazalar) ustida bajariladigan mantiqiy amallardan tashqari alohida butun sonli bitlar ustida bajariladigan mantiqiy amallar guruhi mavjud. Bunday amallar guruhi bitli mantiqiy amallar deyiladi. Ular dasturlash va informatika sohasida ko'plab algoritmlar va ma'lumotlar tuzilmalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bitli amallardan foydalanish dastur kodini optimallashtirish va kompyuter resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Python dasturlash tilida bitli amallardan satr ko'rinishidagi ma'lumotlarni ikkili kodga o'zgartirishda zarur bo'lgan kriptografik algoritmlar bilan ishlashda, shuningdek, sonlar, tasvirlar, tovush, tarmoqda ma'lumotlar almashinuvida va boshqa ko'plab sohalarda ishlatiladi [3-10].

Python dasturlash tili bitli mantiqiy amallar bilan ishlash uchun qulay vositalarni taqdim etadi. Ushbu maqolada bitli amallarni qanday amalga oshirishni, ularning qanday ishlashini va Python dasturlash tilida amalga oshirilishi misollar yordamida ko'rib o'tiladi.

Python dasturlash tilida butun sonlar ustida bitli mantiqiy amallar bajariladi. Bunda sonning har bir biti alohida ko'riladi. Bitli amallarda har bir qo'shiluvchi (operand) ikkili razryad (bit) lar ketma-ketligi ko'rinishida ko'rib o'tiladi. Ushbu razryadlar ustida bitli va(&), yoki(|), istisnoli yoki(^), inkor(~) va bitli chapga surish (<<), bitli o'ngga surish (>>) kabi amallari bajariladi.

Dasturlash tilida bir-nechta bitli amallar bo'lib ularning qiymatlari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

x	y	~x	x & y	x / y	x ^ y
1	1	0	1	1	0
1	0	0	0	1	1

0	1	1	0	1	1
0	0	1	0	0	0

Python tilida bitlar ustida amallar

Berilgan sonlar ustida bitli amallar quyidagicha bajariladi:

Masalan, $a = 9$, $b = 3$ bo'lsa, $9 \& 3 = 1$, $9 | 3 = 11$, $9 \wedge 3 = 10$ bo'ladi. Bu hollarda har bir operand ikkili sanoq sistemasiga o'tkaziladi va jadval asosida har bir bit ustida mos amallar bajariladi. Hosil bo'lgan son o'nli sanoq sistemasiga o'tkaziladi. Masalan, 15 soni ikkilida 1111 ga, 3 soni 101 ga teng bo'agi. Ular ustida bitli va (&) amalini tadbiiq etsak, 101 soniga teng bo'ladi. Bu son o'nli sanoq sistemasida 3 ga teng bo'ladi. Demak, $15 \& 3 = 3$.

&	1	1	1	1
	0	1	0	1
	0	1	0	1

Shu kabi boshqa amallar ham bajariladi.

Yuqoridagi amallarni belgili kattaliklarga ham tadbiiq qilishimiz mumkin. Buning uchun berilgan belgilarning ASCII dagi mos o'nli kodi olinadi va ular orasida bitli mantiqiy amal qo'llaniladi. Natijada bitli amal qo'llangan son hosil bo'ladi. Agar shu songa mos keluvchi belgi kerak bo'lsa, uni chr() funksiyasi orqali belgiga aylantirish mumkin. Masalan, a belgisining ASCII dagi o'nli kodi 97 (0110 0001) ga, t ning o'nli kodi 116 (0111 0100) bo'lganligi uchun, $a \wedge b = 21$ (0001 0101) ga teng bo'ladi.

Chapga (<<) yoki ong tomonga (>>) surish amallari ham bitli mantiqiy amallarda alohida ahamiyat kasb etadi [5-9].

Bitli chapga surishda barcha bitlar ko'rsatilgan sondagi pozitsiyaga suriladi va surish natijasidagi bo'sh joylar no'llar bilan to'ldiriladi. Masalan, $5 \ll 1$ (4 soni ikkilida 0101 ga teng) ifodaning qiymati 1010 ga teng bo'ladi, u onlik sanoq sistemasida 10 ga teng. Ya'ni $5 \ll 1 = 10$. Yuqoridagi kabi ong tomonga 1 xonaga surishda $5 \gg 1 = 2$ ga teng bo'ladi.

Bitlarni siljitish amallari kompyuterda ma'lum bir sonni tezda ko'paytirish yoki bo'lish uchun samarali usuldir.

Bitlarni chapga siljitish (<<) operatori sonning bitlarini chap tomonga siljitadi va bu orqali sonni 2 ning n darajasiga ko'paytiradi. Ya'ni a << 1 ning natijasi a ni 2 ga ko'paytirilishini, a << 2 esa a ni 4 ga ko'paytirilishini bildiradi va x.k. Masalan, agar a = 3 bo'lsa (ikkilida 0000 0011), a << 3 ning natijasi 24 ga teng bo'ladi, ya'ni a soni 2 ning 3 darajasi 8 ga ko'paytiriladi. Haqiqatdan, 0000 0011 sonining bitlarini 3 xona chapga surilganda u 0001 1000 ga teng bo'lib, ushbu son o'nlikda 24 ga teng. Agar berilgan a sonini 3 ga ko'paytirish zarur bo'lsa, uni bir xona chapga surib, natijaga shu sonni qo'shish kifoya. Demak, $a * 3 = (a \ll 1) + a$.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bitlarni o'ng tomonga surish berilgan sonni 2 ning darajalari bo'yicha bo'lishni bildiradi.

Shifrlash masalasiga o'tishdan oldin Python dasturlash tilining ayrim funksiyalari bilan tanishib otamiz:

1. len() - satr uzunligini qaytaruvchi funksiyasi, masalan x=»Axborot texnologiyalari» bo'lsa, len(x) 23 ga teng bo'ladi.
2. ord() - belgini butun kodlash tizimidagi songa aylantiradi, masalan, ord('h') funksiyasi 104 sonini qaytaradi.
3. chr() - o'nli kodiga mos bo'lgan ASCII dagi belgini qaytaradi, masalan chr(104) funksiyasi 'h' belgisini qaytaradi.
4. str() - ob'yekt turini string (mant) turiga o'zgartiradi, masalan str(62.13) funksiyasi 62.13 haqiqiy sonni '62.13' matn turiga o'zgartiradi.
5. append() – funksiyasi ro'yxat oxiriga element qo'shishni ta'minlaydi, masalan:

```
mevalar = [«olma», «gilos», «shaftoli», «bexi»]
mevalar.append(«uzum»)
print(mevalar)
Natija: ['olma', 'gilos', 'shaftoli', 'bexi', 'uzum']
```

6. Shifrlashda matn faylni o'qish uchun ochish (xotiraga yuklash) yoki tazkor xotiradagi matn faylini fayl ko'rinishida saqlash kerak bo'ladi. Buning uchun Pythondagi open metodidan foydalaniladi. Uning sintaksisi open(file {, mode='r', encoding=None}) dan iborat. Bunda, file – fayl yo'li nomi bilan, mode - faylga murojaat rejimi, encoding – fayl kodirovkasi. Faylga murojaat rejimida 'r' yozilsa fayl o'qish uchun ochiladi, 'w' yozilsa, yangi fayl yaratiladi yoki mavjud fayl ustiga yoziladi. Yuqoridagi tushunchalar asosida Python tilda matn fayllarini shifrlash va deshifrlash masalalarini ko'rib chiqish mumkin [7,8].

NATIJA VA MUHOKAMA

Matn faylini shifrlashda simmetrik shifrlash algoritmidan foydalanilgan bo'lib, matn kalit orqali shifrlanadi va shifrlangan matn shu kalit orqali deshifrlanadi.



1-rasm. Kalit yordamida shifrlash va deshifrlash

Shifrlash va deshifrlashning asosiy algoritmi quyidagidan iborat:

- kalit so'zini kiritish;
- shifrlash (deshifrlash) uchun shifrlanishi zarur bo'lgan matn (shifrlangan matn) ni faylidan o'qish va har bir belgining ASCII kodini (ord) funksiyasi yordamida aniqlash;
- har bir belgining ASCII kodiga kalit so'zidagi mos belgining ord() funksiyasi yordamida aniqlangan o'nli kodini XOR amalini qo'llash orqali yangi son hosil qilish;

Shifrlash va deshifrlash



2-rasm. Shifrlash va

- hosil qilingan har bir sonni chr() funksiyasi yordamida belgiga aylantirish;
- shunday qilib, matn (shifrlangan matn)ning har bir belgisi kalitning mos belgilari yordamida kodlanadi va hosil qilingan belgilar ketma-ket oraliq faylda saqlanadi;
- shifrlashda oraliq faylni yangi nom bilan xotiraga olish;
- deshifrlashda shifrlangan matn faylining deshifrlash natijasida yaratilgan oraliq faylni yangi nom bilan xotiraga olish.

Shifrlash va deshifrlash jarayonini sxematik ko'rinishida quyidagicha tasavvir qilish mumkin:

Bitli amallar yordamida matn fayllarini shifrlash va deshifrlashning bir necha usullari mavjud. Har bir usulning o'z afzalliklari va kamchiliklari bo'lishi mumkin. Biz quyida bitli amallardan biri bo'lgan **XOR (^)** amali yordamida matn.txt faylni kalit orqali shifrlab uni sh_matn faylida saqlash va keyin shifrlangan sh_matn faylini **kalit** yordamida deshifrlab, deshifrlangan_matn fayliga saqlash masalasi bilan tanishib o'tamiz.

Dastur asosan ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi xor_shifrlash funksiyasi shifrlash va de-

shifrlash uchun umumiy bo'lib, matn faylini shifrlash va deshifrlash uchun xizmat qiladi.

1. xor_sh_deshifrlash funksiyasi.

Ushbu funksiya berilgan matn va kalitni qabul qiladi va bitli XOR (^) amali yordamida shifrlangan (deshifrlangan) matn yaratadi. Bunda kalit so'zining uzunligi matn faylidagi belgilar uzunligidan kichik bo'lishi kerak.

```
def xor_sh_deshifrlash(matn, kalit):
```

Buning uchun xor_sh_deshifrlash nomli furksiya tuzamiz va uning parametri sifatida matn va kalit o'zgaruvchilarini olamiz. Ular shifrlanadigan (deshifrlanadigan) matn va shifrlash uchun kalit sifatida ishlatiladi.

```
sh_d_matn = []
```

Shifrlanadigan (deshifrlanadigan) belgilarni ketma-ket saqlash uchun sh_d_matn nomli bo'sh ro'yxat yaratib olamiz.

```
for i in range(len(matn)):
```

for sikl operatori yordamida shifrlanadigan (deshifrlanadigan) matn uzunligi aniqlanadi va matnning i-chi belgisidan boshlab matn uzunligigacha bo'lgan raqamlar ketma-ketligini yaratamiz.

```
belgi = chr(ord(matn[i]) ^ ord(kalit[i % len(kalit)]))
```

- ord(matn[i]) matndagi i-chi belgisining ASCII kodini (yoki Unicode kodini) qaytaradi.

- kalit[i % len(kalit)]: Bu yerda kalitning har bir belgisini olish uchun kalitning indeksi hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, kalit uzunligi matn faylidagi belgilar sonidan kichik bo'lishi zarur, chunki kalit indeksiga murojat qilinganda sikl parametri i ning qiymati kalit uzunligidan ortib ketmasligi kerak. Shuning uchun sikl parametri i ni kalit uzunligiga bo'lishdan hosil bo'lgan qoldiq hamisha kalit uzunligidan kichik bo'lib, kalitdagi belgilarni ketma-ket aylantirish imkonini beradi. Masalan, i = 15 bo'lsa, kalit uzunligi 6 ga teng bo'lsa, i % 6 = 3 bo'ladi. Bunday sonlar ketma-ketligi 0 da 6 gacha o'zgarib, 6 dan katta bo'lmaydi.

- ^ (XOR operatori) matnning har bir belgisining o'nli kodi bilan kalit so'zidagi ketma-ket aniqlanadigan belgining o'nli kodini yuqoridagi jadval asosida taqqoslaydi.

- chr() funksiyasi hosil bo'lgan ASCII yoki Unicode kodini belgi sifatida qaytaradi va ushbu belgi sh_d_matn ro'yxatiga qo'shiladi.

```
sh_d_matn.append(belgi)
```

- .append() metodi avvaldan yaratilgan sh_d_matn ro'yxatiga yangi hosil qilingan elementni (belgini) ketma-ket qo'shib boradi.

```
return "".join(sh_d_matn)
```

- "".join(sh_d_matn) ro'yxatdagi belgilarni birlashtirib, bitta string (matn) hosil qiladi. Aniqroq qilib aytganda, sh_d_matn ro'yxat bo'lib, hosil qilingan barcha belgilar bir biridan vergullar orqali ajratilib bitta stringga aylantiriladi. Join metodi string ob'yektining metodi bo'lib, shu ajratib yozilgan belgilarni birlashtirib matn shakliga o'tkazib beradi. Masalan, sh_d_matn = ['S', 'a', 'l', 'o', 'm'] bo'lsa, uni "Salom" so'ziga aylantiradi.

- return funksiyadan natijani qaytarish uchun ishlatiladi. return "".join(sh_d_matn) satri funksiyaning natijasi sifatida sh_d_matn ro'yxatidagi barcha elementlarni birlashtirib hosil qilingan stringni qaytaradi.

2. main() funksiyasi.

Ushbu funksiya bir necha qismlardan iborat bo'lib, avvalo kalit so'zini kiritishni so'raydi. So'ngra matn faylini shifrlash yoki deshifrlash uchun 1 (shifrlash) yoki 2 (deshifrlash)

sonlarini kiritishni so'raydi. Kiritilgan raqamlarga qarab, dastur shifrlash yoki deshifrlash qismiga o'tkaziladi.

```
k1 = input(«Kalitni kiriting: «)
```

- foydalanuvchidan kalitni klaviatura orqali kiritishni so'raydi. Kiritilgan kalit k1 ga o'zlashtiriladi.

```
sh_d = input(«Shifrlash (1) yoki deshifrlash (2)ni tanlang: «)
```

Dasturning shifrlash va deshifrlash qismidagi operatorlar mazmuni va algoritmi deyarli o'xshash bo'lganligi uchun maqolada dasturning avvalo shifrlash qismi bilan tashib o'tamiz.

Matn faylini shifrlash.

```
with open('matn.txt', 'r', encoding='UTF-8') as f:
```

```
    m1 = f.read()
```

- matn.txt faylidan matnni o'qiydi va matnni vaqtinchalik m1 o'zgaruvchisida saqlaydi.

```
sh_matn = xor_sh_deshifrlash(m1, k1)
```

- olingan matn faylidan olingan nusxa m1 va klaviatura orqali kiritilgan k1 kalitni parametr sifatida birinchi funksiyaga uzatilib, xor_sh_deshifrlash funksiyasi yordamida shifrlash ta'minlanadi. Olingan natija sh_mant o'zgaruvchisida saqlanadi.

```
with open('shifrlangan_matn.txt', 'w', encoding = 'UTF-8') as f:
```

```
    f.write(sh_matn)
```

```
print(«Matn shifrlanib, 'shifrlangan_matn.txt' fayliga saqlandi.»)
```

- shifrlangan matn shifrlangan_matn.txt faylida saqlanadi va foydalanuvchiga natija haqida xabar beradi.

Shifrlangan matnni deshifrlash.

Quyidagi dastur shifrlangan matnni kalit yordamida deshifrlashni amalga oshiradi. Dastur kodi shifrlash dasturining kodiga o'xshash bo'lib, undan biroz farq qiladi. Dastur qismlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- shifrlangan_matn.txt faylidan shifrlangan matn o'qiladi va oraliq d_matn faylida saqlanadi;

- d_matn matni va k1 kalitni parametrlar sifatida birinchi xor_sh_deshifrlash funksiyasiga uzatadi va shifrlangan_matn kalit yordamida deshifrlanadi;

- deshifrlangan matn deshifrlangan_matn.txt fayliga yoziladi.

Deshifrlashda xor_sh_deshifrlash funksiyasi shifrlangan matn faylining har bir elementi va kalit orqali berilgan so'zidagi mos elementiga XOR bitli amali tadbir qilinadi. Natijada yana matn belgilari asli holiga qaytariladi, yani deshifrlanadi.

Dasturdagi shifrlash va deshifrlash algoritmining asosiy g'oyasi quyidagicha:

- Shifrlash jarayonida matn faylidagi birinchi belgining ASCII kodiga kalitdagi mos belgining ASCII kodini XOR amali yordamida qo'llaniladi. Ushbu amaldan olingan son ASCII da mos keladigan belgiga aylantiriladi va oraliq faylda saqlanadi. So'ngra matn faylidagi barcha belgilar shu usulda kodlanib, oraliq faylda ketma-ket saqlanib boriladi. Matndagi barcha belgilar shifrlanib bo'lganidan so'ng, oraliq fayl boshqa nom bilan shifrlangan fayl shaklida saqlanadi

- deshifrlash algoritmi ham shu kabi amalga oshiriladi. Faqat deshifrlashda shifrlangan matn faylidagi belgilar bilan kalitdagi mos belgilar ustida yuqoridagi kabi amallar bajariladi.

Yanada soddaroq aytganda shifrlashda matndagi "A" belgisi kalitdagi "t" belgi orqali XOR amali yordamida shifrlanishi natijasida "5" belgisi hosil bo'ldi. Boshqacha aytganda:

```
belgi = chr(ord('A') ^ ord('t'))  
print (belgi) # 5
```

Deshifrlashda yuqoridagi kabi ketma-ketlik bajariladi. Bunda shifrlangan '5' belgisiga yana kalitdagi 't' belgi bilan XOR amali qo'llanilsa, natija 'A' ga aylanadi.

```
d_b = chr(ord('5') ^ ord('t'))  
print(d_b) # A
```

Shifrlash va deshifrlash dasturining to'la ko'rinishi quyidagidan iborat.

```
def xor_sh_deshifrlash(matn, kalit):  
    sh_d_matn = []  
  
    for i in range(len(matn)):  
        # XOR ni har bir belgiga va kalitga tadbiiq qilamiz  
        belgi = chr(ord(matn[i]) ^ ord(kalit[i % len(kalit)]))  
        sh_d_matn.append(belgi)  
  
    return ''.join(sh_d_matn)  
  
def main():  
    # Kalitni kiritish  
    k1 = input(«Kalitni kiriting: «)  
  
# Foydalanuvchidan shifrlash yoki deshifrlashni so'rash  
    sh_d = input(«Shifrlash (1) yoki deshifrlash (2)ni tanlang: «)  
  
    if sh_d == '1':  
        # Matn faylini o'qish uchun ochish  
        with open('matn.txt', 'r', encoding='UTF-8') as f:  
            m1 = f.read()  
  
        # Matnni shifrlash  
        sh_matn = xor_sh_deshifrlash(m1, k1)  
  
        # Shifrlangan matnni faylga yozish  
        with open('shifrlangan_matn.txt', 'w', encoding='UTF-8') as f:  
            f.write(sh_matn)  
  
        print(«Matn shifrlanib, 'shifrlangan_matn.txt' fayliga saqlandi.»)  
  
    elif sh_d == '2':  
        # Shifrlangan matn faylini o'qish uchun ochishi  
        with open('shifrlangan_matn.txt', 'r', encoding='UTF-8') as f:  
            d_matn = f.read()  
  
        # Matnni deshifrlash  
        deshifrlangan_matn = xor_sh_deshifrlash(d_matn, k1)  
  
        # Deshifrlangan matnni faylga yozish
```

```
with open('deshifrlangan_matn.txt', 'w', encoding='UTF-8') as f:  
    f.write(deshifrlangan_matn)
```

```
print(«Matn deshifrlanib, 'deshifrlangan_matn.txt' fayliga saqlandi.»)
```

```
else:
```

```
    print(«Noto'g'ri tanlov. Iltimos, 1 yoki 2 ni tanlang.»)
```

```
if __name__ == «__main__»:  
    main()
```

Dastur so'ngidagi ushbu satr:

```
if __name__ == «__main__»:  
    main()
```

dastur ishga tushirilganda bevosita main() funksiyasini chaqirilishini ta'minlaydi. Agar modul sifatida import qilinsa, main() chaqirilmaydi.

XULOSA

Bitli amallar dasturlashda juda muhim vositalardan biridir. Ular raqamlar va ma'lumotlar ustida samarali ishlov berish imkonini beradi. Python dasturlash tilida bitli amallarni bajarish juda qulay va samaralidir, bu esa dasturchilar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada keltirilgan misollar va tushunchalar bitli amallarning matn fayllarini shifrlash va deshifrlashdagi ahamiyatini, dasturlashning turli ko'rinishdagi masalalarga tadbirlarini, funksiyalar va fayllar bilan ishlashni yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu dastur kodidan shifrlash va deshifrlashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan XOR (^) amalining o'rniga boshqa bitli amallarni qo'llash orqali yangi dasturlarni yaratish va tekshirib ko'rish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori" O'zbekiston Respublikasining davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2023-yil 26-iyuldagi 327-son buyrug'i. Elektron resurs <https://lex.uz/docs/-6581469>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-293-son Qarori. Elektron resurs <https://lex.uz/ru/docs/-7067656>
3. Ganiyev S.K., Ganiyev A.A, Xudoyqulov Z.T. Kiberxavfsizlik asoslari: O'quv qo'llanma. – T.: Aloqachi, 2020. - 303 b.
4. Heidilyn, V. Gamido. Implementation of a bit permutation-based advanced encryption standard for securing text and image files. Indonesian Journal of Electrical Engineering and Computer Science. Vol.19, No.3, September 2020, pp. 1596-1601
5. Дауни Аллен. Основы Python. Научитесь думать как программист / Аллен Б. Дауни; пер. с англ. С. Черникова ; [науч. ред. А. Родионов]. - Москва : Манн, Иванов и Фербер, 2021. - 304 с.
6. Ziad Alqadi, Dr Mohamad S. Khrisat. Analysis of text files encryption-decryption methods. International Journal of Engineering Technology Research & Management. Vol-05 Issues 03, March-2021, pp.48-54.

7. Medatov A.A. Python dasturlash tili: Darslik. – Andijon, Omadbek print number onell MChJ., 2024. –290 b.
8. Medatov A.A., Tursunov S.Q. Kompyuterlarning arifmetik va mantiqiy asoslari:Uslubiy qo'llanma. – T.: “Zuxra baraka biznes” MChJ, 2020. – 92 b.
9. Noor Sattar Noor, Dalal Abdulmohsin Hammood, Ali Al-Naji and Javaan Chahl. A Fast Text-to-Image Encryption-Decryption Algorithm for Secure Network Communication. Computers. 2022, vol. 11, No. 3, article no. 39. Pp. 1 of 16 – 16 of 16.
10. Свейгарт, Эл. Криптография и взлом шифров на Python. : Пер. с англ. - СПб. : ООО» Диалектика», 2020. - 512 с. - Парал. тит. англ.



РАЗВИТИЕ АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ПЕДАГОГОВ: ТЕОРЕТИКО-ПРАКТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Хубиева Камилла Рафаэльевна

Национальный педагогический университет Узбекистана им. Низами, преподаватель кафедры Информатика и методика ее преподавания

Аннотация. В условиях цифровизации и постоянных изменений в сфере образования возрастает значение аналитической компетенции педагогов как ключевого элемента профессиональной подготовки и непрерывного развития. В статье представлены основные подходы и методы формирования аналитической компетентности педагогов, включая технологии рефлексивного анализа, работу с данными учебной аналитики, кейс-методы, методику критического мышления. На основе обзора современных исследований и эмпирических данных выделены эффективные стратегии внедрения этих методов в образовательную практику.

Ключевые слова: аналитическая компетенция, педагог, профессиональное развитие, рефлексия, учебная аналитика, критическое мышление, образовательные технологии.

O'QITUVCHILAR O'RTASIDA ANALITIK KOMPETENTSIYANI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV

Xubiyeva Kamilla Rafaelyevna

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Nizomiy, Informatika kafedrasida o'qituvchisi va uni o'qitish metodikasi

Annotatsiya. Raqamlashtirish va ta'lim sohasidagi doimiy o'zgarishlar sharoitida o'qituvchilarning analitik kompetentsiyasining kasbiy tayyorgarlik va uzluksiz rivojlanishning asosiy elementi sifatida ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada o'qituvchilarning analitik kompetentsiyasini shakllantirishning asosiy yondashuvlari va usullari, shu jumladan refleksiv tahlil texnologiyalari, o'quv tahlillari ma'lumotlari bilan ishlash, amaliy usullar, tanqidiy fikrlash metodologiyasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: analitik kompetentsiya, o'qituvchi, kasbiy rivojlanish, aks ettirish, o'quv tahlillari, tanqidiy fikrlash, ta'lim texnologiyalari.

DEVELOPMENT OF ANALYTICAL COMPETENCE AMONG TEACHERS: THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACH

Khubieva Kamilla Rafaelievna

National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami, lecturer at the Department of Computer Science and its teaching methods

Abstract. In the context of digitalization and constant changes in the field of education, the importance of teachers' analytical competence as a key element of professional training and continuous development is increasing. The article presents the main approaches and methods for the formation of analytical competence of teachers, including technologies of reflexive analysis, working with educational analytics data, case methods, and critical thinking techniques.

Keywords: analytical competence, teacher, professional development, reflection, educational analytics, critical thinking, educational technologies.

В условиях глобальной цифровизации и реализации Стратегии действия Узбекистана на 2022–2026 годы особое значение приобретает повышение аналитической компетенции педагогов как фактор качества образования и цифровой зрелости системы. Принятая 5 октября 2020 года Президентом страны Стратегия «Цифровой Узбекистан — 2030» декларирует задачи по масштабной цифровизации образовательной сферы: подключение населенных пунктов к интернету (с 78 % до 95 %), создание единого электронного пространства, обучение 587 тыс. человек основам программирования, включая один миллион молодых людей в рамках проекта «Один миллион программистов» [1]. В области образования это предполагает оснащение школ ИКТ оборудованием, внедрение электронных журналов, платформ Moodle, Google Classroom и развитие системы учебной аналитики [2].

Параллельно в 2019–2023 гг. реализовалась Стратегия развития профессионального образования и подготовки кадров, где одним из ключевых направлений называется развитие компетентностного обучения и системной поддержки педагогов через цифровые технологии и обучение в рамках международных стандартов, включая рекомендации ЮНЕСКО и Целей в области устойчивого развития, и в частности, цели по обеспечению всеохватывающего и справедливого качественного образования и поощрение возможности обучения на протяжении всей жизни для всех. Особенно это важно в контексте мониторинга качества, формирования компетентностного подхода и оценки учебных результатов.

Согласно исследованию Н. Мадаминовой и С.Р.Хаджихановой, в ходе которого было опрошено 315 учителей Узбекистана, более 80 % считают профессиональное развитие необходимым для повышения эффективности преподавания, но лишь около 45 % регулярно участвуют в соответствующих курсах из-за нехватки времени и ограниченного доступа к курсам повышения квалификации, особенно в отдалённых регионах [3]. UNESCO также поддерживает исследовательский проект «Адаптация и масштабирование подходов к повышению квалификации учителей в Узбекистане», направленный на расширение доступности непрерывного педагогического развития более чем для 500 000 учителей через онлайн модули, наставничество и профессиональные сообщества [4].

Актуальность аналитической компетенции особенно объясняется масштабом образовательной статистики: согласно данным Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, количество учителей в общеобразовательных школах оценивается сотнями тысяч — причём автоматизация сбора и обработки данных реализуется централизованно через программы на уровнях Министерств дошкольного и школьного образования, высшего образования, науки и инноваций, а также Национального комитета Республики Узбекистан по статистике [5].

Таким образом, профессиональное развитие аналитической компетенции педагогов становится необходимым условием реализации национальных стратегий и международных стандартов: от стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» до Рамок UNESCO по целям в области устойчивого развития, через механизм проекта «Адаптация и масштабирование подходов к профессиональному развитию учителей в Узбекистане» и инфраструктуру данных образования. Это требует активного внедрения методов работы с данными, рефлексивного анализа, цифровых инструментов мониторинга и оценки (learning analytics), а также участия в профессиональных сообществах и программах повышения квалификации.

Аналитическая компетентность педагога рассматривается как интегрированная способность, объединяющая:

- умение анализировать, синтезировать и систематизировать педагогические данные;
- формировать диагностические и прогностические выводы;

• принимать обоснованные педагогические решения на основе доказательной базы;

• рефлексировать собственную практику и корректировать методы обучения.

Такой подход соединяет когнитивно-процессуальную и личностно-мотивационную составляющие в структуре профессионализма педагога [6].

Согласно научным исследованиям, ключевые компоненты аналитической компетенции включают:

• теоретико-познавательный компонент — владение знаниями, понятиями и аналитическими методами;

• деятельностный (практический) компонент — применение инструментов анализа, диагностики, прогнозирования и коррекции образовательного процесса;

• рефлексивно-оценочный компонент — способность к самооценке, мотивации и реструктуризации профессионального опыта [7].

Исследователь А.А.Ковшова выделяет аналитико-рефлексивный компонент как ключевой в методической компетентности педагога: умение анализировать динамику развития учащихся, методические документы, прогнозировать эффективность методов и средств обучения [8].

Основные мыслительные операции, характеризующие аналитическую деятельность педагога, это:

• Анализ — деление целостного процесса на составные элементы;

• Систематизация — группировка и упорядочивание информации;

• Синтез — объединение деталей в новое целое;

• Классификация и обобщение — выделение признаков, формирование категорий;

• Абстрагирование — выделение ключевого контекста информации.

И. Ю. Ерофеева и П.Ф. Кравчук описывают аналитические умения, например, как владение навыками диагностики, прогнозирования и теоретического объяснения педагогических явлений [9]. Н.В. Поликарпова определяет аналитическую деятельность педагога как способность к применению аналитических процедур для управления образовательной ситуацией и профессиональной деятельностью [7].

Повышение аналитической компетентности способствует развитию педагогической рефлексии и профессиональной гибкости: учитель «смотрит на урок со стороны», выявляя резервы и зоны роста в своей практике [10].

По мнению исследователей, аналитическая компетентность педагогов входит в состав универсальных профессиональных компетенций и должна быть сформирована у выпускников педагогических вузов, включая навык поиска, критического анализа и синтеза информации.

Согласно подходу ряда авторов, аналитическая компетентность описывается как способность к восприятию целей и задач обучения, анализу обучающих методов, диагностике познавательных и коммуникативных процессов в классе [11].

Среди наиболее распространенных подходов по формированию аналитической компетенции можно выделить рефлексивный, проектный, информационно-аналитический (data driven), технологический и когнитивный подходы.

Рефлексивный подход полагается на теорию «reflection-in-action» Дональда Шёна [12] и показывает, что педагоги, рефлексировав во время урока и после него, систематически собирают доказательства своей практики, что ведёт к улучшению качества преподавания. Исследования Н.Г. Масюковой [13] подтверждают значение аналитико-рефлексивного компонента как части методической компетентности педагога, включающего анализ динамики развития учащихся и методов обучения.

Проектный подход предполагает применение при анализе образовательного процесса различных кейсов, а также ситуационных задач.

George Siemens в рамках информационно-аналитического подхода рассмотрел

исследования, внесшие вклад в развитие технологий и методологий аналитики обучения, аналитических моделей, указал на важность расширения аналитических возможностей организаций и предложил модель внедрения аналитики в образовательную среду [14].

Т.Б. Павлова и Е.А. Ковалева поднимают тему новых информационно-аналитических умений, необходимых педагогам для гибкого управления учебным процессом в цифровой среде. Выделены пять групп умений: сбор, мониторинг, анализ, интерпретация и применение данных образовательных платформ [15].

Технологический подход предполагает использование как различных программ (например, Power BI, MS Excel), а также платформ аналитики (например, Moodle Reports).

Когнитивное ученичество (Cognitive apprenticeship) (Collins, Brown & Newman) [16] акцентирует такие методы, как моделирование, коучинг, фасилитация, артикуляция, рефлексия и самостоятельное исследование. Эти методы развивают как когнитивные, так и метакогнитивные стратегии у педагогов. Например, Phillips, J.A., McElwain, M.C., & Clemmer, K.W. в своем исследовании показали, что метакогнитивная подготовка педагогов, включающую в себя обучение планированию, оценке и корректировке учебной деятельности через рефлексивные практики существенно улучшает успеваемость учащихся и сохраняет эффект в долгосрочной перспективе [17].

Таблица 1

Интегративная модель применения подходов

Подход	Основные методы	Цель/результат
Когнитивный/мета-когнитивный	Моделирование, фасилитация, рефлексия	Формирование стратегий анализа и саморегуляции
Рефлексивный	Рефлексия-in-action, са-мооценка, анализ опыта	Усиление сознательной аналитики педагогической практики
Деятельностный	Тестовые задачи, кейсы, проектные задания	Освоение аналитических форм и инструментов
Проблемно-ориентированный	Ситуация ориентированные задания	Развитие критического мышления и решения проблем
Социокультурный / личностно ориентированный	Наставничество, индивидуализация	Развитие мотивации и аналитической идентичности
Информационно-аналитический	Работа с учебной аналитикой, цифровыми данными	Владение инструментами data-driven образования

Примером интеграции этих подходов является трехэтапная методика [15] развития аналитической компетенции: обучение начинается с базового знакомства с учебной аналитикой, затем адаптация через кейсы и анализ учебных ситуаций, и завершается формированием транспрофессиональных компетенций — способность принимать решения и управлять образовательным процессом на основе данных.

Эти подходы можно комбинировать при разработке программ повышения квалификации. Например:

- модуль с refl practice и cognition apprenticeship для совершенствования

рефлексии и стратегического мышления;

- использование problem-based кейсов на основе реальных данных учащихся;
- интеграция data driven training и рефлексивных практик в рамках профессиональных сообществ.

Таким образом, аналитическая компетенция становится ключевым компонентом профессиональной идентичности современного педагога. Ее развитие требует системного подхода, включающего теоретическую подготовку, практико-ориентированное обучение и цифровую поддержку. Предложенные методы могут быть использованы при проектировании программ повышения квалификации, магистерских курсов и внутришкольного методического сопровождения.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 05.10.2020 г. № УП-6079
2. Education Sector Plan (ESP) of Uzbekistan 2019-2023
3. Mamadaminova N., Khadjikhanova S. (2024). Navigating continual progress: Insights into teacher professional development in Uzbekistan. *Kwartalnik Pedagogiczny*. 123-144. 10.31338/2657-6007.kp.2023-4.7.
4. <https://www.unesco.org/en/articles/adapting-and-scaling-teacher-professional-development-approaches-uzbekistan-research-project?utm>
5. Makhmudov A., Tojiboev R. Education Statistics in Uzbekistan: current state, challenges, and trends in advancement. *Bulletin of the Technical Committee on Learning Technology* (ISSN: 2306-0212), Volume 25, Number 1, 2025. - 26-34 p.
6. Тимонин А.Н. Теоретические аспекты готовности будущего педагога к аналитической деятельности // Изв. Саратов. ун-та Нов. сер. Сер. Философия. Психология. Педагогика. 2024. №1. – С. 107-111.
7. Поликарпова Н.В. Аналитическая деятельность педагога в условиях введения профессионального стандарта // Научно-методическое обеспечение оценки качества образования. 2016. №1 (1).
8. Ковшова А.А. Методическая компетентность педагога: анализ подходов, понятие, структурные компоненты // Концепт. 2022. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskaya-kompetentnost-pedagoga-analiz-podhodov-ponyatie-strukturnye-komponenty>.
9. Характеристика аналитической деятельности педагогов ДОО https://studopedia.ru/26_18385_harakteristika-analiticheskoy-deyatelnosti-pedagogov-doo.html
10. Васильева Е.М. Аналитическая деятельность учителя. Повышение качества образования <https://multiurok.ru/files/analiticheskaja-deiatelnost-uchitelja-povyshenie-k.html>
11. Agarov A.M., Mysina T.Yu. The Relationship of Subject-Methodological Skills, Analytical and Communicative Competencies of Pedagogical Students. *European Proceedings of Educational Sciences EpES, The Fourth Annual International Symposium "Education and City: Quality Education for Modern Cities"*, 22 April 2022
12. Donald A. Schön *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. - Routledge, 2017. – 384 p.
13. Масюкова Н.Г. Развитие методической компетентности учителя в процессе повышения квалификации с использованием дистанционных образовательных технологий / Монография. – Ставрополь: СКИРО ПК и ПРО, 2018 г. – 216 с
14. Siemens, George. (2013). *Learning Analytics The Emergence of a Discipline*.

American Behavioral Scientist. 57. 1380-1400. 10.1177/0002764213498851.

15. Павлова Т. Б., Ковалева Е. А. Новые информационно-аналитические умения педагога в педагогическом управлении образовательным взаимодействием в цифровой образовательной среде // Kant. 2023. №3 (48).

16. Collins, A., Brown, J. S., & Newman, S. E. (1987). Cognitive apprenticeship: Teaching the craft of reading, writing and mathematics (Technical Report No. 403). BBN Laboratories, Cambridge, MA. Centre for the Study of Reading, University of Illinois. January, 1987.

17. Phillips, J.A., McElwain, M.C., & Clemmer, K.W. (2016). Metacognitive Training in Professional Development Can Improve and Sustain Student Achievement. arXiv: Physics Education.

TALABALARNING VOLONTYORLIK FAOLIYATI - ALOHIDA EHTYOJLI BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING YANGI IMKONIYATI

Qodirova Feruzaxon Usmanovna
Professor, p.f.d.(DSc)

Pulatova Dilfuza Azamkulovna
O'qituvchi

Toshpo'latova Odina Ixtiyor qizi
Talaba
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotaziya: maqolada O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish jarayonida talabalarning volontyorlik faoliyatining ahamiyati tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim barcha bolalar, ayniqsa alohida ehtiyojli bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo'lib, talabalar bu jarayonda jamiyat va ta'lim o'rtasida muhim ko'priq vazifasini bajaradi. Xalqaro va mahalliy tajribalar asosida volontyorlik faoliyatining alohida ehtiyojli bolalarni ta'lim jarayoniga jalb qilishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada psixologik ta'sir, raqamli texnologiyalardan foydalanish, ijtimoiy-korporativ hamkorlik modeli va mahalliy jamoalar bilan hamkorlik kabi hali yetarlicha o'rganilmagan yo'nalishlar tahlil etiladi. Muallif volontyorlik faoliyati bolalarning psixologik holatini yaxshilash, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishda katta imkoniyatlar berishini ta'kidlaydi. Shuningdek, volontyorlik faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha psixologik tadqiqotlar, raqamli resurslardan foydalanish, korporativ sektor bilan hamkorlik va mahalliy jamoalar bilan integratsiyani kuchaytirish kabi takliflar ilgari suriladi. Ushbu yondashuvlar inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish va alohida ehtiyojli bolalarning jamiyatga to'laonli integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, volontyorlik, talaba, alohida ehtiyojli bolalar, raqamli texnologiya, ijtimoiy hamkorlik, mahalliy jamoa.

СТУДЕНЧЕСКОЕ ВОЛОНТЕРСТВО – НОВАЯ ВОЗМОЖНОСТЬ ПОВЫСИТЬ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВОВЛЕЧЕНИЯ ДЕТЕЙ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Кадирова Ферузахон Усмановна
Профессор, доктор педагогических наук

Пулатова Дильфуза Азамкуловна
Преподаватель

Ташпулатова Одина дочь Ихтиёра
Студентка
Чирчикский государственный педагогический университет

Аннотация: В статье анализируется значение студенческого волонтерства в процессе развития инклюзивного образования в Узбекистане. Инклюзивное образование направлено на создание равных возможностей для всех детей,

особенно детей с особыми потребностями, и студенты в этом процессе выступают важным связующим звеном между обществом и образованием. На основе международного и местного опыта рассматривается роль волонтерства в вовлечении детей с особыми потребностями в образовательный процесс. В статье анализируются такие недостаточно изученные направления, как психологическое воздействие, использование цифровых технологий, модели социально-корпоративного взаимодействия, взаимодействие с местными сообществами. Автор подчёркивает, что волонтерство предоставляет большие возможности для улучшения психологического состояния детей, укрепления социальной интеграции и внедрения инновационных подходов в образовательный процесс. Также предлагаются пути дальнейшего развития волонтерства, такие как проведение психологических исследований, использование цифровых ресурсов, сотрудничество с корпоративным сектором и усиление интеграции с местными сообществами. Эти подходы будут способствовать повышению эффективности инклюзивного образования и обеспечению полноценной интеграции детей с особыми потребностями в общество.

Ключевые слова: инклюзивное образование, волонтерство, студент, дети с особыми потребностями, цифровые технологии, социальное сотрудничество, местное сообщество.

STUDENT VOLUNTEERING – A NEW OPPORTUNITY TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF INVOLVING CHILDREN WITH DISABILITIES IN INCLUSIVE EDUCATION

Kadirova Feruzakhon Usmanovna

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences

Pulatova Dilfuza Azamkulovna

Teacher

Tashpulatova Odina daughter of Ikhtiyor

Student

Chirchik State Pedagogical University

Abstract: The article analyzes the importance of student volunteering in the process of developing inclusive education in Uzbekistan. Inclusive education is aimed at creating equal opportunities for all children, especially children with special needs, and students in this process act as an important link between society and education. Based on international and local experience, the role of volunteering in involving children with special needs in the educational process is examined. The article analyzes such understudied areas as psychological influence, the use of digital technologies, models of social and corporate interaction, and interaction with local communities. The author emphasizes that volunteering provides great opportunities for improving the psychological state of children, strengthening social integration and introducing innovative approaches to the educational process. It also suggests ways to further develop volunteering, such as conducting psychological research, using digital resources, collaborating with the corporate sector and strengthening integration with local communities. These approaches will help to improve the effectiveness of inclusive education and ensure the full integration of children with special needs into society.

Key words: inclusive education, volunteering, student, children with special needs, digital technologies, social cooperation, local community.

Kirish. Inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim tizimlarida barcha bolalar, ayniqsa alohida

ehtiyojli bolalar uchun teng o'quv imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan muhim yo'nalish hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Bu jarayonda talabalarning volontyorlik faoliyati muhim rol o'ynaydi, chunki talabalar jamiyatning faol qatlami sifatida inklyuziv ta'lim muhitini mustahkamlashda muhim ko'priq vazifasini bajaradi. Ushbu maqola talabalarning volontyorlik faoliyatini inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishda qo'llashning yetarlicha o'rganilmagan jihatlari tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada xalqaro va mahalliy tajribalar tahlil qilinib, volontyorlikning alohida ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb qilishdagi ahamiyati va yangi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Inklyuziv ta'lim va volontyorlik faoliyatining bog'lanishi.

Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalarni umumiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni maqsad qilib, ularning ijtimoiy moslashuvi va ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribada volontyorlik faoliyati inklyuziv ta'limning samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. UNESCO (2020) hisobotida volontyorlarning o'quvchilar bilan individual ishlash orqali ularning maxsus ehtiyojlarini qondirishga yordam berishi va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishi ta'kidlanadi: "Volontyorlar ta'lim muhitida ijobiy psixologik muhit yaratadi va o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi" (UNESCO, 2020, p. 45). O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qonun hujjatlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori volontyorlik faoliyatini ta'lim jarayonida qo'llashni rag'batlantirishni qo'llab-quvvatlaydi.

Talabalarning volontyorlik faoliyati alohida ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb qilishda bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Birinchidan, talabalar yosh va faol guruh sifatida bolalar bilan samarali muloqot qila oladi. Ikkinchidan, ularning ijodiy yondashuvlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Uchinchidan, volontyorlik talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantiradi va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Yangi tadqiqot yo'nalishlari: Hali o'rganilmagan imkoniyatlar

1. "Volontyorlikning psixologik ta'siri"

Talabalarning volontyorlik faoliyatining alohida ehtiyojli bolalarga psixologik ta'siri yetarlicha o'rganilmagan sohalaridan biridir. Xalqaro tadqiqotlar volontyorlikning umumiy ta'lim muhitiga ijobiy ta'sirini ko'rsatsa-da, alohida ehtiyojli bolalarning o'ziga xos psixologik ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvlar haqida ma'lumotlar cheklangan. Masalan, G.Shoymatova (2023) o'z tadqiqotida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quvchilar motivatsiyasini oshirishdagi rolini ta'kidlaydi: "Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning maxsus ehtiyojlarini hisobga olgan holda motivatsion jarayonlarni faollashtiradi" (Shoymatova.G., 2023, p. 93). Ammo bu tadqiqotda volontyorlarning bolalarning psixologik holatiga ta'siri alohida ko'rib chiqilmagan.

Talabalarning volontyorlik faoliyati bolalarning o'ziga ishonchini mustahkamlash, stress darajasini kamaytirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim rol o'ynashi mumkin. Masalan, talabalar tomonidan tashkil qilingan interaktiv o'yinlar va guruh mashg'ulotlari bolalarga o'zlarini xavfsiz his qilish imkonini beradi. Kelajakda psixologik testlar (masalan, Raven testlari) yordamida bolalarning emotsional holatini baholash va volontyorlik faoliyatining ta'sirini o'lchash bo'yicha tadqiqotlar zarur.

2. "Raqamli texnologiyalardan foydalanish"

Raqamli texnologiyalar inklyuziv ta'limda keng qo'llanilmoqda, lekin talabalarning volontyorlik faoliyatida bu texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi hali to'liq o'rganilmagan. Xalqaro tajribada raqamli platformalar va interaktiv vositalar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ekanligi ta'kidlanadi (Xalilova M, 2023). O'zbekistonda talabalar tomonidan QR-kodlar, interaktiv o'yinlar va masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish alohida ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb qilishda yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Masalan, talabalar tomonidan ishlab chiqilgan mobil ilovalar yoki virtual sinf

xonalari orqali bolalarga moslashtirilgan ta'lim resurslari taqdim etilishi mumkin.

Biroq, bu sohada muammolar mavjud: talabalarning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yetarli tajribaga ega emasligi va alohida ehtiyojli bolalarning ushbu texnologiyalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari. Kelajakda ushbu muammolarni bartaraf etish uchun talabalarga maxsus treninglar tashkil qilish va raqamli resurslarni inklyuziv ta'lim ehtiyojlariga moslashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish lozim.

3. "Ijtimoiy-korporativ hamkorlik modeli"

Talabalarning volontyorlik faoliyatini inklyuziv ta'limga jalb qilishda ijtimoiy-korporativ hamkorlik modeli hali yetarlicha o'rganilmagan. Xalqaro tajribada korporativ sektor va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda samarali natijalar bergan (OECD, 2017, p. 128).

O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalari va korporativ sektor bilan hamkorlikda talabalarning volontyorlik faoliyatini tashkil etish bo'yicha tajribalar cheklangan. Masalan, nodavlat ta'lim muassasalari talabalarni volontyorlik loyihalariga jalb qilish orqali ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishi va ta'lim sifatini yaxshilashi mumkin (Botirov Sh., 2024).

Ushbu model doirasida talabalar korporativ tashkilotlar bilan birgalikda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan volontyorlik loyihalarini tashkil etishi, masalan, seminarlar o'tkazishi yoki alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim materiallarini ishlab chiqishi mumkin. Bu yondashuv talabalarning amaliy ko'nikmalarini oshiradi va bizneslarda ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirib, inklyuziv ta'lim uchun barqaror ekotizim yaratadi.

4. "Mahalliy jamoalar bilan hamkorlik".

O'zbekistonda mahalliy jamoalar ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi, lekin talabalarning volontyorlik faoliyatini mahalliy jamoalar bilan integratsiya qilish masalasi hali keng o'rganilmagan. Mahalliy jamoalar alohida ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb qilishda muhim vosita bo'lishi mumkin, chunki ular bolalarning oilaviy va ijtimoiy muhitini yaxshi biladi. K.Sodiqov va M.Vohidova (2025) tadqiqotlarida mahalliy jamoalar bilan hamkorlik ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ekanligini ta'kidlaydilar: "Ota-onalar, pedagoglar va mahalliy jamoalar o'rtasidagi hamkorlik ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratadi" (Sodiqov.K. & Vohidova.M., 2025, p. 15). Talabalar mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda volontyorlik loyihalarini tashkil qilish orqali alohida ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb qilishni osonlashtirishi mumkin.

Masalan, talabalar mahalliy jamoalarda ota-onalarga inklyuziv ta'lim haqida ma'lumot beruvchi seminarlar tashkil etishi yoki bolalar uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishi mumkin. Bu yondashuv bolalarni ta'limga jalb qilish bilan birga, mahalliy jamoalarda inklyuziv ta'lim haqida ijobiy qarashlarni mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar.

Talabalarning volontyorlik faoliyati inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda katta imkoniyatlarga ega, ammo bu sohada hali o'rganilmagan jihatlar mavjud. Psixologik ta'sir, raqamli texnologiyalardan foydalanish, ijtimoiy-korporativ hamkorlik va mahalliy jamoalar bilan integratsiya kabi yo'nalishlar kengroq tadqiqotlarni talab qiladi. Quyidagi takliflar ushbu sohalarda rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi:

- "Psixologik tadqiqotlar": Volontyorlik faoliyatining alohida ehtiyojli bolalarning psixologik holatiga ta'sirini o'rganish uchun maxsus psixologik testlar va so'rovnomalarni ishlab chiqilishi kerak.

- "Raqamli resurslar": Talabalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha trening dasturlari tashkil etilishi va inklyuziv ta'lim ehtiyojlariga mos raqamli platformalar yaratilishi zarur.

- "Korporativ hamkorlik": Nodavlat ta'lim muassasalari va korporativ sektor bilan hamkorlikda volontyorlik loyihalari tashkil etilib, talabalarning amaliy ko'nikmalari va ijtimoiy mas'uliyati oshirilishi lozim.

- "Mahalliy jamoalar": Mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda volontyorlik loyihalari rivojlantirilib, alohida ehtiyojli bolalarni ta'limga jalb qilish kuchaytirilishi kerak.

Ushbu yondashuvlar O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi va talabalarning volontyorlik faoliyatini samarali tashkil etish orqali alohida ehtiyojli bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori.
2. UNESCO. (2020). "Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education: All means all". Paris: UNESCO.
3. Shoymatova. G. (2023). Boshlang'ich ta'limda tarbiya jarayonini amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. "ResearchGate", p. 93.
4. Xalilova. M. T. (2023). Umumta'lim maktablarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish. "ResearchGate", p. 107.
5. OECD. (2017). Education at a Glance 2017: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.
6. Botirov. Sh. (2024). Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida o'quv va tashkiliy boshqaruv faoliyatini tashkillashtirish muammolari. "Academia.edu".
7. Sodiqov. K. I., & Vohidova, M. P. (2025). Farzand tarbiyasida kollaborativ texnologiyalardan foydalanish sohasidagi xalqaro tajribalar. "monografiya.uz", p. 15.

IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH BO'G'INLARI HAMDA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

T. Abdujabborova
Mustaqil izlanuvchi
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bo'g'inlari va ularni uzviy hamda tizimli yondashuv asosida rivojlantirish. Maktabgacha ta'lim, maktab, kasb-hunar maktablari (politexnikum) hamda texnikumlar va oliy ta'lim talabalarining ijodiy qobiliyatlarini tizimli takomillashtirib borish, raqobatbardosh innovatsion fikrlay oladigan kasb egalari bo'lishlariga ko'maklashish.

Kalit so'zlar. Politexnikum, texnikum, raqobatbardosh, ijodiy qobiliyat, ijod, salohiyat, yaratuvchanlik, intellektual.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ И ЗВЕНЬЕВ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ

T. Абдуджабборова
Независимый исследователь
Ферганский государственный университет

Аннотация. В статье рассматриваются этапы развития творческих способностей и их развитие на основе комплексного и системного подхода. Системно совершенствовать творческие способности учащихся дошкольных учреждений образования, школ, профессиональных училищ (политехнических училищ), техникумов и высших учебных заведений, помогая им стать профессионалами, способными к конкурентоспособному инновационному мышлению.

Ключевые слова. Политехнический, техникум, конкурентоспособный, творческие способности, креативность, потенциал, креативность, интеллектуал.

IMPROVEMENT OF THE SYSTEM AND LINKS OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES

T. Abdujabborova
Independent researcher
Fergana State University

Annotation. The article discusses the stages of developing creative abilities and their development based on an integrated and systematic approach. Systematically improving the creative abilities of students of preschool education, schools, vocational schools (polytechnics), technical schools and higher education, helping them become professionals capable of competitive innovative thinking.

Keywords. Polytechnic, technical school, competitive, creative ability, creativity, potential, creativity, intellectual.

Prezidentimiz tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini shakllantirishda maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarni ijtimoiy pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish va

ular orasidagi ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarish hozirgi kun talabidur deb ta'kidlaydi.

Hazrat Navoiy debdilarkim: "Qobiliyatli odaani tarbiya qilmaslik – zulmkorlikdir",... Qobiliyatli kishiga berilgan tarbiya gavhar kabi qimmatlidir.

Hozirgi kunda jahonga tanilayotgan O'zbekistondagi yoshlardan faqat aql va ilmga to'la, jismonan sog'lom bo'lib tarbiyalanishi, vataniga o'zlarining qobiliyatlari, iste'dodi, iqtidori bilan jahon arenalarida namoyon qilish bilan o'z yurtining rivojlanishiga hissa qo'shib, o'z o'rnini topish talab etilmoqda. Ya'ni bizning yurtimizga ijodkor insonlar kerak va ular yaratuvchilardir.

Ijod – insonning yangi modiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyatidir.

Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan tortib, to namoyon bo'lishi jarayonini o'z ichiga oladi.

Ijodiy qobiliyat – kechadigan jarayon orqali yangi bilim va yangi echim usullarini dolzarblashtiriladigan yangi yoki masaladagi o'ziga xos noma'lum variantlarni aniqlash faoliyatidir. Bizning fikrimizcha, ijodiy qobiliyat odatda avvaldan ma'lum bo'lmagan qandaydir yangilik yaratish, ijodiy obrazlar, bilimlar, maqsad va fikrlar, harakat omillari, bilish motivatsiyasi deb ta'riflanadi.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarining dastlabki bosqichi hamda bo'g'inlarini tizimli rivojlantirish masalasini ochish hozirgi kun talabiga javob beradi.

Tadqiqotning yakuniy qismida olib borilgan sinov-tajriba ishlarining xulosasi sifatida oliy ta'lim talablarining qobiliyatlarining rivojlanishida asosiy bo'g'in bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktab, kasb-hunar maktabi(politexnikum), texnikum va oliy o'quv yurtlarida o'quvchilar hamda talabalar iqtidori, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari va tizimi o'z yakunini topdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni iqtidor va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda Arastuning quyidagi fikrlarini keltiramiz. Jon to'g'risidagi kitobida "jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanishi, his etish harakatga keltirish, aql, idrok kabi turlarga oid qobiliyatlar ro'yobga chiqadi Uning mulohazasi, sezgi bilishning dastlabki qobiliyati u tasavvur shaklida iz qoldiradi"deb izohlaydi.

Prezidentimiz 2022-yil 20-iyundagi Konstitutsiya a'zolari bilan uchrashuvdagi so'zida "Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy maskanlarni Uchinchi Renessansning eng muhim asosi-poydevori deb hisoblaymiz" deya ta'kidladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kun tartibining ya'ni ertalabki soat, ertalabki badantarbiya, rivojlantiruvchi markazlarda ishlash, sayrda kuzatish, o'yin, mehnat orqali barcha narsa jixozlar, hodisalarga qiziqishi kuchli bo'ladi. Masalan : Maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablarining 5 yo'nalishi, ya'ni ta'lim faoliyati, rivojlantiruvchi markazlar:

1.

Jismoniy rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish.

2.

Ijtimoiy hissiy rivojlantirish.(qurish-yasash, modellashtirish)

3.

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari.(til va nutq)

4.

Bilish jarayonini rivojlantirish.(fan va tabiat)

5.

Ijodiy rivojlantirish. (syujetli va rolli o'yinlar, sahnalashtirish, musiqa va ritmika)

Anashu markazlarda (qurish-yasash, tadqiqot ishi, syujetli rolli o'yinlar)qiziqib, taqqoslab samaradorli bo'lsada o'ylab ko'radi. Topshiriqni sifatiga qarab-qaramay tez bajaradi. Yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Uning ish harakatni bajara olish

layoqati rivojlana boshlaydi.

Katta tayyorlov guruhlarida tashkil etilgan ilk matematik mashg'ulotlarda hisob – kitob, sanash, o'lchash, pullarni ajrata olish, vaqt tushunchalari kabilarni o'zlashtirish orqali matematik qobiliyatlari rivojlanadi.

Tasviriy faoliyat bo'yicha –o'yinchoqlar yasash, turli xil rasmlar chizish loydan narsalar yasash, ko'p qavatli uylar, ko'priklar qurish bu bolalarning ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganligidan dalolat beradi.

Musiqqa mashg'ulotlarida o'zbek milliy musiqalarini tinglaydilar, raqsga tushadilar, ashulalar kuylaydilar, she'rlarni yod oladilar. O'zbek, ingliz tillarida ko'shiq kuylaydilar. A.Navoiy, Bobur ruboyilari va g'azallarini ifodali qilib yodlab aytib beradilar. Bu bolada nutq qobiliyatini rivojlanganligidir.

Tayyorlov guruhlarida murakkab mavzulardagi mashg'ulotlarda qatnashadilar masalan er sayyorolari mavzusi bo'yicha etti planeta(oy, quyosh, yulduzlar...) ni aniq bilib oladilar va vazifalarini tariflaydilar. Bu aqliy rivojlanishi va maktabga tayyorlashdir.

Sahnalashtiruvchi, didaktik, to'garak ishlari, rolli, barmoq harakatlarini rivojlantiruvchi, nutqning tovush madaniyatini o'stiruvchi, chet tillarini o'rganishga oid o'yinlar, atrof-olam bilan tanishtirish, tabiat bilan tanishtirish, elementar matematika faoliyatidagi ijodkorliklar, badiiy adabiyot bilan tanishtirish, stol usti teatri, qo'g'irchoq teatri, rasm chizish ko'rik tanlovlari orqali bolalarda bilish, aqliy va ijodiy, hissiy qobiliyatlar o'sadi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari orqali sport qobiliyatlari o'sadi. Ba'zi qobiliyatlar bolalarning xatti harakatlari tufayli karate, badiiy gimnastika, boks, shaxmat- shashka turlari bo'yicha to'garaklarga qatnashib shahar, viloyat bosqichlarida o'rinlarni olib, sport qobiliyatlari rivojlanib bormoqda. Milliy xalq o'yinlari, kam, o'rta, serharakatli o'yinlar, sport o'yinlari, sport bayramlari, sport musobaqalari, chiniqtirish tadbirlari, bolalarni ijodiy faoliyatini faollashtirish bilan uning jismoniy, bilish, nutq, fikrlash va ijodiy qobiliyatini o'stiradi. Qoidali va qoidasiz(masalan berkinmachoq) o'yinlarida ham bolalar o'zlari ijod qilib qoida yaratadilar. O'zlari fikrlaydi, o'ylaydi, shartlar qo'yib kelishadi. Bu aqliy qobiliyatni o'sishiga katta yordam beradi. Mental arifmetika bo'yicha g'oliblar borki, ularda matematik qobiliyati kuchlidir.Ya'ni maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarida qat'iyatlilik bilan bir soha bo'yicha kuch- quvvatini ayamadan harakat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarida oila, sharoit, tarbiyachining faol mehnati tufayli ularning qiziqishi, layoqati, ijodiy qobiliyatlari,iste'dodlari takomillashganligi aniqlandi. Kasbga qiziqish, uchqunlari ko'rina boshlandi. Bolalar ijodiy qobiliyatini aniqlash va qo'llab –quvvatlash lozim. Ijodiy qobiliyat kurtaklariga e'tibor qaratish hamda asrab- avaylash, ijodiy qobiliyatli bolalarni topish va uni adashmasdan aniqlash, maqsad sari etaklash, qolaversa javobgarlik talab etgan, xususan shaxs qobiliyati va salohiyatini topish hamda uni uyg'otish ilmiy masala sifatida ko'rinmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida moddiy bazaning yetariligi, tarbiyachining bilimi, ijodkorligi bolalar psixologiyasini mukammal bilish, mashg'ulotlarni hozirgi kun darajasida tashkil etish, ota–onalar bilan hamkorlikda ishlash, bolalarning iqtidori, bilish, aqliy, nutq, xissiy, jismoniy, kasbiy hamda ijodiy qobiliyatlarini o'sishini uyg'otadi va rivojlantiradi.

Prezidentimiz inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarni 70% ini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalillarning o'zi bolalarimizni yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bolalar bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ham maktabgacha ta'lim tashkilotida olgan bilim va ko'nikmalari, qiziqishlar, iqtidor va ijodiy qobiliyatlari rivojlanib, kengayib boradi, ma'suliyat xissi kuchayadi.

Maktab o'quvchilarida bilish va bilim olishga qiziqish kuchli bo'ladi. Ayniqsa shu yillarda ona tili va adabiyoti, fizika–matematika, ingliz tili, kimyo–biologiya, iqtisodiyot va biznes, informatika kabi fanlarni chuqur o'zlashtirish uchun o'qishga bo'lgan bilish qobiliyati rivojlanadi, xotirasi mustahkam bo'ladi. Ifodali o'qish, she'rlarni yodlab, uzoq vaqt

xotirasida ushlab turadi. Kitobdagi murakkab masalalar, so'zlar, so'z zahiralari ko'p bo'ladi, alohida notiqlik maxoratiga ega bo'lib o'z ijodiy qobiliyatini namoyish etadi. Dars va darsdan tashqari vaqtlarda turli tadbirlarda qatnashib, fan olimpiadalarida ishtirok etib, ingliz tili va fan to'garaklariga qatnashib tafakkurini yanada rivojlantiradi. O'ta qiziquvchan bo'ladi, hayotga, turmush voqea hodisalariga befarq bo'lmaydi. Boy tasavvurlarga ega bo'ladi. O'ziga xos g'oyalarni ilgari suradi. Kam kuch va vaqt sarflab, yuqori natijalarga erishishga mustaqil harakat qiladi. Shu bois ham umumta'lim maktablarining 11–sinf bitiruvchilari internet orqali ham chet davlatlarning bir necha universitetlariga o'qishga qabul qilinmoqdalar. Maktab davridayoq bilim olishga qiziqish, o'qish bilan birga, yaratuvchanlik, tadbirkorlik, ixtirochilik, tasavvur qilish, ijodkorlik, orzulariga yetish uchun, yaxshi kasb tanlash va uning egasi bo'lishga harakat qiladi. Ya'ni davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan sharoitlar tufayli, ijodiy qobiliyatli, iste'dodli bolalar juda ko'payib borayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Kasb–hunar maktablari(politexnikum)da esa masalan 25 nafar bolalardan 3–4 nafarini o'qishga, bilim olishga, oliy o'quv yurtida o'qishini davom ettirish layoqati bo'ladi. Qolganlari esa asosan kasb–hunar o'rganishga yo'naltirilgan. Masalan: tikuvchi–dizayner, oshpazlik, ayollar stilisti, gazlamaga ishlov berish, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish va hakazo. Kasb–hunar maktab(politexnikum)ining o'quvchilari o'zlari yoshligidan orzu qilib yurgan hunarni o'rganishga tayyor bo'lib keladi. Ya'ni kasbiy qobiliyatini shu tarzda rivojlantirib, sevgan kasbini egallaydi. Kasb –hunar maktab(politexnikum)larida bilish, aqliy, ijodiy, va kasbiy qobiliyatlar egallanadi. Ulug' vatandoshimiz Abulqosim Mahmud Zamaxshariy aytganidek, "Hunarmandu kosiblar ko'pdur, biroq mohir qobiliyatlilari ozdur". Hozirgi kunda maktabda ta'lim olayotgan o'quvchilarning politexnikumlarga qiziqishlari, ijodkorliklari, kasbiy mahorati, ijodiy qobiliyatlari hisobga olingan holda jalb etilmoqdalar.

Texnikumlarda oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishga tayyorgarlik bilan birga kasbiy qobiliyatini mustahkamlab, rivojlantirib boradi. O'quv, pedagogik, diplom oldi amaliyotlarida, tadbirlar, munozaralar, bahslar, "Zakovat"intelektual o'yin kabi davralarda bilish, ijodiy, hissiy qobiliyatlari hamda iste'dodlari o'ta rivojlanadi. Kasbning murakkab tomonlarini ham o'zlashtiradi. Pedagogik kasbiy sifatlarni egallab va amalda qo'llay oladigan o'quvchilar tegishli hamkorlik shartnomalari asosida sevgan kasbi bo'yicha ishga joylashadi. Hozirgi vaqtda dual ta'lim tizimi hamda o'quvchilarni ham bilish qobiliyati va amaliyotda yoki ish joyida uni qo'llash orqali, kasbiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bitiruvchilar nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlagan holda 3 kunlik amaliyot o'tadigan ish joyida ijodiy -kasbiy qobiliyatini rivojlantirib boradi. Birinchi o'rinda kasbiy qobiliyatini ijodiy lashtirilgan holda o'stiradi.

Oliy o'quv yurtlarida esa talabalar qiziqqan kasbini tanlab o'qishga kiradilar. Bilim olish, malaka hosil qilish orqali ijodiy qobiliyat va iste'dodini takomillashtirib boradi. 4 kun nazariy, amaliy va seminar darslari, 2 kun amaliyot bilan bog'lab ta'lim olishda o'zidagi qobiliyatni to'la namoyon qilish uchun qat'iy yondoshadi. Bu kasbiy qobiliyatini yanada rivojlanishiga yordam beradi, pedagogik va diplom oldi amaliyotlarini muvaffaqiyat bilan bajarsa, kelgusida yetuk mutaxassis, zamonaviy qobiliyatli kasb egasi bo'ladi. Talabalar 3–4–bosqichlarda mustaqil hayotga qadam qo'yish, dunyoqarashining kengayishi, mustaqil ta'limda izlanuvchanlik, kitob o'qishda ilmiy manbalardan foydalanish, ilmiylikka intilish, ilmiy loyihalar tayyorlash, o'qishini yana magistratura, aspiranturalarda davom ettirishga qaror qiladi. Ko'rik tanlovlarda turli ilmiy-amaliy konferensiya, seminar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ilmiy ijodiy qobiliyati va salohiyatini namoyish etadi. Ular innovatsion ta'limga yondoshuv asosida bilishga qiziqishi, ijodiy qobiliyati va iqtidori, iste'dodini kutilganidan a'lo natijalarni qo'lga kiritishga harakat qiladi.

Oliy o'quv yurti talabalarining ilmiy, ijodiy bilimi, yaratuvchanligi, izlanuvchanligini hisobga olib Prezident hamda nomdor stipendiyalar bilan taqdirlanadi. Umuman yurtimizda Uchinchi Rennessans poydevorini yaratish uchun oliy o'quv yurtlarida yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqa-

rash, tafakkur va zamonaviy kasb egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtrib beradi.

Buyuk alloma A.Navoiyning fikricha "Mahbub-ul qulub"asarida ... Insonlarning iste'dodi va ijodiy qobiliyati haqida fikr yuritgan, ijodiy hayolat insonni ichki kechinmalaridir deb asoslagan.

Xulosa qilib aytganda oliy o'quv yurti talabalari ijodiy qobiliyatlarini, iste'dodi va iqtidorini rivojlantirish Yangi O'zbekistonni qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish hamda inson kapitali yuqori bo'lgan raqobatbardosh demokratik davlat qatorlariga qo'shish yangidan yangi cho'qillari sari yetaklashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi [matn] -T.:O'zbekiston. 2022. 27-277-278 b
2. A.Qodirov[va boshq]. Trilogiya. – T.: "Muharrir" - 2018. – 6-7 b.
3. Ziyovuddin Rahim. Bola odobi bilan aziz. – T.: "Kitobdornashr"- 2022.– 249 b.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TALABALARNING KOMPOZITSION BADIY-ESTETIK DIDINI TARBIYALASH MODELI

Xudayberdiyev Mirolim Iskandar o'g'li

Tayanch doktorant

Qori Niyoziy nomidagi

Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

Annotatsiya. Hozirgi ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning badiiy-estetik didini rivojlantirish va kompozitsion fikrlashini chuqurlashtirish yo'lida katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Shu bilan birga, bunday innovatsion yondashuv nafaqat texnik mahoratni mustahkamlashga, balki talabalar ongida estetik idrok va ijodiy intuitsiya jarayonlarini faollashtirishga ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalashga yordam beradigan model yoritib berildi.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, badiiy-estetik did, Raqamli texnologiya, 3D geometrik modellashtirish, tasvir, rang.

МОДЕЛЬ ВОСПИТАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВКУСА СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Худайбердиев Миrolим Искендер оглу

Докторант

Национальный институт педагогики образования

имени Кори Ниязи

Аннотация. Широкое использование цифровых технологий в современной системе образования открывает большие возможности для развития творческого потенциала учащихся, развития их художественно-эстетического вкуса, углубления композиционного мышления. При этом такой инновационный подход служит не только укреплению технических навыков, но и активизации процессов эстетического восприятия и творческой интуиции в сознании учащихся. В данной статье представлена модель, помогающая формировать композиционный художественно-эстетический вкус учащихся посредством цифровых технологий.

Ключевые слова: композиция, художественно-эстетический вкус, цифровые технологии, 3D-геометрическое моделирование, изображение, цвет.

MODEL OF EDUCATION OF ARTISTIC-AESTHETIC TASTE OF STUDENTS USING DIGITAL TECHNOLOGIES

Khudayberdiev Mirolim Iskender oglu

Doctoral student

National Institute of Educational Pedagogy

named after Kori Niyazi

Annotatsiya: The widespread use of digital technologies in the current education system opens up great opportunities for the development of students' creative potential, the development of their artistic and aesthetic taste, and the deepening of their compositional thinking. At the same time, such an innovative approach serves not only to strengthen technical skills, but also to activate the processes of aesthetic perception and creative intuition in the minds of students. This article presents a model that helps to cultivate students' compositional artistic and aesthetic taste through digital technologies.

Keywords: composition, artistic and aesthetic taste, Digital technology, 3D geometric modeling, image, color.

Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning badiiy-estetik didini rivojlantirish va kompozitsion fikrlashni chuqurlashtirish yo'lida katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Shu bilan birga, bunday innovatsion yondashuv nafaqat texnik mahoratni mustahkamlashga, balki talabalar ongida estetik idrok va ijodiy intuitsiya jarayonlarini faollashtirishga ham xizmat qiladi. Albatta, bu jarayonni samarali yo'lga qo'yish uchun izchil pedagogik strategiyalar, puxta ishlab chiqilgan metodik dasturlar va raqamli vositalar bo'yicha yetarli tajriba zarur. Bunga erishish yo'lida "Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalash modeli"ning yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun avvalo maqsadli blok, jarayonli blok va natijaviy blokning o'zaro uyg'unligi zarur bo'ladi.

Maqsadli blokda talabalarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, kompozitsion fikrlash qobiliyatlarini va badiiy-estetik didini izchil rivojlantirish, zamonaviy san'at amaliyoti, texnologiyalari bilan tanishtirish va ularni malakali ijodkorlar sifatida shakllantirish singari jihatlar ustuvor hisoblanadi. Bu bosqichda, ayniqsa, raqamli texnologiyalar yordamida kompozitsiyani o'rganish, badiiy-estetik did tushunchasini kengaytirish, tanqidiy yondashuvni rag'batlantirish, an'anaviy va raqamli metodlarni uyg'unlashtirish orqali ijodiy mashg'ulotlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish ko'zda tutiladi. Bunda talabalar nafaqat texnik vositalarda ishlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi, balki san'at asaridagi badiiy tuzilma va nazariy konsepsiyalarni teran anglay boshlaydi.


Maqsadli blokda yana bir diqqatga sazovor yo'nalish — talabalarning jamiyatda san'at asarini idrok qilishga, go'zallikni anglashga, ijodiy faollikka bo'lgan talabini oshirishdir. Bunday didaktik maqsadni ro'yobga chiqarish uchun nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, mas'uliyatli yondashuvni targ'ib qilish, raqamli muhitda ijodiy faoliyatning huquqiy va axloqiy jihatlarini tushuntirish kabi omillarga e'tibor qaratiladi.

Maqsadli blokda belgilangan yana bir asosiy vazifa — kompozitsiyaga doir nazariy tushunchalarni raqamli uslubda o'rgatish, badiiy-estetik mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirish, talabalarning zamonaviy texnologiya bilan ishlash malakasini oshirish va ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltirishdan iboratdir.

Jarayonli blokda, avvalo metodik yondashuvlar tizimi belgilab olinadi. Bu yondashuvlar orasida axborotli, individual-tabaqaviy, loyihaviy, texnologik, faoliyatli, kreativ yondashuvlar muhim sanaladi, chunki har bir talaba boshqacha sur'atda, boshqa tajriba fonda va qiziqishlar bilan o'qish jarayonida ishtirok etadi. Shuningdek, jarayonli blokda kompozitsion badiiy-estetik didni tarbiyalash uchun nimalarga e'tibor qaratilishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi. Metodik yondashuvlar tanlovi esa o'qituvchining didaktik mahorati, texnik infrastrukturaga tayyorgarlik darajasi va talabalarning shaxsiy motivatsiyasiga bog'liq.

Jarayonli blokning muhim tarkibiy qismiga "tamoyillar" ham kiradi. Modelda aynan individuallik, erkinlik, o'ziga xoslik, shakl va mazmun uyg'unligi, kreativlik, refleksivlik, sohalararo integratsiya, ustoz-shogirdlik tamoyillari alohida ajratib ko'rsatilgan. Bularning har biri raqamli texnologiyalar vositasida kompozitsion badiiy-estetik didni shakllantirish

jarayonida juda muhimdir. Masalan, o'ziga xoslik tamoyili talabaning o'zi topgan yangi ijodiy yechimga yo'l ochib berishi, erkinlik tamoyili esa uni estetik qaror qabul qilishda mustaqil bo'lishiga zamin yaratadi. Ustoz-shogirdlik tamoyili ham zamonaviy texnologik vositalar sharoitida alohida o'rin tutadi, chunki hozirda onlayn-mentoring, vebinarlar, virtual mahorat darslari, masofaviy konsultatsiyalar tobora ommalashib, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi uzviy muloqotni kuchaytirishi, shu bilan birga talabaning individual ijodiy faoliyatini doimiy nazorat va rag'bat bilan ta'minlashi mumkin.



1-rasm. Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalash modeli.

Jarayonli blokda yana "raqamli vositalar" bo'limi ajratilgan bo'lib, bu yerda apparat-dasturiy

jihozlar, dasturiy ta'minotlar, elektron o'quv resurslari singari komponentlar sanab o'tiladi. Raqamli texnologiyalarni qo'llashda amaliy mashg'ulotlar yoki onlayn darslarning samarali o'tishi ko'p jihatdan texnik jihozlarning sifatiga, kompyuterlar, grafik planshetlar, interaktiv doskalar, mobil ilovalar, 3D-printerlar kabi vositalarning mavjudligiga bog'liq. Pedagogik faoliyat shakllari ham jarayonli blokning ajralmas qismi bo'lib, individual, guruhiy, ustoz-shogird tizimi, talabalarning o'zaro hamkorligi, onlayn va offlayn mashg'ulotlar kabi usullar tashkil etiladi. Masalan, dizayn bo'yicha guruhiy loyihalar tayyorlashda talabalar virtual platformada o'z g'oyalarini joylashtirib, birgalikda ishlashlari, yangiliklar kiritishlari va yakuniy natijani hamkorlikda namoyish etishlari mumkin. Yoki ustoz bilan shogird o'rtasidagi individual mentorlikka asoslangan modelda esa u yoki bu ijodiy loyihani nazariy tahlil qilish, raqamli dasturda o'zaro baholash, xatolarni doimiy tuzatish va shaxsiy portfolioni yuritish kabi faoliyatlar izchil yo'lga qo'yiladi. Jarayonli blokning navbatdagi tarkibiy bo'limlaridan biri ma'naviy-axloqiy fazilatlar masalasidir.

Ta'lim metodlari bo'limida esa darslar strukturasi rejalashtirish, individual va guruhiy mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish, ustoz-shogird tizimi, talabalarning o'zaro hamkorligi, onlayn va offlayn mashg'ulotlarni kombinatsiyalash kabi metodik ko'nikmalar muhimdir. Bunda, masalan, bir mavzuni nazariy jihatdan ko'rgan talaba darhol raqamli muhitda amaliy ishini bajara boshlaydi, natijani ustoz bilan birga tahlil qiladi yoki guruh bilan baham ko'radi. Agar xatolik yoki nomuvofiqlik bo'lsa, o'sha zahoti tuzatadi va bu jarayon davomiyliги tufayli nafaqat texnik, balki g'oyaviy-estetik yondashuv ham shakllanib boradi. Shu bilan birga, videodarslar, onlayn konsultatsiyalar, virtual galereyalar yoki 3D ekskursiyalar singari zamonaviy imkoniyatlar talabaning an'anaviy darslar bilan cheklanib qolmasdan, butun dunyo san'ati bilan tanishishiga, turli uslublar va janrlarni vizual ravishda o'rganishiga, hatto masofaviy ustozlar bilan hamkorlik qilishiga yo'l ochib beradi.

Natijaviy blok so'ngida esa, tabiiyki, kutilayotgan pirovard natija — talabalarda texnik kompetensiya, ijodiy-falsafiy fikrlash, tanqidiy yondashuv, badiiy-estetik qadriyatlarini ongli ravishda idrok qilish, kompozitsion nazariya va amaliy tamoyillarni integratsiyalash qobiliyatlari shakllanishidan iboratdir. Bu esa yosh avlodning kelajakda zamonaviy mehnat bozorida, ijodiy sanoatda yoki madaniy-ma'rifiy sohalarda muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Demak, raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning kompozitsion badiiy-estetik didini tarbiyalash modelining mukammalligi aynan shu bo'limlarning o'zaro to'g'ri integratsiyasiga tayanadi.

Ushbu modelni amalga oshirishda turli metodik misollar keltirish mumkin. Masalan, an'anaviy qalamtasvir darsida avvalo shakl, rang, yorug'lik-soya, makon, proporsiya kabi elementar kompozitsion tamoyillar odatiy qog'oz va qalam orqali tushuntiriladi. So'ngra talabalarga raqamli planshet yoki grafik dasturlar orqali xuddi shu tamoyillarni mustaqil sinab ko'rish, rang gamma yoki chiziq qalinligini istalgancha o'zgartirib tajriba qilish, mashhur asarlarni nusxa ko'rinishida modellashtirish, turli ranglar palitralarini taqqoslab, qaysi bir estetik zavq uyg'otishini muhokama qilish topshirig'i berilishi mumkin. Shuningdek, ommaviy onlayn platformalardan, masalan, Moodle yoki Microsoft Teams singari tizimlardan foydalanish talabalarga barcha bosqichlarda loyihani joylashtirish, o'qituvchi yoki guruhdoshlar bilan mulohaza almashish, tezkor tuzatishlar kiritish, turli sharhlarni ko'rish va o'z didini shakllantirish orqali natijani yaxshilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Isakov, Abduvokhid. Tasviriy san'at fanini o'qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliyotdagi holati. *Общество и инновации*. (2021).
2. Подъянова, Светлана Михайловна. Развитие художественного вкуса студентов педагогического вуза. диссертации и автореферата по ВАК РФ 13.00.08, кандидат педагогических наук. 2004. Ст-185

3. U. Xonimqulovning «Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qitish jarayonining muhim omillidir» Jurnal; «Журнал математики и информатики» 2024 у
4. Muratov, Xusan Xolmuratovich. "Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi". Academic research in educational sciences 2.1 (2021): 1130-1136

O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA SO'ROVGA ASOSLANGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Amirullayeva Barno Abdulhaqovna
Katta o'qituvchi
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XXI asrda ta'lim tizimi, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish zarurati, so'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasi, ushbu texnologiyani amalga oshirish jihatlari va bosqichlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasi, IBL, PISA, IBL jihatlari, IBL bosqichlari, milliy tadqiqot kengashi.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ОПРОСА В РАЗВИТИИ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ

Амируллаева Барно Абдулхаковна
Старший преподаватель
Самаркандский областной центр педагогического мастерства

Аннотация. В аннотации статьи рассматриваются система образования XXI века, необходимость обеспечения развития жизненных навыков у учащихся, устойчивые образовательные технологии, основанные на опросе, а также контроль и освещение реализации этих технологий.

Ключевые слова. Образовательная технология, IBL, PISA, основанная на опросе, этапы, Национальный исследовательский совет.

EDUCATIONAL TECHNOLOGIES BASED ON SURVEY IN DEVELOPING LIFE SKILLS IN STUDENTS

Amirullaeva Barno Abdulhakovna
Senior Lecturer
Samarkand Regional Center for Pedagogical Excellence

Annotation. This article discusses the education system in the 21st century, the necessity of developing life skills in students, inquiry-based learning technology, and the aspects and stages of implementing this technology.

Keywords: Survey-based educational technology, IBL, PISA, IBL aspects, IBL stages, National Research Council.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, jamiyat ehtiyojlariga mos, raqobatbardosh va erkin fikrlovchi insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida inson kapitalining sifat jihatdan yangilanishi, ayniqsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, muammolar-

ni hal qilish, ijodiy yondashuv va qaror qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanishi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, so'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasi (Inquiry-Based Learning) zamonaviy pedagogik jarayonlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv o'quvchini tayyor ma'lumotni yodlashdan ko'ra, uni mustaqil izlanishga, savollar berishga, faktlarni tahlil qilishga, eksperimentlar o'tkazishga, xulosa chiqarishga va bilimni real hayotda qo'llashga yo'naltiradi. So'rovga asoslangan ta'lim – bu oddiygina fakt va ma'lumotlarni yodlash emas, balki bilimga faol, chuqur va anglab yetilgan tarzda erishishga qaratilgan o'quv jarayonidir. Bu yondashuvda o'quvchi nafaqat tayyor bilimni o'zlashtiradi, balki ilm qanday paydo bo'lishini, ya'ni bilim qanday izlanishlar, kuzatishlar, tajribalar va muhokamalar orqali yaratilishini ham o'rganadi. Ushbu texnologiya xalqaro miqyosda amalga oshiriladigan PISA (Programme for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) kabi baholash dasturlarida yuqori baholanadigan kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [1].

So'rovga asoslangan ta'limda o'quvchi o'zi mustaqil tarzda savollar beradi, kerakli ma'lumotlarni izlaydi, tajribalar o'tkazadi, topilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi va ularni umumlashtirib, o'z xulosasini chiqaradi. Bu jarayon davomida u nafaqat o'zi uchun yangi bilim yaratadi, balki uni boshqalar bilan muhokama qiladi, baham ko'radi va kerak bo'lsa, o'z fikrlarini himoya qiladi. Bunday ta'lim shakli orqali o'quvchi faqat faktlarni bilish bilan cheklanmaydi, balki ularni tushunishga, ularning kelib chiqish sabablarini anglashga, ularni baholashga va hayotda qanday qo'llash mumkinligini ko'rishga o'rganadi. Natijada, o'quvchi o'rganayotgan fanni yuzaki emas, balki chuqur va asosli tushunib oladi. Bu esa uni ilm-fanga nisbatan hurmat bilan qarashga, mustaqil fikrlashga, savol berishga va ijodiy yechimlar topishga undaydi [2]. Umuman olganda, so'rovga asoslangan o'qitish faqatgina mazmunni yetkazish emas, balki o'quvchining ilm olish jarayoniga faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu jarayon o'quvchini chuqur o'ylash, muammolarni tahlil qilish va ular ustida ishlashga o'rgatadi. Shuning uchun ham bunday yondashuv ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi va o'quvchini zamonaviy jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Milliy tadqiqot kengashi (NRC) tomonidan e'lon qilingan maqolada dars jarayonida so'rovga asoslangan ta'lim qanday bo'lishi kerakligi haqida beshta asosiy jihat keltirilgan [2]. Bu jihatlar quyidagilar:

1. O'quvchilar savol berishni o'rganishadi. Ya'ni, ular ilmiy yo'nalishga oid savollar ustida bosh qotirishadi. Bu savollar qiziqarli, chuqur va izlanishga undovchi bo'ladi.

2. Fikrlar tasodifiy emas, dalillarga asoslanadi. O'quvchilar o'z javoblarini, tushuntirishlarini shunchaki taxmin yoki fikrga asoslamasdan, aniq dalil va isbotlar orqali asoslaydilar. Ilm-fan uchun bu juda muhim.

3. O'quvchilar o'zlari izlanib, ilmiy tushuntirishlar ishlab chiqishadi. Ya'ni, ular oldindan tayyor javoblarni olmaydi, balki tajriba, kuzatish va ma'lumotlar orqali o'z xulosalarini chiqaradilar.

4. Tushuntirishlarni boshqa alternativ fikrlar bilan solishtiradilar. O'quvchilar o'z javoblarini boshqa fikrlar bilan solishtirib ko'radilar – ayniqsa, ilmiy asoslangan muqobil tushunchalar bilan. Bu ularga tanqidiy fikrlashni o'rgatadi.

5. O'rganilgan bilim boshqalar bilan bo'lishiladi. O'quvchilar o'z tushunchalari va xulosalarini sinfdoshlariga tushunarli qilib tushuntiradilar va o'z fikrlarini himoya qilishadi.

Jozef Shvab so'rovga asoslangan ta'lim modelining asoschilaridan biri bo'lib, u insoniyat turli vaziyat va muammolarni ijtimoiy tajribalar orqali o'rganishga qodir degan g'oyaga tayanadi [3].

Driver fikricha so'rovga asoslangan sinfdan o'qituvchi o'quv dasturining bir qismi sifatida loyihalarni yaratish, fikrlash va dalillardan foydalanish, tanqidiy tahlil, shuningdek, muhokama, o'qish, grafik-jadvallar bilan ishlash va ko'rgazmali namoyishni ham o'z ichi-

ga olgan o'quv faoliyatini tashkil etadi. Aynan fikrlash qobiliyatining o'sishi faktik ma'lumotlarni egallash va ularning mohiyatini anglab, ahamiyatini tushunib o'zlashtirishiga turtki bo'ladi [3]. O'qituvchining asosiy maqsadi – o'quvchilarga o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llay olish, mustaqil ma'lumot yig'ish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, hamda bilim qanday yaratilishini chuqur tushunishga yordam berishdir.

O'quv jarayonida maqsad, baholash mezonlari va topshiriqlar aniq belgilangan bo'lib, baholash jarayoni doimiy va hamkorlikda olib boriladi. Baholash shuningdek fan darsining bir qismi hisoblanadi, chunki o'quvchilar olimlar qanday qilib natijalarni tekshirishi, asoslashi va takomillashtirishini ham o'rganadilar.

So'rovga asoslangan sinfda o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik odatiy hol sifatida qabul qilinadi va o'quv jarayoni ham shunga moslashtiriladi. Biroq, har bir o'quvchi o'z bilim darajasi uchun shaxsan javobgardir. O'qituvchi darsda guruh bo'lib ishlanayotgan taqdir-da ham, har bir o'quvchining individual tushunishi, bilim darajasi yoki tayyorgarligidagi muammolarni e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Har bir o'quvchiga o'z bilimini mustahkamlash, uni amaliyotda qo'llash, guruhdoshlari va o'qituvchidan fikr-mulohaza olish imkoniyati berilishi zarur. Bu esa o'quvchining chuqurroq tushunishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Klahr va Dunbar tomonidan ishlab chiqilgan so'rovga asoslangan ta'lim bosqichlari to'rt bosqich (Orientatsiya-Konseptualizatsiya- Tadqiqot-Xulosa)dan iborat bo'lib, bunda induktiv va deduktiv mantiqiy yondashuvni qo'llash imkoniyati ko'rsatilgan [2].

Margus Pedaste so'rovga asoslangan ta'lim bosqichlarini asosan besh bosqichga ajratadi: Orientatsiya-Konseptualizatsiya-Tadqiqot (Izlanish)-Xulosa-Muhokama (Tahlil) [1]. Margus Pedaste zamonaviy nuqtai nazarni keng tasvirlaydi. Bu, ta'lim tadqiqotlarida uchraydigan so'rovga asoslangan ta'limni tizimli ravishda ko'rib chiqish natijasida ishlab chiqilgan bo'lib, u muhokama bosqichini ham kiritadi. Bir qancha mualliflar muhokamani so'rovga asoslangan ta'lim siklini yakunlovchi bosqich sifatida kiritganlar [2;3], boshqa tadqiqotchilar esa xulosa bosqichini so'rovga asoslangan ta'lim siklining oxirgi bosqichi deb hisoblaydilar[3].

Natijalar. So'rovga asoslangan ta'lim — bu o'quvchilar bilimni tayyor holatda emas, balki izlab topish, savollar berish, tajriba qilish va o'zlari ochish orqali o'rganadigan yondashuvdir. O'rganishlarimiz asosida so'rovga asoslangan ta'lim bosqichlari ishlab chiqildi. So'rovga asoslangan ta'lim quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: rejalashtirish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish, yaratish, taqdim etish va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi [1-rasm].

1-rasm. So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasi bosqichlari

Rejalashtirish. Bu bosqich – so'rovga asoslangan ta'lim jarayonining birinchi bosqichi hisoblanadi. O'quvchilar mavzuga qiziqish bilan yondashadilar. Mavzuni o'rganishni, xuddi bir jumboqni yechayotgandek ko'rishadi. Ular o'zlari o'rganmoqchi bo'lgan mavzu bo'yicha asosiy savollarni shakllantiradilar. Masalan: “Bu nima uchun muhim?”, “Qanday ishlaydi?”, “Qanday ta'sir qiladi?” degan savollar. So'ng, kerakli materiallar va axborotlarni qayerdan topish mumkinligini aniqlashadi. Ular topgan ma'lumotlarni qanday qilib boshqalarga yetkazish (masalan, taqdimot, loyiha) haqida o'ylab ko'rishadi. Tadqiqot oxirida o'z ishlarini qanday baholash kerakligini ham belgilab olishadi - bu mezonlar “men yaxshi ishladimmi?” degan savolga javob beradi.

2. Ma'lumotlarni yig'ish. Bu bosqichda o'quvchilar ko'p miqdorda ma'lumotlar yig'ishadi. Biroq, bu ma'lumotlar ichida keraklisi va keraksizi aralashib ketgan bo'ladi. Ular hali qaysi ma'lumot foydali, qaysisi befoyda yoki noto'g'ri ekanini aniqlay olmaydi — bu esa chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin. Shu paytda o'qituvchi ularga yordam berishi kerak. Ularga qanday qilib to'g'ri, aniq, ishonchli manbalarni ajratib olishni o'rgatadi.

3. Tahlil qilish. Endi o'quvchilar o'zlarining diqqat markazida nima bo'lishini belgilaydi - ya'ni aniq nimani o'rganishini tanlaydi. Ular o'zlarining tadqiqot maqsadini belgilab, asosiy g'oyani ishlab chiqadi. Biroq, yig'ilgan ma'lumotlar ba'zida juda umumiy yoki

aksincha, haddan tashqari murakkab bo'lishi mumkin. Bu esa qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, o'qituvchi ularga ma'lumotlarni solishtirish, taqqoslash va xulosa chiqarish bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Bu jarayon chuqur tahlil qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

4. Yaratish. O'quvchilar endi o'rganilgan bilimlar asosida biror mahsulot yaratishga tayyor bo'ladi. Masalan, prezentatsiya, loyiha, grafiklar, videolar va hokazo. Lekin ular hali ham bu ish to'g'ri chiqiyaptimi yoki yo'qmi, aniq bilmasligi mumkin. Shu sababli, o'qituvchi ularni yo'naltiradi va kerak bo'lsa, ularga yordam beradi. O'qituvchi shuningdek, guruh bo'lib ishlashni rag'batlantiradi - bu o'quvchilarni bir-biridan o'rganishga va jamoaviy muhokama orqali yaxshi mahsulot yaratishga yordam beradi.

5. Taqdim etish. Bu bosqichda o'quvchilar o'z ishlarini boshqalar bilan baham ko'rishadi. Bu taqdimot, video yoki og'zaki suhbat bo'lishi mumkin. Bu orqali ular o'zlarining o'rganganlarini boshqalarga tushuntirishni o'rganadilar -bu juda foydali ko'nikma. O'quvchilar, shuningdek, fikr bildiruvchi va savol beruvchilarga aylanishadi. Tajribasiz yoki yangi o'rganayotgan o'quvchilar uchun ishlarni kichik guruhlarda baham ko'rish qulayroq — bu ularga o'z fikrini erkinroq ifoda etishga yordam beradi.

6. Baholash. Bu bosqichda o'quvchilar o'z ishini tahlil qiladi, natijalarni ko'rib chiqadi. O'qituvchi ularga “dastlab nima qilishni rejalashtirganding?”, “hozirga kelib nima o'zgar-di?” kabi savollar orqali o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatini beradi. O'quvchilar baholash uchun oldindan ishlab chiqilgan mezondan foydalanadilar. Bu bosqichda o'quvchilar bir-birining ishlarini ham ko'rib chiqib, fikr bildiradilar (ya'ni o'zaro tahrir). Muhimi — baholash faqat yakuniy natijaga qaratilmasligi kerak, balki butun jarayon (qanday o'rgandi, qanday o'yladi, qanday yo'l tanladi) ham baholanishi zarur. Aks holda, bu faqat natijaga erishish uchun nusxa ko'chirishga olib kelishi mumkin.

Bu barcha bosqichlar o'quvchilarni mustaqil, faol va ijodiy o'rganishga, fikrlashga va o'z bilim jarayonini boshqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu yerda murabbiy, yo'l boshchi sifatida o'quvchilarga kerakli ko'nikmalarni o'rgatadi, ularga mustaqil fikrlash va o'zgaruvchan vaziyatlarda to'g'ri yo'l topishga yordam beradi.

Xulosa. Bu jarayon kognitiv va emotsional soha bilan bog'liq bo'lib, o'quvchining aqliy faoliyati; fikrlashi, tahlil qilishi, xotirasi, tushunishi kabi jihatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga o'quvchi o'rganishdan qanday motivatsiya oladi, o'ziga ishonchi qanday, o'qishga munosabati qanday – bular ham muhim. Bundan tashqari, bu bosqichlar metakognitsiya bilan bog'liq. Bu -o'quvchining o'z o'rganish jarayonini tushunishi, nazorat qilishi va uni yaxshilashga harakat qilishidir. Ya'ni o'quvchi: “Men qanday o'rganayapman?”, “Qayerda qiynalдим?”, “Yana qanday usulni sinab ko'rishim mumkin?” - degan savollarni o'ziga berib, o'z o'rganishini tahlil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Christopher Sandoval, Fanning the Flame: Investigating Guided Inquiry-Based Learning in the Secondary Science Classroom. Master of Education (Research). 2021, pp. 172.
2. Alejandra Velez, Preparing students for the future – 21st Century Skills. a dissertation presented to the faculty of the usc rossier school of education university of southern california in partial fulfillment of the requirements for the degree doctor of education. 2012, pp. 121.
3. Cynthia Luna Scott, Working papers: The futures of learning 2: what kind of learning for the 21st century. 2015, pp. 14.

DEVELOPING THE INNOVATIVE COMPETENCE OF HIGHER EDUCATION FACULTY USING META-TECHNOLOGIES: A METHODOLOGICAL FRAMEWORK

Doliev Asliddin Tulkinjon ugli

Leading Specialist

*at the National Research Institute of Professional
Development and Retraining of Teachers
named after A. Avloniy*

Annotation. This paper examines the methodological foundations for developing the innovative competence of higher education faculty through meta-technologies. It explores their role and effective implementation within the higher education system. Additionally, the article highlights the potential of using meta-technologies to enhance the advanced professional skills and innovative capacity of educators amidst the ongoing digital transformation.

Keywords: Higher education, pedagogical staff, meta-technologies, innovative competence, methodological foundations, digital transformation, developmental education, cognitive approach, psycho-technologies, educational strategy.

РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТАТЕХНОЛОГИЙ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Долиев Аслиддин Тулкинджон угли

Ведущий специалист

*Национального научно-исследовательского института
повышения квалификации и переподготовки
педагогических кадров имени А. Авлони*

Аннотация. В данной статье рассматриваются методологические основы развития инновационной компетентности преподавателей высшей школы посредством метатехнологий. Изучается их роль и эффективность внедрения в систему высшего образования. Кроме того, в статье подчеркивается потенциал использования метатехнологий для развития передовых профессиональных навыков и инновационного потенциала преподавателей в условиях продолжающейся цифровой трансформации.

Ключевые слова: Высшее образование, педагогические кадры, метатехнологии, инновационная компетентность, методологические основы, цифровая трансформация, развивающее образование, когнитивный подход, психотехнологии, образовательная стратегия.

METATEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'QITUVCHILARINING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLIK ASOSLAR

Doliyev Asliddin To'liqinjon o'g'li

Yetakchi mutaxassis

A.Avloniy nomidagi Pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola oliy ta'lim o'qituvchilarining metatexnologiyalar orqali innovatsion kompetentsiyasini rivojlantirishning uslubiy asoslarini ko'rib chiqiladi. Ularning oliy ta'lim tizimiga tatbiq etishdagi o'rni va samaradorligi o'rganiladi. Bundan tashqari, maqola davom etayotgan raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchilarning ilg'or kasbiy ko'nikmalari va innovatsion salohiyatini rivojlantirish uchun meta-texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, professor-o'qituvchilar tarkibi, metatexnologiyalar, innovatsion kompetentsiya, uslubiy asoslar, raqamli transformatsiya, rivojlanish ta'limi, kognitiv yondashuv, psixotexnologiyalar, ta'lim strategiyasi.

Introduction. The era of globalization and digital transformation is characterized by an exponential growth in information flows, which necessitates new approaches to education. In contrast to traditional pedagogical methods, the current focus is shifting towards the development of crucial cognitive skills, including information retrieval, analysis, synthesis, and systematization. Moreover, within the transition to a knowledge society, there is a growing imperative to cultivate competencies such as critical thinking, analytical reasoning, and the capacity for innovation in every individual.

From this standpoint, the integration of meta-technologies into educational processes not only enhances pedagogical effectiveness but also establishes a robust methodological framework for building the innovative competence of faculty in higher education.

This study explores the methodological frameworks for cultivating innovative competence among educators through meta-technologies. The paper addresses the prerequisites for their successful implementation, the core principles of instruction based on cognitive activity, and the practical considerations for effectively operationalizing this process.

Literature Review: The development of advanced technologies in Uzbekistan is supported at the state level, notably by the program for implementing the "Strategy for the Development of Artificial Intelligence Technologies until 2030" approved by Presidential Decree PF-358 (October 14, 2024). This strategic framework outlines key development objectives, including: fostering the capacity to create new technologies (creative meta-technologies), ensuring technological progress is aligned with universal human values, and leveraging a modern technology base to enhance intellectual potential and achieve strategic goals [1].

N.V.Pereshina kasbiy ta'limda innovatsion pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilib, ta'lim sifatini oshirishda interaktiv, loyiha asosidagi va kompyuter texnologiyalarining samaradorligini ko'rsatadi. U innovatsion jarayonning bosqichlarini aniqlab, yangi pedagogik g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishdagi qiyinchiliklarni, jumladan, konservatizm va resurslar yetishmasligini ta'kidlaydi. Pereshinaning tadqiqoti kasbiy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishda metodik va tashkiliy ko'rsatmalar sifatida ahamiyat kasb etadi [2].

In her research, N.V. Pereshina examines the primary directions of innovative pedagogical activity within vocational education, highlighting the effectiveness of interactive, project-based, and computer technologies in improving educational quality. Her work also outlines the stages of the innovation process and addresses the key barriers to the practical application of new pedagogical ideas, such as institutional conservatism and resource scarcity. Consequently, Pereshina's study serves as a valuable methodological and organizational framework for the implementation of modern pedagogical approaches

in vocational training institutions [2].

M. Pulatovas study addresses the challenges of preparing educators for innovation, emphasizing the need to establish a supportive environment to overcome these barriers. The research posits that enhancing educational quality is contingent upon continuous professional development. Furthermore, Pulatova demonstrates the effectiveness of specific innovative models, such as the «Samarkand experience» and «mobile methodological groups, in advancing teacher competencies [3].

In their work, E.I. Artamonova and O.V. Teslenko explore the innovative dimensions of pedagogical competence. The study posits innovativeness as a meta-professional quality and underscores its significance within the educational system. The authors delineate the development and application of these innovative qualities in the educational process, demonstrating how they contribute to enhancing educational quality through the adoption of new methodologies and technologies [4].

The work *Educational Technologies: New Perspectives*, authored by I.V. Abakumova, P.N. Ermakov, and V.T. Fomenko, offers an expanded understanding of teaching technologies within the context of implementing state educational standards at the school level. This publication details technologies centered on teacher-student interaction, the use of hypertext variants, and elements of pedagogical technique. The text is targeted towards school administrators, teachers, methodologists, and students [5].

O.S. Frolova investigates the theoretical and practical dimensions of developing innovative competence within the framework of in-school professional development. By comparing findings with existing scientific literature, the study offers a detailed account of effective approaches and methods for fostering innovative competence among teachers. Consequently, this research contributes to enhancing the practical application of innovative strategies within the educational system [6].

A.V. Smirnov has conducted an in-depth study of the role of information-analytical infrastructure in enhancing the competitiveness of economic systems. His research posits that in the contemporary economy, an infrastructure enabling the effective management and analysis of information flows is crucial for ensuring the stability of economic processes and fostering innovation. Smirnov argues for the necessity of implementing information technologies and advancing analytical tools to strengthen economic competitiveness [7].

T.V. Kuznetsova and I.V. Ivanov, in their research, highlight the multifaceted nature and the necessity of an integrated approach to information-analytical infrastructure as foundational for enhancing the competitiveness of economic systems. They contend that the development of robust databases and advanced analytical platforms empowers economic entities with enhanced rapid decision-making capabilities and solidifies their competitive standing. Furthermore, their work addresses the critical issues of ensuring information security and developing skilled personnel [8].

E.A. Orlovas research focuses on the strategic directions for the development of information-analytical infrastructure within economic systems. Orlova asserts the need to develop automated and integrated information systems to enhance competitiveness in an innovation-driven economy. Furthermore, she underscores the importance of strengthening public-private partnerships to improve the overall effectiveness of this infrastructure [9].


In the Information Age, the education system must fulfill a range of new tasks. It is essential to teach learners how to acquire necessary information, master the meta-technologies for independent learning, and form skills for self-management and self-understanding. Furthermore, the system must facilitate the practical application of psycho-technologies and teach effective communication, results-oriented problem-solving, and the meta-technological art of solving inventive tasks. These functions are considered key factors in improving the quality of the educational process and preparing students to

meet modern demands.

The utilization of meta-technologies and psycho-technologies facilitates the integration of knowledge and skills, enabling their effective application in real-world contexts.

Figure 1.1. The modern requirements of education include three main strategic tasks: teaching learners to acquire necessary information and implementing meta-technologies for independent learning; forming a person's abilities for self-management and understanding and the practical application of psycho-technologies; as well as mastering meta-technological approaches for effective communication, problem-solving, and developing inventive potential.

To effectively implement these objectives, it is essential to restructure the educational process around innovative meta-technologies aimed at enhancing its overall effectiveness.



This process entails the implementation of new educational models focused on integrating knowledge and cultivating creative skills. Grounded in this approach, the meta-technology of developmental education facilitates an individualized learning process by assessing students' cognitive potential and personal attributes. This method enhances overall educational efficacy while strengthening student autonomy and creativity.

Furthermore, the “principle of pedagogical supplementation” holds significant importance in the application of innovative pedagogical technologies. This principle distinguishes the educational process from traditional methods by organizing it on a macro-technological foundation. It involves a comprehensive analysis of students intellectual levels, psychological traits, and cognitive styles. The data gathered from this analysis is then used to design an optimized and tailored educational framework.

Consequently, meta-technologies function as a pivotal instrument in cultivating the innovative competence of educators. This, in turn, enables the design of effective pedagogical processes capable of preparing highly qualified professionals who can meet contemporary demands.

The primary objective of developmental education is the holistic development of the individual. This objective is achieved through a combination of four interconnected goals: didactic, educational, developmental, and psychological. The didactic goals focus on knowledge acquisition, while the educational goals are centered on moral and social upbringing. The developmental goals aim to cultivate creative and intellectual capacities. Finally, the psychological preparation component fosters an individual's ability for self-regulation and maintaining emotional equilibrium. In this way, developmental education ensures the comprehensive and well-rounded development of the individual (Figure 1.2).




Figure 1.2. The main levels of developmental education objectives. The first level is aimed at ensuring professional readiness and includes the knowledge and skills necessary for a specific activity. The second level serves to form personal qualities that help the individual to function effectively in professional, economic, and socio-political conditions. The third level strengthens spiritual, mental, physical, and psychological stability. The fourth level ensures the individual's self-development, the full realization of their creative potential, and their inner capabilities.

In the meta-technological model for achieving learning objectives within developmental education, we can distinguish six levels of knowledge mastery:

1. Familiarization and Awareness: In practice, this stage involves initial exposure and the formation of a basic concept. The learner is expected to gain a general understanding of the subject matter and be able to describe its fundamental characteristics.
2. Retention and Reproduction: The learner is required to internalize the learning material to a specified degree of accuracy and be able to recall and articulate facts and processes with necessary completeness.
3. Causal Comprehension: This involves a deeper perception and understanding of phenomena, including their root causes, influencing factors, governing principles of change, and predictable outcomes.
4. Standard Application: This stage is characterized by the ability to apply acquired knowledge to solve standard problems, often with the help of provided materials and established procedures.
5. Mastery and Non-Standard Application: At this level, learners can synthesize their knowledge to solve non-standard and complex problems independently, without reliance on supplementary materials. They demonstrate the ability to transfer and apply their knowledge and skills effectively across different domains.
6. Creation and Innovation: This is the creative pinnacle of the model. Learners at this level have developed the capacity for independent inquiry, creativity, and invention, enabling them to generate new knowledge, ideas, and approaches. It is noteworthy that achieving this level is not typically an explicit objective within traditional pedagogical frameworks.

In the meta-technological model, the educational process is organized based on the gradual mastery of knowledge. The first level – awareness, comprehension, recognition – is the stage where the learner gets acquainted with the educational materials and forms a general idea. The second level – reading, memorizing, and knowing – is where

knowledge is mastered to the necessary degree and basic concepts are retained. The third level – understanding – involves comprehending the causes of phenomena, influencing factors, and their outcomes. The fourth level – application – is where the skill of applying acquired knowledge in practice to solve standard tasks is formed. The fifth level – mastery of knowledge and skills – requires the learner to be able to apply knowledge independently and solve problematic tasks. The sixth level – developing new knowledge, ideas, and approaches – is where the learner forms skills of creativity, independent thinking, and an innovative approach.

General pedagogical technologies can be classified into several groups based on their vertical structure.

1. Meta-technologies:

These represent the educational process at the level of social policy within the education sector. A meta-technology is a general pedagogical technology that encompasses the entire educational process. We can include the following technologies within this category:

- Problem-based and developmental learning technologies;
- Information technologies;
- Game-based technologies (Gamification);
- Project-based and research activity technologies;
- Interactive technologies;
- Health-preserving technologies;
- Upbringing and character-building technologies.

2. Macro-technologies:

Also known as branch pedagogical technologies, these encompass activities within a specific educational field or academic subject. This includes, for example, the technology for teaching a particular subject.

3. Meso-technologies:

These are modular, local technologies aimed at implementing specific parts of the educational process or solving particular, localized didactic, methodological, or educational tasks.

Micro-technologies: These are technologies aimed at implementing specific operational tasks related to a personal approach to the pedagogical process or the direct influence of a subject. This includes, for example, training technologies for correcting specific personal qualities of an individual. All the pedagogical technologies considered on the basis of core educational strategies are integral technologies, combining various technological methods, tools, and forms of pedagogical activity (Figure 1.3).




Figure 1.3. The Vertical and Horizontal Structural Composition of General Pedagogical Technologies. In the systematic analysis of pedagogical technologies, it is crucial to differentiate them not only by their vertical structure (i.e., meta-, macro-, meso-, and micro-technologies) but also based on their horizontal composition. Within the horizontal framework, general pedagogical technologies are distinguished by three primary scientific-procedural aspects:

The Scientific Aspect: This aspect underscores that every pedagogical technology is rooted in a scientific solution to a specific problem, grounded in advanced practical experience and established pedagogical theories. It ensures the theoretical validation and foundation of the technology.

The Formal-Descriptive Aspect: This aspect functions as a descriptive model that defines the content, objectives, and tools of the technology. It outlines the prescribed manner in which the pedagogical activity should be implemented, serving as a formal blueprint.

The Process-Activity Aspect: This approach encompasses the set of activities involved in the effective organization, planning, implementation, and management of the technology. It explains the mechanism for managing the subject-object relationships between the teacher and the student.

The integration of these approaches allows pedagogical technology to be viewed as a tool for scientifically designing and effectively implementing a student's optimal learning pathways. In the higher education system, a technological approach is particularly vital as it not only enhances the quality of education but also facilitates the digitalization of pedagogical activities, the development of innovative competence, and the rational use of available resources. Furthermore, this approach creates a fertile ground for both the creation of new technologies and the refinement of existing ones.

Conclusion: The application of meta-technologies in contemporary education serves as a crucial factor in the development of educators' innovative competence. This article has elucidated the methodological approaches to instruction grounded in meta-technologies, demonstrating their significance within the pedagogical process. Meta-technologies facilitate a deeper mastery of knowledge, foster critical thinking, and cultivate innovative approaches. Consequently, these strategies are vital for enhancing the quality of teacher preparation programs and advancing the professional and cognitive potential of educators.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-son Farmoniga, "Raqamli o'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. Pereshina N. V. Инновационные технологии в профессиональном образовании. Педагогическое образование и наука. 2018, №5, с. 107-115.
3. Pulatova M.E. Konseptual yondashuv – o'qituvchining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar 2023 йил, № 12
4. Артамонова Е.И. Инновационность как метапрофессиональное качество педагогической компетентности. Вестник Иссyk-Кульского университета, № 38, 2014.
5. Фролова Олеся Сергеевна. Формирование инновационной компетенции педагога в процессе внутришкольного повышения квалификации. Воронеж 2018.
6. Абакумова И. В., Ермаков П. Н., Фоменко В. Т. Российская академия образования российское психологическое общество южный федеральный университет факультет психологии. Москва 2013.
7. Смирнов А.В. Информационно-аналитическая инфраструктура как фактор повышения конкурентоспособности экономики. Журнал экономических исследований, №4, с. 45-52.
8. Кузнецова Т.В., Иванов И.В. Интеграция информационных систем и повышение конкурентоспособности предприятий. Вестник совр. экономики, №7, с. 78-85.
9. Орлова Э.А. Стратегические направления развития информационно-аналитической инфраструктуры в условиях цифровой экономики. Экономический журнал, №3, с. 23-30.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИГА КРЕДИТ МОДУЛ ТИЗИМИНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАРИ

Хликов Элдор Мухамадалиевич

Тадқиқотчи

Олий таълимни ривожлантириш тадқиқотлар маркази

Аннотация: Мазкур мақолада олий таълим муассасаларида кредит-модул тизимидан фойдаланишни халқаро тажрибаси ёритиб берилган.

Калит сўзлар: кредит-модул, кредит-соат, олий таълим, инновация, бакалавр, магистр

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ КРЕДИТНО- МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ВЫСШИМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ УЧРЕЖДЕНИЯМ

Хликов Эльдор Мухамадалиевич

Исследователь

Исследовательский центр развития высшего образования

Аннотация: В данной статье описан международный опыт использования кредитно-модульной системы в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: кредит-модуль, кредит-час, высшее образование, инновации, бакалавр, магистр.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN IMPLEMENTING A CREDIT- MODULAR SYSTEM FOR HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Khlikov Eldor Mukhamadalievich

Researcher

Higher Education Development Research Center

Annotation: This article describes international experience in using the credit-module system in higher education institutions.

Key words: credit module, credit hour, higher education, innovation, bachelor's, master's.

Дунё миқёсида таълим тизими лдига қўйилаётган талаблардан бири XXI-аср педагогикасини инновацион технологиялар ҳамда рақамли таълим технологиялари асосида такомиллаштириш заруриятини келтириб чиқаради. Чуқур касбий билим, ундан унимли фойдаланиш кўникмалари, шахсий ташаббускорлик, ижодкорлик мустақиллик ҳар доим педагогик фаолиятда алоҳида аҳамият касб этсада, замонавий педагог узлуксиз таълим олиш, ўз-ўзини тарбиялаш, ўз-ўзини ривожлантириш ва ўз-ўзини такомиллаштириш қобилиятларига эга бўлиши шарт. Меҳнат бозорида натижаларга эришиш учун халқаро тажрибаларни билиш ҳамда ўқув жараёнларини ташкил этишда самарали фойдаланиш таълаб этилади.

1999 йилда Европада Болонья процесси деб аталган Европа мамлакатлари олий таълим тизимлари ўртасида ўзаро ҳамкорликни ривожлантириш халқаро форуми иш бошлайди. Форумнинг мақсади Европа давлатларида олий таълим

стандартлари ва сифатини уйғунлаштиришга қаратилган эди. Болонья процессида Европа давлатлари эндиликда ECTS (European Credit Transfer System) ни ўзларининг олий таълим муассасаларида таълимни ташкил этишнинг асосий усули сифатида тарғиб қилишга келишиб олишди. Бунинг натижасида ECTS эндиликда нафақат талабалар халқаро алмашинуви мақсадида балки, Европа мамлакатлари доирасида университетларда таълимни ташкил қилиш усули сифатида кенг тарқала бошлади. Болонья тизими декларациясига 48 давлат аъзо ҳисобланиб, GPA (диплом ёки аттестатнинг ўртача кўрсаткичи) баҳолаш мезонининг қўлланилиши, академик мобиллик ҳамда халқаро даражада интеграциялашувнинг юқори даражада таъминлиниши тизимнинг ўзига хос муҳим кўрсаткичларидир. Мазкур тизимни амалиётга жорий қилган давлатларда олий маълумот тўғрисидаги дипломлар халқаро миқёсда тан олинди, талабалар ва профессор-ўқитувчилар учун академик мобиллик ва халқаро алоқалар учун катта имкониятлар очилди, илғор тажрибалар асосида тайёрланган рақобатбардош кадрларга меҳнат бозорида талаб юқори бўлди.

Болонья процессига аъзо давлатлар орасида Россия, Белорусия, Туркия, Азарбайжон, Арманистон, Грузия, Қозоғистон ҳам тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида қатнашиб келмоқда ва ECTS кредит-модуль тизимини ўзларининг ОТМларида жорий этиш бўйича ҳаракатларни олиб боришмоқда.

Кредит-модуль – ўқитишни узвий боғлиқликдаги модулларини ёки модуллар блокларини ўзлаштириш учун талабаларнинг зарур бўлган ўқув юкларини ўлчаш бирлиги сифатида модулли ўқитиш технологиялари ва кредитларнинг бирлигига асосланган ўқув жараёнини ташкил этиш тизимидир.

АҚШ, Буюк Британия, Жанубий Корея, Канада ҳамда Япония каби бир қатор таълим тизими ривожланган давлатлар тажрибасини ўрганган ҳолда мамлакатимизда глобал таълим интеграциясини амалга оширилиши хорижий мамлакатлар билан олий таълим соҳасидаги алоқаларни янада кенгайтиришни таъминлашга хизмат қилади.

Республикамиз олий таълим тизимини кредит-модуль тизими асосида ташкил этишда асосан ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System (Европа кредит трансфер тизими) га ўтишга устуворлик берилмоқда.

Жаҳон амалиётида АҚШда кредит тизими (USCS), Кредитларнинг тўплаш ва ўтказишнинг Британия тизим (CATS), Европа кредит тизими (ECTS), Университет кредитларини ўтказишнинг Осиё - тинч океани тизими (UCTS) энг кенг тарқалган тизимлар ҳисобланади.

АҚШ миллий таълим қўмитаси “коллеж-мактаб” бўғинини яхшилаш, ўрта мактабларда ўқув дастурларини стандартлаш мақсадида нафақат коллежларда, балки ўрта мактаблар учун ҳам “кредит” тушунчасини жорий қилди ва кейинчалик бакалаврият дастурлари мазмунини баҳолашнинг кредит тизимини магистратура ва докторлик таълим босқичларигача кенгайтди.

Бакалавр даражасини (Bachelor of Arts - BA ёки Bachelor of Science - BSc) олиш 4 йил ўқишни назарда тутди. Бу давр ичида талаба ўртача ҳар бири 3 кредитлик 40 тача фанни ўзлаштириши зарур бўлади. Биринчи ва иккинчи йил таянч билимларни олиш учун ажратилади (таъминан, 60-68 кредит) ва у оралиқ даража (Associates) билан яқунланади, учинчи ва тўртинчи йиллар мутахассислик фанларини жадал ўрганишга бағишланади ва бу жараён малакавий имтиҳон билан тугалланади.

Олий таълимнинг иккинчи босқичи (Graduate Level) – бу ўрта ҳисобда икки йиллик ўқиш натижасида магистр даражасини (Master of Arts - MA ёки Master of Science - MSc) олиш учун мўлжалланган магистрлик дастурларидир.

Даражани олиш учун талаба белгиланган миқдордаги кредит-соатларни тўплаши зарур. АҚШ да қабул қилинган USCS (US Credit System) тизимида кредит-соат – бу ўқиш вақтига асосланган ўлчовдир. Масалан, бакалавриятда 1 кредит-соат

талабанинг семестр давомида ҳар ҳафтадаги 1 академик соат аудитория ишига тенг. Бундан ташқари ҳар бир аудитория машғулотига 2 соат (100 минут) мустақил иш қўшиб берилади. Магистратурада ва айниқса докторантурада бу меҳнат ҳажмида мустақил ишнинг ҳиссаси кўпайиб бориши назарда тутилади.

АҚШ да бакалавр даражасини олиш учун 4 йилда камида 120 кредит-соат, магистр учун 1-2 йилда мос равишда 30-60 кредит-соат, докторлик дастурларида эса 3-4 йилда мос равишда 60-90 кредит-соат тўплаш талаб этилади.

Олий таълим тизимида кредит-соат тушунчаси дарс жадвалини тузиш, GPA ўртача баллини ҳисоблаш, кафедралар, ўқитувчилар ва талабаларнинг юкмасини аниқлаш учун асос ҳисобланади.

USCS тизими Америка талабаларининг мобиллигини оширади, чунки бир университетда олинган кредитлар бошқаларида ҳам ҳисобга олинади ва талабалар ўқишларини бир олий ўқув юртидан бошқасига синов бирликларини сақлаган ҳолда кўчиришлари мумкин. Бундай амалиёт қолдирилган ўқиш ва ўқишга тиклаш жараёнларини ўзаро боғлаш учун ҳам қўлланилади.

Испанияда университет таълими кўп поғонали бўлиб қуйидаги даврларни ўз ичига олади:

- биринчи таълим даври: у камида 3 йил давом этади ва 180-270 испан кредитларига тенг бўлади;

- бирлаштирилган биринчи ва иккинчи даврлар: 4-5 йилга мўлжалланган бўлиб (тиббийёт мутахассисликлари учун 6 йил), биринчи давр - 2-3 йил, иккинчиси - 2 йил давом этади. Кўрсатилган 4,5 ва 6 йилда талабалар 300-500 кредит тўплашади.

- иккинчи давр – якка тартибда;

- учинчи давр – докторантура.

Биринчи давр якунида талабаларга Diplomado, Arquitecto Tecnico ва Ingeniero Tecnico каби академик даражалар берилиши мумкин. Иккинчи давр якунида эса - Licenciado, Arquitecto ёки Ingeniero Superior даражалари берилиши мумкин. Докторлик даражаси учинчи даврда ўқишни якунлаган ва диссертацияни муваффақиятли ҳимоя қилган талабаларга берилади.

Испанияда “кредит”ни аниқлашга ўзгача ёндашилади – ҳар бир кредит 10 соат аудитория машғулотларига мос келади, тўпланган кредитлар йиғиндисига қараб талабанинг ўзлаштириши баҳоланади. Талабалар томонидан назарий ва амалий машғулотлар бўйича алоҳида кредитлар тўпланади, уларни ҳатто аудитория машғулотларидан ташқари бошқа ўқув ишларини бажариб ҳам олиш мумкин.

Швецияда 1 швед кредити университетда 1 ҳафта ўқишга тенг деб қабул қилинган. Бу тизим ўқув режаларини тузишни ва талабаларнинг бажарган ўқув соатларини ҳисоблашни енгиллаштириш учун жорий этилган. Швеция университетларида ўқув йили 40 ҳафта давом этади ва кузги ҳамда баҳорги семестрлардан иборат бўлади. Шундай қилиб, талаба ўқув йили давомида маъруза, якка тартибдаги ишлар ва бошқа ишларни ҳам қўшиб ҳисоблаганда 40 кредит тўплайди.

Бакалавр даражасини олиш учун 3 йиллик ўқиш давомида 120 кредит олиш керак. Магистратурада ўқиш 1-1,5 йил (60 кредит), докторантурада эса – 2-4 йил давом этади.

Швеция кредитларини Европа ECTS кредитлари билан таққослаш учун улар 1,5 га кўпайтирилади. Масалан бакалавриятдаги 120 Швеция кредити 180 ECTS кредитига, магистратурадаги 60 Швеция кредити - 90 ECTS кредитига тенг бўлади.

Швеция университетларида таълим жараёнлари маърузалар, семинарлар, баҳс-мунозаралар (ўқитувчи иштирокида ёки иштирокисиз) шаклида ташкил қилинади. Ҳар бир курс якунида имтиҳон семинарлари, аудиторияда топшириқларни бажариш ва ёзиш кўринишидаги имтиҳонларни топшириш назарда тутилади.

Белгияда кредит таълим тизими Европа ECTS кредит тизимларига мослаштирилган ва ҳалқаро ҳамкорлик доирасида қўлланиладиган кўринишда

тақдим этилган.

Буюк Британияда таълим тизими Бирлашган Қиролликнинг CATS (Credit Accumulation and Transfer Scheme/System – Кредитларни тўплаш ва кўчириш схемаси/ тизими) тизимига асосланган бўлиб, унинг мақсади кўп сонли малака ҳужжатлари тизимини ҳар бир тур учун алоҳида кредитлар белгилаш орқали тартибга солиш ва ягоналаштиришдир. CATS тизими Бирлашган Қиролликда, Жанубий Африкада ва Янги Зеландияда кенг тарқалган.

CATS бўйича академик йил 1200 шартли ўқув соатлари ёки 120 кредитни ўз ичига олади, 1 британия кредити 10 шартли ўқув соатларига тенг. Шартли ўқув вақти дейилганда, талаба фанни ўзлаштириши учун сарфлайдиган соатлар миқдори тушунилади. Шартли вақт аудитория машғулотлари, асосий амалий ишлар, лойиҳа устида ишлаш, мустақил таълим машғулотларини, имтиҳонларга тайёргарлик ва уларни топшириш каби фаолиятларни, яъни барча турдаги ўзлаштириш учун зарур бўлган ўқув фаолиятларини ўз ичига қамраб олади.

Британия университетларида бакалавр даражасини олиш учун 3 йил давомида 360 британия кредитларини қўлга киритиш керак. Тўртинчи йил талабаларга “имтиёзли бакалавр” (Bachelor with Honours) даражасини олишга имкон берилади.

Осиё-Тинч Океани региони учун UCTS (University Credit Transfer System) университет кредитларини ўтказиш тизими ҳам мавжуд. Бу тизимга регионнинг йирик давлатлари, масалан, Япония ва Хитой умуман қўшилишмаган. Бу лойиҳанинг тажриба схемаси 5 йилга (1999-2004 йй.) мўлжалланган эди. Унинг мақсади UMAP (Осиё-Тинч океани регионида университетлар мобиллиги) ташкилоти томонидан регионда ва UMAP фаолият соҳасига кирувчи ҳудудларда ва дунёнинг бошқа регионларидаги давлатлар билан биргаликда хорижий олий ўқув юртларидаги олинган кредитларни кафолатли тан олиш орқали талабалар алмашинувини самарали йўлга қўйишга ёрдам кўрсатиш эди.

UCTS кредитлар шкаласи худди ECTS ники каби бир академик йил учун 60 кредитни ташкил қилади (семестрда – 30). UCTS кредитлар шкаласи фақат конвертациялаш шкаласи сифатида ишлатилади. У қабул қилувчи ва ўқишга жўнатувчи олий ўқув юртларидаги мавжуд кредитлар тизимини (ёки ўқув юкламасини ўлчашнинг бошқа турларини) алмаштириш учун мўлжалланмаган.

UCTS тизими, академик йил учун 60 кредит ва ECTS баҳолаш шкаласи жорий этилганлиги сабабли ECTS моделига асосланган бўлиб, у ECTS моделининг соддалаштирилган варианты ҳисобланади. UCTS тизими институтлар ўртасида фақат талабаларнинг юкламалари ва баҳоларини тан олиш ва ўтказиш мақсадида ишлаб чиқилган, у муайян институтдаги мавжуд тизимни алмаштиришни назарда тутмайди. UCTS тизимида факультет вакили фақат UCTS дан фойдаланиш бўйича умумий тавсиялар беради ва олий ўқув юртлари ўртасида мулоқот юритувчи шахс ҳисобланади. Талабанинг ўзи шахсий хорижий таълим дастурини тузади. Талаба дастурни тузиб бўлганидан сўнг ўқишга жўнатувчи ва қабул қилувчи институтлар муайян дастурдаги фанларни ўрганиш учун талабага бериладиган кредитларга нисбатан ўзларининг розилиklarини маълум қилишади.

UMAP талабалар алмашинуви шартлари батафсил ифодаланган икки томонлама келишувларни тузишда университетларга ёрдам беради ва уларни қўллаб-қувватлайди.

Худди ECTS даги каби UCTS да ҳам, асосий мақсад талабанинг хорижда олган кредитларини ўқишга жўнатувчи институт томонидан қайта қабул қилинишини кафолатлаш ва шу орқали UMAP нинг самарасини ошириш ҳамда талабаларнинг мобиллигини оширишга қаратилган.

Япония синов бирликлари тизими американинг USCS тизими асосига қурилган бўлиб, унинг фақат битта фарқли жиҳати – “кредит-соат” тушунчаси “синов бирликлари” (units) атамаси билан алмаштирилганлигидир. Шунини таъкидлаш

жоизки, АҚШ нинг бир нечта университетлари, хусусан Массачусет техника университети ҳам ушбу атамадан фойдаланади. Япониялик талаба бакалавр даражасини олиши учун университетда 4 йил ўқиши керак, ундан 2 йили – кенг умумтаълим тайёргарлик, кейинги 2 йил – мутахассислик бўйича таълим. Фанлар мажбурий ва танлов фанларига бўлинади.

Шундай қилиб, Японияда бир синов бирлиги талаба семестр давомида бирор фанни ҳар ҳафтада бир соат ўқишини ва бакалавр даражасини олиши учун 146 синов бирлиги тўплаши зарурлигини англатади.

Японияда олий таълимдан кейинги таълим икки босқичдан иборат: «master course» – 2 йил давом этади ва магистрлик даражасини олиш билан якунланади ва «doctor course» – 3 йил давом этади ва доктор даражасини олиш билан якунланади.

Магистр даражасини олиш учун талаба 30 синов бирлиги тўплаши (бунда танлов фанлари илмий раҳбар билан келишиб олинади) ва диплом ишини ёзиши керак. Докторлик даражасини олиши учун магистрлик даражасини олгандан сўнг 3 йил давомида илмий раҳбари назоратида илмий иш билан шуғулланиши, битирув имтиҳонларини топшириши ва докторлик диссертациясини ҳимоя қилиши зарур.

Хитой таълим тизимини Чинхуа университети, Пекин давлат университети, Пекин техника университети, Жилиан университетлари мисолида ўрганиш шуни кўрсатадики, Хитой Халқ Республикасида Америка таълим тизимига ўхшаш уч даражали таълим тизими қабул қилинган. Бакалавр даражасини олиш учун 120 кредитни, магистр даражасини олиш учун – 30-60 кредитни қўлга киритиш керак. Ўқув йили икки семестрга ажратилган ва 1 сентябрдан бошланади. Бироқ, семестр давомийлиги Америка тизимидан фарқ қилиб 20 ҳафтани ташкил қилади. Университетларда ўқиш 4-5 йил, табиёт университетларида – 7-8 йил ва касбий-техник мактабларда – 2-3 йилни ташкил этади.

Шундай қилиб, юқорида келтирилганлардан кўриш мумкинки, нафақат давлатларнинг таълим тизимларида, балки “кредит” атамасини тушуниш ва уни талқин қилишда ҳам сезиларли фарқлар мавжуд. Агар Европа кредити ўз ҳажми бўйича барча аудиториядаги контакт соатларни ва ундан ташқаридаги соатларни акс эттирса, Америка кредит соати қатъий равишда фақат аудиториядаги контакт соатларни ўзида ифодалайди ва талаба икки баробар кўпроқ мустақил шуғулланишини, шу жумладан ўқитувчи раҳбарлиги остида ҳам мустақил шуғулланишини назарда тутаяди.

Кредит тизимларининг юзага келган кенг қамровли диверсификацияси шароитида ECTS тизими кўп миллатли Европа аънаналарини инobatга олган ҳолда турли таълим тизимларини яқинлаштиради. Ўзбекистонда кредит таълим тизими асосланган миллий моделни ишлаб чиқишда, Европа ECTS кредити ва Америка кредит соатлари тизимларининг ютуқларини инobatга олган ҳолда юқори таълим сифатини ва дунё таълим жараёнларига интеграциялашиш учун ишончли асосни танлаш мақсадга мувофиқдир.

Юқорида келтирилган дунё таълим тизимлари таҳлилидан келиб чиқиб Америка кредитлари (USCS) ни Европа (ECTS) ва Осиё-Тинч Океани (UCTS) кредитларига айлантириш анча осон: 1 Америка кредит-соати = 1 Хитой кредити = 1 Япон синов бирлиги = 2 Европа кредити = 2 Осиё-Тинч Океани кредити = 4 Британия кредити.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2023.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент, Ўзбекистон, 2021. –Б. 11.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини

тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ–5847-сонли Фармони.

4. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. Т.: “Тафаккур” нашриёти, 2020 й. 120 бет.

5. The European Higher Education Area. — Joint Declaration of the Ministers of Education. — Болонья, 1999.

БИЗНЕСПЕДАГОГИКА – ЁШ ТАДБИРКОРЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ ФАНИ (ГЛОБАЛ КАМБАҒАЛЛИК ВА ИШСИЗЛИКНИ ЙЎҚОТИШ КОНТЕКСТИ)

Ибраимов Холбой Ибрагимович

Педагогика фанлари доктори, академик,

Қуронов Муҳаммад

педагогика фанлари доктори, профессор,

Ражабов Сардор Бахтиёрович

иқтисодий фанлар бўйича фалсафа(PhD) доктори.

Аннотация: ушбу мақолада Ўзбекистонда Бизнеспедагогика педагогика фанининг бир бўлими сифатида шаклланганлиги, у ўқувчиларнинг шахсий ривожланишига, уларнинг ижтимоий ва иқтисодий компетенцияларини шакллантиришга қаратилганлиги, Педагогика фанидаги «таълим», «тарбия», «фаолият» каби тушунчалар бизнеспедагогикада ҳам аҳамият касб этилиши, яъни таълим: тадбиркорликка оид билимларни бериш (масалан, бизнес-режа тузиш, маркетинг, молиявий саводхонлик); тарбия: ўқувчиларда тадбиркорлик руҳини, масъулият хиссини, ижтимоий фаолликни тарбиялаш; фаолият: амалий машғулотлар орқали ўқувчиларга реал бизнес лойиҳаларини амалга ошириш имкониятини яратишни ўз ичига олиши баён этилган.

Калит сўзлар: бизнеспедагогика, бизнес-режа, маркетинг, молиявий саводхонлик, реал бизнес, ижтимоий компетенция.

БИЗНЕС-ПЕДАГОГИКА - МОЛОДЕЖНЫЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛИ ПРЕДМЕТ ОБУЧЕНИЯ (ГЛОБАЛЬНЫЙ КОНТЕКСТ БЕДНОСТИ И БЕЗРАБОТИЦЫ)

Ибраимов Холбой Ибрагимович

Доктор педагогических наук, академик,

Қуронов Муҳаммад

доктор педагогических наук, профессор,

Раджабов Сардор Бахтиёрович

доктор философии (PhD) по экономическим наукам.

Аннотация: в данной статье отмечено, что бизнес-педагогика в Узбекистане сформирована как раздел педагогической науки, направленная на личностное развитие учащихся, формирование их социальных и экономических компетенций, такие понятия, как «образование», «воспитание», «деятельность» в педагогической науке имеют значение и в бизнес-педагогике образование: предоставление предпринимательских знаний (например, составление бизнес-плана, маркетинг, финансовая грамотность); воспитание у учащихся духа предпринимательства, характера ответственности, социальной активности; деятельность: практические занятия включают в себя создание возможностей для реальных бизнес-проектов.

Ключевые слова: бизнес-педагогика, бизнес-план, маркетинг, финансовая

грамотность, реальный бизнес, социальная компетенция.

BUSINESS PEDAGOGY - YOUTH ENTREPRENEURS SUBJECT OF TRAINING GLOBAL CONTEXT OF POVERTY AND UNEMPLOYMENT)

Ibraimov Holboy Ibrahimovich

Doctor of pedagogical sciences, academician,

Kuronov Muhammad

Doctor of Pedagogical Sciences, Professor,

Rajabov Sardor Bakhtiyorovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences.

Abstract: this article notes that business pedagogy in Uzbekistan is formed as a section of pedagogical science aimed at the personal development of students, the formation of their social and economic competencies, such concepts as «education,» «upbringing,» «activity» in pedagogical science are also important in business pedagogy education: providing entrepreneurial knowledge (for example, drawing up a business plan, marketing, financial literacy); instilling in students the spirit of entrepreneurship, the nature of responsibility, social activity; activity: hands-on activities include creating opportunities for real business projects.

Key words: business pedagogy, business plan, marketing, financial literacy, real business, social competence.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Умумий ўрта таълимни 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси»га оид фармонлари, ҳамда «Ўзбекистон - 2030 стратегияси» каби ҳукумат томонидан белгиланган ҳужжатларда умумий ўрта таълим муассасаларида ўқувчиларнинг билим ва касб эгалари бўлиб чиқишларига муаммосига катта эътибор берилган.

Бу бежиз эмас, чунки тадбиркорлик компетенциялари Инсон капиталининг асоси бўлиб, шахс, оила, мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланиши учун зарур омил сифатида эътироф этилади. Жаҳон иқтисодиёти ва педагогикасида ўқувчиларнинг тадбиркорлик компетенцияларини ривожлантириш ўзининг самараларини ўнлаб йиллар давомида тасдиқлаб келмоқда. Европанинг ривожланган давлатларида мактаб ўқувчиларининг тадбиркорлик кўникмасини ривожлантириш бўйича турли бизнеспедагогик концепция ва дастурлар жорий қилинган. Ушбу дастурлар умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларида тадбиркорлик компетенцияларини ривожлантиришга қаратилган бўлиб, улар орқали ўқувчилар тадбиркорлик борасида келажакдаги фаолиятлари учун муҳим кўникмаларга эга бўлмоқдалар.

Бизнеспедагогика педагогика фанининг бир бўлими сифатида шаклланган бўлиб, у ўқувчиларнинг шахсий ривожланишига, уларнинг ижтимоий ва иқтисодий компетенцияларини шакллантиришга қаратилган. Педагогика фанидаги «таълим», «тарбия», «фаолият» каби тушунчалар бизнеспедагогикада ҳам аҳамият касб этади. Яъни таълим: тадбиркорликка оид билимларни бериш (масалан, бизнес-режа тузиш, маркетинг, молиявий саводхонлик); тарбия: ўқувчиларда тадбиркорлик руҳини, масъулият ҳиссини, ижтимоий фаолликни тарбиялаш; фаолият: амалий машғулотлар орқали ўқувчиларга реал бизнес лойиҳаларини амалга ошириш имкониятини яратишни ўз ичига олади.

Халқаро илмий адабиётларда тадбиркорлик компетенциялари билан боғлиқ масалалар кенг ўрганилган. АҚШда Junior Achievement (JA) 1919 йилда ташкил

этилган бўлиб, ёшларда тадбиркорлик ва молиявий саводхонликни оширишга қаратилган дастурлар тақдим этади. Финляндияда Me & MyCity дастури 2010 йилда жорий қилинган бўлиб, ушбу дастур 6-9-синф ўқувчиларига шаҳар ҳаёти ва тадбиркорлик ҳақида амалий билимлар беради. Сингапурда Innovation & Enterprise (I&E) Education концепцияси асосида 2004 йилдан бошлаб мактабларда инновация ва тадбиркорлик таълимига алоҳида эътибор қаратилган. Австралияда 2015 йилдан бошлаб The \$20 Boss Program дастури жорий қилинган бўлиб, бу дастур ўқувчиларга кичик бизнес лойиҳаларини амалга ошириш орқали тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш имконини бермоқда. Канаданинг The Learning Partnership's Entrepreneurial Adventure бизнеспедагогик дастури 1993 йилдан бошлаб жорий этилган бўлиб, ўқувчиларни тадбиркорлик лойиҳаларига жалб қилади.

Австрия-америкалик коуч Питер Друкер (“Innovation and Entrepreneurship” (1985), Гарри Хэмел “Leading the Revolution” (2000), Гарвард бизнес мактаби профессори Ховард Стивенсон (“A Perspective on Entrepreneurship” (1983), Джеффри Тиммонс (“New Venture Creation: Entrepreneurship for the 21st Century” (1990), Аллан Гибб (“Towards the Entrepreneurial University” (2005)ларнинг ишлари бизнес педагогикаси ва тадбиркорлик таълими соҳасида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, уларнинг асарлари кўплаб таълим дастурларида қўлланилади.

Жон Ковбо (John C. Covbo) нинг тадбиркорлик таълимига оид ишларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантиришнинг назарий асослари таҳлил қилинган. Альберт Бандура (Albert Bandura)нинг ижтимоий когнитив назарияси тадбиркорлик компетенцияларини ривожлантиришда ижтимоий-психологик омилларнинг аҳамиятини тасдиқлайди. Европа Иттифоқида амалга оширилган лойиҳаларда тадбиркорлик таълими ўқувчиларнинг иқтисодий фаолиятига тайёрлов учун асосий восита сифатида қаралади. Бу эса умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчиларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантиришнинг бизнеспедагогик технологиялари Ўзбекистонда кенг ўрганилиши зарурлигини, бу соҳада янги илмий, методик, конвергент изланишлар олиб бориш заруратини долзарб вазифага айлантиради.

Бизнеспедагогиканинг назарий асослари педагогика, психология, иқтисодиёт ва технологик инновациялар каби кўплаб фанларга таянади. Унинг мақсади ўқувчиларда тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш, уларни иқтисодий саводхонликка ўргатиш ва мустақил бизнес фаолиятини амалга оширишга тайёрлашдан иборат. Бу асослар ўз навбатида замонавий бизнес тизимини такомиллаштиришга, ёшларга тадбиркорлик кўникмаларини ўргатиш орқали жамиятнинг иқтисодий тараққиётига ҳисса қўшишга хизмат қилади. Шу боис ҳурматли Президентимиз тадбиркорларимизни қўллаб-қувватлашга чорлаб, “Тадбиркорликни ривожлантириш – биз учун стратегик вазифа. Бизнинг таянчимиз ҳам, суянчимиз ҳам, энг катта кучимиз ҳам шу соҳада мужассам... Биз катта иқтидор эгалари бўлган бизнес вакилларини асрашимиз, авайлашимиз зарур. Улар биз учун жуда қадрли инсонлар”, деб атаганлар.

Умумий ўрта таълим муассасаларида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш ҳолатини ўрганиш иқтисодий саводхонлик мактаб бизнеспедагогиканинг асосий элементларидан бири эканлигини кўрсатди. У ўқувчиларга пул билан ишлаш, бюджет тузиш, инвестицияларга қараганда фойдазарар таҳлилини ўргатиш, солиқ тизимини тушуниш каби мавзуларни ўз ичига олади. Иқтисодий саводхонлик тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш учун зарур билим ва кўникмаларни шакллантиради.

Замонавий умумий ўрта таълим тизимининг асосий мақсади — ўқувчиларда компетенцияларни шакллантириш. Шу боис бизнеспедагогикада қуйидаги компетенциялар алоҳида аҳамиятга эгадир: когнитив компетенциялар, яъни бизнесга оид назарий билимларни эгаллаш; амалий компетенциялар - реал бизнес

лойиҳаларини амалга ошириш; ижтимоий компетенциялар – муносабатларда самарали ишлаш, командада фаолият кўрсатиш; шахсий компетенциялар - ижодкорлик, қарор қабул қилиш, масъулият ҳисси ва ҳ.к.

Бизнеспедагогиканинг Ўзбекистондаги равнақи бир неча назарий ва инновацион вазифаларни бажаришни тақозо қилмоқда. Жумладан,

Ўзбекистон умумий ўрта таълим муассасаларида тадбиркорлик таълимини бизнеспедагогик модернизациялашнинг технологик принципларини асослаш;

умумий ўрта таълим муассасаларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантиришнинг бизнеспедагогикага асосланган инновацион технологияларини ишлаб чиқиш;

ўқувчиларда ҳалол тадбиркорлик компетенцияларини шакллантиришнинг моделини яратиш;

Ўзбекистон ёшларида тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш, стартаплар яратишга ўргатиш, менторлик ва networking ёрдами кўрсатишга қаратилган Мактаб бизнес-инкубатори (МБИ)нинг бизнеспедагогик дастурларини жорий қилиш;

мактаб ўқувчиларининг тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш, бизнес-лойиҳаларини қўллаб-қувватлашга қаратилган “Ватанимга инвестициям” номли иқтисодий ватанпарварлик ҳаракатининг ташкилий, бизнеспедагогик асослари ишлаб чиқиш;

мактаб ўқувчиларининг тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш тажрибасини, бизнес инкубаторлари тармоғини ҳамда ўқувчиларнинг иқтисодий ватанпарварлик ташаббусларини оммалаштиришга қаратилган “Biznespedagogika.uz” рақамли платформасини ишга тушириш долзарб зарурат бўлиб турибди.

Бизнеспедагогика – бу тадбиркорлик тафаккурини ривожлантириш, иқтисодий саводхонликни ошириш ва инсонларни бизнес муҳитига тайёрлаш билан боғлиқ таълим йўналиши. Шу боис Ўзбекистонда камбағаллик ва ишсизликни камайтиришда бизнеспедагогика қуйидаги асосий йўналишлар орқали самарали роль ўйнаши мумкин. Чунки камбағалликнинг асосий сабабларидан бири – тадбиркорлик билим, кўникмаларининг етишмаслигидир. Агар аҳоли тадбиркорлик фаолияти юритиш учун зарур билим ва кўникмаларга эга бўлса, ўз бизнесини ташкил этиш имконияти ошади. Бунда бизнеспедагогика бизнес режа тузиш, бозор таҳлили, маркетинг, молия бошқаруви каби билимларни ўргатиш орқали кишиларни ўзини ўзи банд қилишга тайёрлайди. Ёшлар ва ишсизлар учун махсус тадбиркорлик курслари ташкил этиш уларни меҳнат бозорига тайёрлайди. Кичик ва ўрта бизнес учун амалий тренинглар ўтказиш бизнесни йўлга қўйиш ва ривожлантиришга ёрдам беради.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда касбий таълимни ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Бизнеспедагогика мактаб ва олий ўқув юртларида тадбиркорликни рағбатлантириш орқали ёшларни ишлаб чиқариш жараёнига жалб қилишга хизмат қилади. Мактабларда “Тадбиркорлик асослари” дарсларини ташкил этиш ўқувчиларни эрта ёшдан тадбиркорлик маданияти билан таништириш имконини беради. Касб-хунар коллежлари ва университетларда стартап инкубаторлари талабаларни ўз бизнес ғояларини амалга оширишга ундайди. Академик таълим ва амалиёт уйғунлиги – талабаларни фақат назарий билимлар билан чеклаб қўймасдан, уларни ишлаб чиқариш жараёнларига ҳам жалб қилади.

Дунёда камбағалликни камайтиришда аёлларни тадбиркорликка жалб этиш, аёллар тадбиркорлиги жамиятда ижтимоий барқарорликни таъминлашда муҳим омил ҳисобланади. Бугунги кунда кўплаб аёллар иқтисодий фаолиятда иштирок этишни истайди, бироқ, билим, кўникмалари етишмайди. Бизнеспедагогика аёлларни уйда туриб ҳам тадбиркорлик билан шуғулланиш кўникмаларини ўргатади. Масалан, тикувчилик, қўл меҳнати, ошхона бизнеси, онлайн савдо каби

соҳаларда ўз ишини йўлга қўйиш бўйича махсус курслар ўтказиш мумкин. Бу эса камбағалликни камайтиришга бевосита ҳисса қўшади.

Ўзбекистонда қишлоқ жойларида агробизнес бўйича ўқув дастурларини жорий этиш – аҳоли, фермерлар ва деҳқонларнинг даромадини янада оширади. Шунингдек, молиявий саводхонлик ва агросаноат технологиялари бўйича тренинглар – замонавий технологиялардан фойдаланиш орқали ҳосилдорликни оширишга ёрдам беради, янги иш ўринларини яратишга, ўзини ўзи банд қилишга ўргатади.

Бизнеспедагогикада рақамли технологиялар муҳим роль ўйнаб, Интернет орқали тадбиркорликнинг онлайн таълимини йўлга қўйиш имкониятлари кенгаймоқда. Бу эса онлайн бизнеспедагогик курслари аҳоли, ёшларнинг интернет орқали даромад топиш кўникмаларини оширишга ёрдам беради, деганидир. Шунингдек, ёшларда freelance ва стартап маданиятини ривожлантириш улар учун янги имкониятлар яратади. Айниқса IT бизнеспедагогика ёшларни дастурлаш соҳасида ўқитиб, юқори даромадли соҳаларда иш жойлари яратишга ёрдам беради.

Бизнеспедагогика Ўзбекистонда камбағалликни камайтириш ва ишсизликни йўқотиш учун муҳим восита бўла олади. Уни таълим тизимиغا кенг татбиқ этиш орқали аҳолининг иқтисодий фаоллиги ошади, янги иш ўринлари яратилади ва тадбиркорлик муҳити шаклланади. Бу эса, бизнеспедагогика нафақат иқтисодий ўсишга, балки ижтимоий барқарорликка, “Ўзбекистон - 2030” стратегиясининг рўёбига катта ҳисса қўшади, демакдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2024 йил 20 декабрь куни мамлакатимиздаги фаол тадбиркорлар билан бўлган учрашувдаги нутқи.
2. Минский Е. М. Педагогические технологии формирования предпринимательских компетенций. Санкт-Петербург: Питер. 2008. 168 с.
3. Мирзаев М. Тадбиркорлик таълими: назарий ва методологик асослар. Тошкент: Фан ва технология. 2019. 234 б.
4. The Scope And Challenges Of Entrepreneurial Education In Developing Entrepreneurial Skills Of University Students In Uzbekistan.
5. How do Women Entrepreneurs in Uzbekistan Overcome Obstacles.
6. Педагогик таълим инновацион кластери асосида ўқувчиларни касбга йўналтиришнинг моҳияти.
7. Entrepreneurial universities in Uzbekistan - British Council.
8. The Entrepreneurship Ecosystem in Uzbekistan.

SMART TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TINGLOVCHILARNING KASBIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Aliqulov Abdulla Baxtiyor o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

*Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayorlash
va malakasini oshirish instituti*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada kasbiy ta'lim tizimida SMART texnologiyalaridan (Self-directed, Motivated, Adaptive, Resourceful, Technology-enhanced) samarali foydalanish orqali tinglovchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada mazkur shart-sharoitlarning mohiyati, o'zaro bog'liqligi va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish mexanizmlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, SMART texnologiyalari nafaqat o'quv jarayonini takomillashtiradi, balki tinglovchilarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini boshqarish va doimiy rivojlanishga bo'lgan intilishni shakllantiradi. Bu esa ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar qilib yetishtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: SMART texnologiyalari, Pedagogik shart-sharoitlar, Kasbiy tayyorgarlik, O'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim, Moslashuvchanlik, Ta'lim muhiti, Innovatsion pedagogika, Raqamli kompetentlik.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГОТОВНОСТИ СЛУШАТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ

Аликулов Абдулла Бахтиёр угли

Независимый исследователь

*Института переподготовки и повышения
квалификации кадров системы высшего образования*

Аннотация: В данной научной статье научно обоснованы педагогические условия совершенствования готовности слушателей к профессиональной деятельности посредством эффективного использования SMART-технологий (Self-directed, Motivated, Adaptive, Resourceful, Technology-enhanced) в системе профессионального образования. В статье анализируются сущность, взаимосвязь и механизмы внедрения этих условий в образовательный процесс. Согласно результатам исследования, SMART-технологии не только совершенствуют учебный процесс, но и формируют у слушателей стремление к самостоятельному мышлению, самоуправлению и непрерывному развитию. Это, в свою очередь, способствует подготовке конкурентоспособных специалистов для современного рынка труда.

Ключевые слова: SMART-технологии, педагогические условия, профессиональная готовность, самостоятельное обучение, адаптивность, образовательная среда, инновационная педагогика, цифровая компетентность.

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE READINESS OF TRAINEES FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES BASED ON SMART TECHNOLOGIES

Aliqulov Abdulla Baxtiyor o'g'li

*Researcher at the Institute for Retraining and
Advanced Training of Higher Education System Personnel*

Annotation: This scientific article provides a scientific analysis of the pedagogical conditions for improving the readiness of trainees for professional activities through the effective use of SMART technologies (Self-directed, Motivated, Adaptive, Resourceful, Technology-enhanced) in the professional education system. The article analyzes the essence, interdependence, and mechanisms for implementing these conditions into the educational process. According to the research results, SMART technologies not only improve the learning process but also form a desire in trainees for independent thinking, self-management, and continuous development. This, in turn, helps to train competitive professionals for the modern labor market.

Keywords: SMART technologies, Pedagogical conditions, Professional readiness, Self-directed learning, Adaptability, Educational environment, Innovative pedagogy, Digital competence.

Bugungi globallashuv va texnologik inqilob davrida ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalar qo'yilmoqda. Kasbiy ta'lim muassasalarining asosiy maqsadi – nafaqat nazariy bilim berish, balki tinglovchilarni amaliy ko'nikmalar, kreativ fikrlash va doimiy o'rganishga qodir bo'lgan mutaxassislar sifatida shakllantirishdir. Bu esa an'anaviy pedagogik yondashuvlardan voz kechib, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsiyalarni, xususan, SMART texnologiyalarini joriy etishni taqozo etadi. Bu texnologiyalar ta'limni individual ehtiyojlarga moslashuvchan, resurslarga boy va o'quvchini faollashtiruvchi jarayonga aylantiradi. Ushbu maqolaning maqsadi – SMART texnologiyalari asosida tinglovchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishning samarali pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda SMART ta'lim texnologiyalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. J. Brown (2023) o'z ishida SMART ta'limning umumiy tamoyillarini o'rgangan bo'lsa, M. Petrov (2022) adaptiv ta'lim tizimlarining kasbiy ta'limdagi ahamiyatiga e'tibor qaratgan. O'zbekistonlik olimlardan Z. Karimova (2024) kasbiy ta'limda innovatsion yondashuvlarni tahlil qilgan. Biroq, mavjud tadqiqotlarda SMART texnologiyalari asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini tizimli va kompleks tarzda yoritishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Ushbu maqola ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Shuningdek, SMART ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari tahlil qilingan.

Ilmiy yangiligi. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: SMART texnologiyalari asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari tizimlashtirilgan va ularning har biri ilmiy jihatdan asoslangan. Tinglovchilarning o'z-o'zini boshqaruvchi (Self-directed) ta'limini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ta'lim jarayonining moslashuvchanligini (Adaptive) ta'minlovchi diagnostik-korreksion vositalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan. SMART texnologiyalariga asoslangan pedagogik shart-sharoitlar. Kasbiy ta'limda SMART texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim: SMART ta'lim muhitini yaratish: Ta'lim jarayoni texnologik jihatdan takomillashgan, interfaol va resurslarga boy muhitda kechishi lozim. Bu nafaqat sinfxonalar, balki elektron platformalar va virtual laboratoriyalarni ham o'z ichiga oladi. O'z-o'zini boshqaruvchi ta'lim texnologiyalarini joriy etish: Pedagoglar tinglovchilarni faqatgina axborot qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda izlovchi va egallovchi sub-

yekt sifatida tarbiyalashlari lozim. Buning uchun loyiha asosidagi ta'lim (Project-based learning) va muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Individual ta'lim traektoriyasini shakllantirish: Har bir tinglovchining individual qobiliyatlari, qiziqishlari va o'zlashtirish tezligini hisobga olgan holda moslashuvchan o'quv dasturlari va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi shart. Tinglovchilar motivatsiyasini doimiy oshirib borish: O'quv jarayoniga amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlar, kasbiy tanlovlar va real loyihalar kiritilishi lozim. Bu tinglovchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini doimiy ravishda yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi. Pedagoglarning raqamli kompetentligini oshirish: Yuqoridagi shart-sharoitlarni amalga oshirish uchun pedagoglarning o'zlari SMART texnologiyalarini egallagan bo'lishlari va ulardan mahorat bilan foydalana olishlari zarur.

Xulosa. SMART texnologiyalariga asoslangan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish tinglovchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga imkon beradi. Ushbu shart-sharoitlar o'zaro bog'liq va ular birgalikda ta'lim jarayonini o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchan, amaliyotga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan tizimga aylantiradi. Natijada, bitiruvchilar nafaqat bugungi kunning, balki kelajakning kasbiy qiyinchiliklariga ham tayyor bo'lgan malakali kadrlar bo'lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. J. Brown, "The Future of Education: The Role of SMART Technologies", *International Journal of Educational Technology*, 2023.
2. M. Petrov, "Adaptive Learning Systems for Vocational Training", *Journal of Professional Development*, vol. 15, no. 2, pp. 45-60, 2022.
3. Z. Karimova, "Kasbiy ta'limda innovatsion yondashuvlar", *O'zbekiston ta'limi jurnali*, № 3, 2024.
4. A. V. Smith, "Self-Directed Learning in the Digital Age", *European Journal of Vocational Training*, vol. 8, pp. 112-125, 2021.
5. B. To'rayev, "Raqamli ta'lim muhitini shakllantirishning psixologik asoslari", *Pedagogika jurnali*, № 4, 2023.
6. X. Aliyev, "Professional Competencies in a Technology-Enhanced Learning Environment", *Journal of Modern Education*, vol. 10, no. 1, pp. 78-90, 2022.
7. M. Qodirov, "Kasbiy ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni," *Ta'lim va zamon*, № 1, 2024.

КОММУНИКАТИВНЫЕ ПРОЦЕССЫ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ КАДРОВ

Мустафоева Дурдона Асильовна

*Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт ирригации и механизации сельского хозяйства»,
доктор педагогических наук (DSc), доцент*

Аннотация. В последнее время уделяется особое внимание совершенствованию системы высшего образования на основе обеспечения прочной интеграции науки, образования и производства, исходя из потребностей социальной сферы и отраслей экономики, подготовке конкурентоспособных кадров, эффективной организации научно-инновационной деятельности, развитию международного сотрудничества, инновационной деятельности в менеджменте образования, дальнейшего развития деятельности по управлению персоналом специализированных кадров, взаимодействию и развитию интеграции образования с производственными учреждениями. Изучение инновационных процессов в образовании, их функций, закономерностей развития, механизмов и технологий их реализации позволяет организовать в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: управление, специализированные кадры, инновация, коммуникативные процессы, деятельность, коммуникативная компетентность.

MUTAXASSIS KADRLARNING BOSHQARUVCHANLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV JARAYONLAR

Mustafayeva Durdona Asilovna

Milliy tadqiqot universiteti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti", Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsenti

Аннотация. So'nggi paytlarda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy-innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ta'limni boshqarishdagi innovatsion faoliyat, ixtisoslashtirilgan kadrlar xodimlarini boshqarish faoliyatini yanada rivojlantirish asosida oliy ta'lim tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limdagi innovatsion jarayonlarni, ularning funksiyalarini, rivojlanish qonuniyatlarini, ularni amalga oshirish mexanizmlari va texnologiyalarini o'rganish oliy ta'lim muassasalarida tashkil etish imkonini beradi.

Калит so'zlar: boshqaruv, ixtisoslashtirilgan kadrlar, innovatsiya, kommunikativ jarayonlar, faoliyat, kommunikativ kompetentlik.

COMMUNICATION PROCESSES IN IMPROVING THE MANAGERIAL COMPETENCE OF SPECIALIZED PERSONNEL

Mustafaeva Durdona Asilovna

*National Research University "Tashkent Institute
of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers", Doctor of Pedagogical Sciences*

Annotation. Recently, special attention has been paid to improving the higher education system by ensuring a solid integration of science, education and production, based on the needs of the social sphere and economic sectors, training competitive personnel, effective organization of scientific and innovative activities, development of international cooperation, innovation in education management, further development of personnel management activities of specialized personnel, interaction and development of educational integration with industrial institutions. The study of innovative processes in education, their functions, patterns of development, mechanisms and technologies of their implementation allows you to organize in higher educational institutions.

Keywords: management, specialized personnel, innovation, communication processes, activity, communicative competence.

Введение (Introduction). В мировой системе образования проводятся различные научно-исследовательские работы, направленные на развитие инновационного и управленческого потенциала педагогических кадров. Учеными-педагогами и исследователями проводятся научно обоснованные исследования передовых образовательных технологий, их внедрение в учебно-воспитательный процесс, совершенствование нормативных документов и повышение качества образования.

В последние годы в стране проводится значительная работа, направленная на совершенствование механизмов организации и управления образовательным процессом, внедрение инновационного управления образованием на основе демократических принципов и кластерного подхода к нему, внедрение передовых педагогических технологий в систему непрерывного образования. Эти требования, в свою очередь, обязывают проектирование содержания развития управленческой деятельности руководителей на основе кластерного подхода в специализированных кадрах в процессах интеграции нашей страны в мировую экономическую систему, выхода национальных кадров на мировые рынки труда, совершенствования организационно-управленческих механизмов развития управленческой деятельности, технологий развития эффективной управленческой деятельности и управленческой компетентности руководителей.

В связи с высокой социальной значимостью высшего образования в устойчивом развитии общества был проведен ряд научных исследований по улучшению современных требований, системных проблем и разрозненности в их решении между отраслями образования, науки и производства, необходимости перевода непрерывного педагогического образования на кластерную модель развития, что в педагогическом процессе необходимо развивать знания, умения и навыки педагогов по цифровым и передовым педагогическим технологиям, мультимедиа, повышать профессиональную компетентность и готовность учащихся к профессиональной деятельности [1, С.57].

В Массачусетском Технологическом институте (Massachusetts Institute of Technology), Калифорнийском университете Лос-Анджелеса (University of California, Los Angeles), Университете Джона Хопкинса (University of Johns Hopkins), Техасском университете (Texas A&M University), Калифорнийском технологическом институте (California Institute of Technology-Caltech), Стэнфордском университете (Stanford University) примечательны подходы национальных исследовательских университетов к ориентации студентов на научные исследования. Развита управленческая компетентность специализированных кадров различных отраслей, направленная на формирование коммуникативных способностей специалистов на основе современных дидактических средств обучения, создана система оценки развития профессиональной компетентности специализированных кадров (Insti-

tute named after Frica Bauer); разработано профессиональное интеллектуальное и психоэмоциональное развитие и технология его оценки (National Advice on pedagogical Technology); диагностированы научно-теоретические вопросы формирования, развития профессионально-нравственных качеств специалиста по воспитанию молодежи как разносторонне совершенных личностей, изучению управленческой компетентности и особенностей их применения в практической деятельности (Seoul Cyber University). Основную часть деятельности этих университетов составляют инновационные научные исследования, изобретения, открытия и их коммерциализация.

Анализ литературы по данной теме (Literature review). Научно-теоретические основы педагогического образования в нашей стране, принципы непрерывности, преемственности и согласованности, инновационная модель образовательного кластера и механизмы его внедрения в практику были рассмотрены такими учёными, как Г.И.Мухамедов, Ш.К.Мардонов, У.Н.Ходжамкулов, Ш.И.Ботирова, С.А.Тоштемирова, Н.М.Кошанова, Г.Н.Шарипова и др. Вопросы по повышению качества подготовки специализированных кадров в системе высшего образования в образовательный процесс, кластерному подходу, развитию управленческих навыков специализированных кадров в определенной степени освещены в научных исследованиях отечественных учёных Н.Азизходжаевой, У.Бегимкулова, Р.Джураева, Ф.Закировой, Ш.Курбанова, А.Мусурмановой, В.Мамурова, Ш.Мардонова, Г.Олимова, М.Уразовой, Ш.Шарипова, Н.Эгамбердиевой, Ф.Юзликаевым, а внедрению механизмов интеграции функционального управления специализированными кадрами, управления качеством образования прослеживаются в работах У.Иноятова, Я.Исмадиярова, Д.Юлдашева, А.Магруппова, М.Саидова, С.Тургунова, М.Байбаевой, М.Мирсолиевой и Н.Юлдашевой.

Учеными стран СНГ Т.Базаровым, А.Деркачем, И.Зимней, Е.Зеер, Н.Кузьминой, Е.Кудрявцевой, А.Марковой, В.Сластениным, зарубежными учеными Р.Бояцисом, Д.Бартрамом, А.Маслоу, Дж.Равеном, В.Хутмахером изучены вопросы методологии развития управленческой компетентности, роль кластерного подхода в деятельности и профессиональной зрелости личности, управление компетенциями [2, 3, 4, С. 110, 97, 59].

Методология исследования (Research methodology). Сегодня эффективная деятельность образовательного учреждения во многом зависит от качества управления в нём. В то время как руководящий потенциал и навыки руководителя образовательного учреждения определяют качество данного управления, сами эти характеристики основаны на базовых знаниях, умениях, навыках и квалификации руководящих сотрудников.

Результат этих анализов показывает, что мы должны указать основные правила создания управленческой среды специалистами: быть вежливыми с коллегами, принимать правильные решения в конфликтных ситуациях; быстро усваивать информацию, работать над ней и своевременно быть ведущим в дискуссиях с педагогическим коллективом; целенаправленно использовать существующие возможности; быстрое освоение новых, современных инновационных технологий; анализировать свою деятельность; обладать умением учитывать интересы общества при внесении рекомендаций; учиться управлять сотрудниками на основе их личных и трудовых способностей; обладать навыками управления образовательным процессом на основе требований государственных образовательных стандартов, обеспечивать эффективность и активность в повышении качества образовательного процесса; прогнозировать будущее, изучать, разрабатывать и внедрять программу работы с кадрами; организуем распределение поручений – реализовать поставленные задачи, издание приказов по их разрешению; соглашение - взаимная адаптация распределения дел в коллективе, изучение возникшей ситуации, исходя

из способностей кадров.

В развитых странах в управлении образованием проявляется следующая современная управленческая деятельность.

Нами была сравнена управленческая деятельность высших учебных заведений и организаций и функции управления в масштабах всей организации выражены следующим образом:

Целенаправленная функция включает в себя задачи в деятельности организации для определенной цели.

Под организационной функцией понимается способность эффективно использовать имеющиеся возможности организации. В нем выражается последовательность задач, необходимых для выполнения руководителем.

Исходя из вышесказанного, приведем следующие частные функции из основных функций управления организацией:

планирование, то есть представления о том, каким будет целевой результат, этапы и методы их достижения.

Основной принцип в этом - координация руководителя и персонала;

под контролем понимается деятельность организации, ее ресурсы, импульсивность управления, а также реальная деятельность в основном контрольно-расчетном процессе;

личностно-педагогические функции, контролирующие и обеспечивающие функционирование работников организации в рамках норм и прав, принятых в обществе и на собственном предприятии;

социальная функция, при которой существуют дифференциации в деятельности и оплате труда различных профессий и наличие работников, нуждающихся в социальной защите;

стимулирующая функция заключается в материальном и моральном поощрении, заключающемся в обеспечении меры соблюдения исполнительской дисциплины [4, С.55].

При коммуникативном подходе к процессу управления важна: притягательность как для научных, так и для образовательных учреждений, т.е. повышение объемов и качества финансирования научных исследований, разработок, усиление уровня технического обеспечения научно-исследовательских работ, реализация инвестиционных проектов и участие во внешних проектах, возможность использования новых потенциалов повышения квалификации научно-педагогических кадров, дающее возможность осуществлению обеспечения сотрудничества всей системы непрерывного образования, разработки и внедрения в практику программ сотрудничества, созданных между работодателем и образовательными учреждениями.

Анализ и результаты (Analysis and result). Компетенция - это совокупность знаний, относящихся к оценке поведения личности, с помощью которых можно определить, какой уровень успешности достигается сотрудником в осуществлении своей деятельности на пути эффективного развития организации. Наличие компетенций обычно фиксируется через определенные обстоятельства, измеряющие (с помощью индикаторов) поведение человека (хорошо сформированные поведенческие компетенции).

Компетенции: 1) стандартное поведение, принятое в масштабах всей организации; 2) способность руководителя вести деятельность в соответствии со стандартами, принятыми в масштабах всей организации [5,6, С. 97,108].

Коммуникативная компетентность – это способность руководителя овладевать технологиями устного и письменного общения на разных языках, а также способность руководителя и сотрудников вступать в отношения посредством коммуникативной речи. Некоторыми специалистами понятие социально-психологической

компетентности также часто используется как синоним понятия “коммуникативная компетентность”. Для определения непосредственной коммуникативной компетентности используется ряд методик, таких как “Уровень коммуникативной компетентности”, “Способность высказывать свое мнение”, а также осознание того, насколько хорошо он может контролировать себя.




Рисунок 1. Организационно-педагогические факторы коммуникативного поведения

В формировании коммуникативных компетенций у руководителей хотим проинформировать о таком качестве, как внимание к коммуникации. Руководитель, обладающий этой компетенцией: наблюдает за каждым сотрудником в коллективе, чтобы заранее знать о предстоящих планах и действиях, которые могут произойти; наблюдает, как управляющий делится своими планами с коллегами и другими заинтересованными сотрудниками; при передаче важных сообщений эффективно использует всевозможные средства коммуникации, следит за тем, чтобы обмен информацией происходил согласованно и непрерывно [7,8, С.58, 99].

Основным компонентом коммуникативной компетентности является способность руководителя профессионального образовательного учреждения координировать взаимодействие с учетом позиции другого участника в области коммуникативной и информационной грамотности. О.С. Анисимов выделяет четыре основные роли в процессе коммуникации: “авторство”, “взаимопонимание”, “критическое мышление” и “организация” [11. С. 102].

Заключение и предложения (Conclusion / Recommendations). Данная структура представляет собой совокупность факторов формирования управленческой деятельности специализированных кадров на основе кластерного подхода, основанного на принципах формирования управленческой деятельности специализированных кадров, а именно формирования инновационных групп при кафедрах специальности вуза с ведущими профессорами, учеными-специалистами, докторантами, независимыми исследователями, соискателями, талантливыми студентами и представителями производства; налаживание взаимовыгодного и эффективного использования научных, практических, методических, информационно-коммуникационных и материально-технических ресурсов, эффективного сотрудничества с широкой общественностью, управленческих задач специализированных кадров, включающих: развитие собственной деятельности, их личностное и профессиональное развитие, развитие личностных, профессиональных компетенций кадров, управленческой деятельности руководителя, умение создавать среду творческой деятельности в коллективе и контролировать ее с точки зрения обучения, создание атмосферы взаимодействия в образовательном учреждении, также научно обосновано, что

достижение интеграции образования является важным фактором [9,10. С. 28, 67].

Исходя из вышеизложенного, на наш взгляд, участие специализированных кадров в коммуникативных процессах, коммуникативное поведение - это профессионально-управленческие навыки, зависящие от информационно-коммуникационных технологий, необходимых для обучения в информационной среде, обеспечения эффективной деятельности, критического мышления, принятия, усвоения, творческой обработки, передачи, хранения, качественного образования и распространения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES)

1. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах. Автореф. дисс... док.пед.наук. – Ташкент, 2009. – 39 с.
2. Инояттов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже. Дисс. ... док. пед.наук. – Т.: 2003. – 327 с.
3. Базаров Т.Ю., Ермина Б.Е. Управление персоналом. – М.: ЮНИТИ, 2002. 430 с.;
4. Zuhra Ismailova, Durdona Mustafоеva Technology for the development of media competence of students // Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 // Issn: 2181-3337 // scientists.uz <https://doi.org/10.5281/zenodo.7612303>
5. Мустафоева Д.А. Основы развития управленческой компетентности у педагогов // Innovative development in the global science - 2022 г. Boston, USA Abstracts of VIII International Scientific and Practical Conference, 6-part, 91-97 pages.
6. Hutmacher W. Key competencies for Europe // Report of the Symposium Bern, Switzerland 27-30 March, Council for Cultural Cooperation a Secondary Education for Europe. Strasburg, 1997.
7. Мустафоева Д.А. Организация повышения профессиональной компетентности педагогических кадров в компетентностно-ориентированном образовании // “Народное образование” научно-методический журнал. – Ташкент. ISSN 2181-7839. - №4. -2022. В.139-143.
8. D.Bartram. The Great Eight Competencies: A Criterion-Centric Approach to Validation. Article in Journal of Applied Psychology 90(6):1185-03. November 2005.
9. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. – М.: 2002.
10. Кудрявцева Е.И. Компетенция и менеджмент: компетенции в менеджменте, компетенции менеджеров, менеджмент компетенции. – Санкт Петербург.: 2012. – 340 с.
11. Анисимов О.С. Методологический словарь для стратегов. Методологическая парадигма и управленческая аналитика. – М., 2004. – 364 с.

BELARUS-UZBEK ILMIY-METODIK JURNAL

Tahririyat kengashi

Bosh muharrir:

Begimqulov U. Sh.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Ismadiyarov Y. U.

Mas'ul kotib:

Umaraliyeva M. A.,

Tahririyat kengashi a'zolari:

Mardonov Sh.K., Yuzlikayev F.R., Narzikulova F.B., Gancherenok I.I., Milan P., Kodirov A.S., Soliyeva Z.T., Isyanov R.G., Kodirov G.U., Avazboyev A.I., Mullaxmetov R.G., Nabiulina L. M., Rahimmirzayev S.B., Matnazarova M.B., Yusupova E.F., Janpeisova G.E., Begatov J.M., Adashboyev Sh.M., Parpiyeva M.M., Choriyev I.R., Achilova S.D.

Редакционная коллегия

Главный редактор:

Бегимкулов У.Ш.

Заместитель главного редактора:

Исмадияров Я.У.

Ответственный секретарь:

Умаралиева М.А.

Члены редакционной коллегии:

Мардонов Ш.К., Юзликаев Ф.Р., Нарзыкулова Ф.Б., Ганчерёнок И.И., Milan P., Кодиров А.С., Солиева З.Т., Исянов Р.Г., Кодиров Г.У., Авазбоев А.И., Муллахметов Р.Г., Набиулина Л.М., Рахиммирзаев С.Б., Матназарова М.Б., Юсупова Э.Ф., Джанпеисова Г.Э., Бегатов Ж.М., Адашбоев Ш.М., Парпиева М.М., Чориев И.Р., Ачилова С.Д.

Editorial Board

Editor-in-chief:

Begimkulov U.S.

Deputy Editor-in-chief:

Ismadiyarov Ya.U.

Executive Secretary:

Umaraliyeva M.A.

Members of the Editorial Board:

Mardonov Sh.K., Yuzlikaev F.R., Narzykulova F.B., Gancherenok I.I., Milan P., Kodirov A.S., Soliyeva Z.T., Isyanov R.G., Kodirov G.U., Avazboev A.I., Mullahmetov R.G., Nabiulina L.M., Rakhimmirzaev S.B., Matnazarova M.B., Yusupova E.F., Dzhhanpeisova G.E., Begatov Zh.M., Adashboev Sh.M., Parpieva M.M., Choriev I.R., Achilova S.D.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.

E-mail: info@miptk.uz Tel: +998951448805, Faks: +998951448805

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar

"BELARUS-O'ZBEK ILMIY-METODIK JURNALI" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

"SAHHOF" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: 11.10.2023-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.

Shartli b.t. 12.0. Adadi 50 nusxa. 5-buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.